


M.A. JO'RAYEVA

DORIVOR O'SIMLIKLAR ATLASI





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

M.A. JO'RAYEVA

DORIVOR O'SIMLIKLAR ATLASI

O'quv qo'llanma



Toshkent
NOSHIR
2019




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

M.A. JO'RAYEVA

DORIVOR O'SIMLIKLAR ATLASI

O'quv qo'llanma



Toshkent
NOSHIR
2019

UO'K 633.88(075.8)
KBK 42.143ya73
J 96

Taqrizchilar:

Sobirov M.A. Toshkent stomatologiya instituti dosenti
Rizamuxamedova M.Z. Toshkent tibbiyot akademiyasi, professor t.f.d.,
Farmonova N.T. Toshkent farmasevtika instituti dotsenti
Z.S.Saloxiddinov Andijon davlat tibbiyot instituti professori

Jo'rayeva, M.A.

Dorivor o'simliklar atlası [Matn]: o'quv qo'llanma/ M.A. Jo'rayeva.
– Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. – 264 b.

Ushbu atlasda tabiiy giyohlar, ularning ta'siri har xil xastalıklarda qo'llanishi, "noyob reseptlar" haqida ham keng ma'lumotlar berilgan. Xalqimiz ushbu asarda giyohlarni qayerdan topish mumkinligi haqida ham ma'lumot oladi.

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu "Dorivor o'simliklar atlası" kattagina hajmdagi ma'lumotlarni beribgina qolmasdan har bir o'simlikning rangli surati bilan boyitilgan.

Kitobdan xalqimiz o'zi uchun zarur maslahatlarni, albatta oladi, shuningdek, turli dardlardan shifo topishlarida ularga katta yordam beradi, deb umid qilib qolamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 531-sonli buyruq bilan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi olingan.

UO'K 633.88(075.8)
KBK 42.143ya73
J 96

ISBN 978-9943-5483-4-3

© M.A. Jo'rayeva, 2019
© "NOSHIR", 2019

SO‘ZBOSHI

Tabobat insoniyat bilan bir davrda paydo bo‘la boshlagan. Insonlar o‘z-o‘ziga, bir-biriga yordam berishi oqibatida asta-sekin tibbiy bilimlar vujudga kelib, asrlar davomida o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Tibbiy bilimlar rivojlanishi hozirgi davrga kelib o‘ta ixtisoslashib, mayda bo‘limlarga bo‘lindi. Shunga qaramay, tabobat ilmi hozirgi zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va asrlar osha yetib keldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan “Xalq tabobati akademiyasi”ning tashkil etilishi O‘zbekiston tarixida muhim voqea bo‘ldi. Zero, qadimiy Turon tabobati dunyosida tamal toshi qo‘yganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Bu muqaddas zamin tuprog‘idagi har bir giyohning yaprog‘idan ildizigacha turli dardlarga shifo bo‘lishi azaldan isbotlangan. Dorivor ichimliklar, malhamlar tabiiy giyohlardan tayyorlanganligi bois alpqomat Alpomishlar, suluv Barchinoylar dunyoga kelib, yetti iqlimga dong‘i ketgan. Jahon tabobatining shayxurraisi Abu Ali ibn Sino kabi allomlarning Vatani bu yurt.

Birinchi Prezidentimizning xalq tabobatiga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligidan ilhomlanib, ushbu kitobni tartibga keltirishga jazm etdik. Ushbu jazmdan maqsad, bir tomondan xalqimizni O‘rta Osiyoda o‘sib o‘z foydasini keltirayotgan o‘simliklarimiz atlasini yaratish va ushbu o‘simliklar haqida to‘liq ma’lumot berishni o‘zimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Qo'lingizdagi "Dorivor o'simliklar atlas" ning tabobatda o'ziga xos ahamiyati shundaki, dorivor o'simliklar haqidagi barcha ma'lumotlar uch tilda berilgan. Bunday ma'lumotlar ba'zi o'simliklarga oid adabiyotlardan farqli o'laroq barcha foydali o'simliklar umumlashtirilgan. Atlasdagi ma'lumotlarning asl mag'zi muallif professor Azimjon Jo'rayevich Jo'rayev va uning shogirdlarining ko'p yillik bilim va tajribalari, takliflari bilan uyg'unlashtirilib, zamonaviy tibbiyotning ilg'or usuli bayon etildi.

Shuningdek, shu kungacha e'lon qilinmagan tabiiy o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari xususida ham keng ma'lumotlar berilgan. Dorivor o'simliklardan dori tayyorlashning qulay usullari bayon etilgan. Jahon xalqlari tabobatida dori-darmonlarning qanday tayyorlanishi, iqlimiy sharoitiga qarab iste'mol qilishning salbiy yoki ijobiy ta'sirlari hisobga olingan.

Ushbu atlasda tabiiy giyohlar, ularning ta'siri har xil xastaliklarda qo'llanishi, "noyob reseptlar" haqida ham keng ma'lumotlar berilgan. Xalqimiz ushbu asarda giyohlarni qayerdan topish mumkinligi haqida ham ma'lumot oladi.

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu "Dorivor o'simliklar atlas" kattagina hajmdagi ma'lumotlarni beribgina qolmasdan har bir o'simlikning rangli surati bilan boyitilgan.

Kitobdan xalqimiz o'zi uchun zarur maslahatlarni, albatta oladi, shuningdek, turli dardlardan shifo topishlarida ularga katta yordam beradi, deb umid qilib qolamiz.

Kitobda ba'zi kamchiliklarning bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham kitobxonlarning fikr-mulohazalari mualliflar jamoasi tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi va keyingi nashrlarda inobatga olinadi.

Tibbiyot fanlari doktori, akademik S.Y. Tursunov

ALOY

ALOY – ALOE DREVOIDNOE, ILI STOLETNIK – ALOE ARBORESCENS


O'simlik tasviri. Piyozguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 4 m gacha yetadigan doim yashil daraxtsimon yoki o't-o'simlik. Barglari qini yordamida poyada ketma-ket joylashadi, ko'pincha poyasining yuqori qismida to'pbarg hosil qiladi. Barglari qalin, sershira, yumshoq, qilichsimon, yuqori tomoni botiq, pastki tomoni do'ng bo'lib, chiqqan, qirrası tikanlar bilan qoplangan, uzunligi 60-65 sm, qalinligi 12-15 mm ga yetadi. Gullari chiroyli va turli rangda bo'lib poyasining yuqori qismidagi to'pbarg o'rtasidan chiqqan uzun silindrsimon gul o'qiga joylashgan shingilni hosil qiladi. Mevasi – uch qirrali silindrsimon ko'sakcha.

Geografik tarqalishi. Vatani – Afr ikaning janubi-sharqi. Sobiq Sho'ro davlatlarida ikki turi: Daraxtsimon aloy – Aloe drevovidnoye va yo'l-yo'l aloy. Gruziya (Adjariya, Ukraina (Odessa atrofi)da O'rta Osiyoda bir yillik o'simlik sifatida, o'tlarda ko'p yillik o'simlik o'rnida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Bargi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Barglari va undan olinadigan sabur tarkibida antrasen hosilalari (aloin, vataloin, izoemodin) smolalar, efir moyi, achchiq va boshqa moddalar bor.

Saburning yuqori dozasi (0,03-0,2 g) surgidori sifatida, kichik dozasi (0,01-0,02 g) ovqat hazmini yaxshilash va ishtaha ochish maqsadida ichiladi. Biogen stimulyatorlarga boy barglaridan suyuq ekstrakt (flakon va ampulalarda chiqariladi), liniment (emulsiya), sharbat va tabletka



ALOY – ALOE

tayyorlanadi. Suyuq ekstrakti va tabletkasi ko'z kasalliklarida (kon'yuktivit, ko'z shishasimon tanachasining xiralashishi va boshqalar) hamda boshqa kasalliklarda (xronik artrit, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, bronxial astma) qo'llaniladi. Aloy surtmasi va sharbati kuyganga, turli yaralarga (tropik, yuqumli, yiringli va boshqa), quruq va ho'l epidermitlarga, nur bilan davolash paytida II-III darajali kuyganga ishlatiladi. Sharbati yana gastrit, enterokolit, kolit va qabziyatda ichiladi.

Aloy bargi qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelingan. Qurilmagan bargi va uning shirasi me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralarini davolashda qo'llaniladi. O'pka silini davolashda aloy bargi shirasini asal va cho'chqa (charvisi) yog'i bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste'mol qilishga beriladi. Aloy bargini o'rtasidan uzunasiga kesib (pichoq, shisha va boshqa narsalar bilan) tananing kesilgan joyiga, shirasini yaralarga, ular yiringlab ketmasligi va tez bitishi uchun qo'yiladi. Shuningdek, aloy bargi milk yallig'laganda, shishib og'riganda milklarga ham qo'yiladi.

Sabur preparatlarini bavoasil kasalligida, homiladorlikda va hayz ko'rganda iste'mol qilmaslik lozim. Aks holda qon ko'p ketishi, homilador ayollarda bola tushishi mumkin.

ANJABOR, YERQUNOQ **ANJABOR, YERQUNOQ – GERAN LUGOVAYA** **– GERANIUM PRATENSE**

Botanik ta’rifi. Anjabor ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlikdir. Ildizpoyasi kalta yo‘g‘on, to‘q qo‘ng‘ir rangda, buralib o‘sadi. Poyalari tik, silliq, yaltiroq, bo‘yi 65 sm gacha boradi. Barglari cho‘ziq tuxumsimon, qalin tukli bo‘lganligidan kulrangroq bo‘lib ko‘zga tashlanadi, pastki barglari kalta bandli, ustkilari poyasiga taqalib turadi. Och pushtirangli bo‘ladigan gullari boshoqsimon to‘pgul hosil qiladi. Mevasi — uch qirrali, deyarli qora rangda bo‘ladigan yaltiroq yong‘oqcha. Iyun-iyulda gullab meva tugadi.

Geografik tarqalishi. Anjabor O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalarining ko‘pgina joylaridagi toshloq, o‘tloqlarda o‘sadi.

Ishlatiladigan organlari: ildizpoyasi.

Kimyoviy tarkibi. Anjabor o‘tining yer ostki organlarida 12,7 – 12,1% oshlovchi moddalar, 28,4 – 32,2% ekstraktiv moddalar va oksimetilantroxinonlar yuqi bor.

Ta’siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida bu o‘tdan tayyorlangan galen preparatlari siydik va o‘t-tosh kasalligida, enteritlar, kolitlar, stomatitlar, furunkulyozlarda, shuningdek, turli ichki organlardan qon ketayotgan paytda qo‘llaniladi.

Zamonaviy tabobatda bu o‘simlikdan spirtida tayyorlangan ekstraktning bir qancha turdagi bakteriyalarga, jumladan, sil tayoqchasiga qarshi sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Anjabor o‘tidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakt ilmiy tabobatda burishtiruvchi va qon oqishini to‘xtatuvchi vosita tariqasida ishlatiladi. Ulardan turli gastritlar, me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi, stomatit, gingivitlarga davo qilish uchun foydalaniladi.

Tayyorlash va ishlatish usullari.

1. Anjabor o'tining mayda to'g'ralgan ildizpoyalaridan bir oshqoshiq miqdorda olib, ustiga 1 l suv quyiladi-da, 20 minut qaynatiladi, batamom soviguncha damlab qo'yilib, keyin suzib olinadi. Siydik-tosh va o't-tosh kasalliklarida yarim stakandan kuniga 3 – 4 mahal ichish buyuriladi.

2. Sirlangan idishga 5 g miqdordagi yanchilgan anjabor ildizpoyasini bir choyqoshiq zig'ir urug'iga aralashtirib solinadi, ustiga 1 stakan suv quyiladi va boshqa idishdagi qaynab turgan suv ustida 15 minut qaynatiladi, bir soat davomida damlab qo'yib keyin suzib olinadi. Qon ketayotganda har ikki soatda bir qoshiqdan ichib turishga buyuriladi.

3. Anjabor o'tining mayda qirqilgan ildizpoyasidan 15 g miqdorida olinib, ustiga 0,5 l suv quyiladi-da, 1 soat qaynatiladi. Keyin suzib olib chipqonlarga, yaralar va ko'pdan beri bitmay kelayotgan jarohatlarga davo qilish uchun surtiladi.

Oqish, ko'rimsiz, koptokchalar ko'rinishidagi barg qo'ltiqlaridan chiqadi. Mevasi – ochilmaydigan bir urug'li yong'oqcha. Iyundan to kuzgacha gullab meva tugaveradi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Ittifoq Yevropa qismining chekka shimoldan tashqari hamma hududlarida, O'rta Osiyo, Janubiy Qozog'iston, Kavkaz, Oltoyda tarqalgan. Asosan qumli tuproqlarda, dalalar, bo'z yerlarda, yo'llar chetida va 800 – 2400 m gacha balandlikdagi soy yoqalarida o'sadi.

Ishlatiladigan organlari: o'simlikning yer ustki qismi (o'ti).

Kimyoviy tarkibi. Bu o't tarkibida 12% gacha triterpen saponinlar, triterpen glikozidlar, B va C vitaminlari, kumarinlar, flavonoidlar, efir moylari, alkaloidlar yuqi va boshqa moddalar bor.

Ta'siri va ishlatilishi. O'rta Osiyo xalq tabobatida bu o't yurak kasalliklarida, revmatizm, artritlarda, badanda shish

paydo bo'lgan vaqtlarda, nafas yo'llari va qovuqning yallig'lanish kasalliklarida siydik haydaydigan, o't haydaydigan, shuningdek, burishtiradigan vosita tariqasida qo'llaniladi. Bu o'simlikning qaynatmasidan belarus xalq tabobatida sariq kasalligi, qorin og'rig'i, churra kasalligida, qon aralash siyish vaqtida foydalaniladi. Bolalarda uchraydigan gush kasalligi, diatezlarda bolalar shu o't qaynatmasida cho'miltiriladi.

Zamonaviy tabobatda bu o'simlikning siydik haydash, bir qadar o't haydash xossasi borligi, spazmlarni bartaraf etib, yallig'lanishga, bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Qovuq yallig'langanida va bo'yрак bilan qovuqda tosh bo'lganida bu o't, ayniqsa, yaxshi naf beradi. Shu munosabat bilan bo'yрак jomlari va siydik yo'llari yallig'langanida, bo'yрак sanchig'i vaqtida, shuningdek, bo'yрак va qovuqdan toshlar, qumlarni tushirish uchun qaynatmasini ichish buyuriladi. Og'ir jismoniy ishdan keyin muskullar og'rib turgan mahallarda 10% li damlamasidan 1 oshqoshiq dan kuniga 3 mahal ichib turish tavsiya etiladi. Dispepsiya paytida, ichak burab og'rib turgan mahallarda yallig'lanishga qarshi antiseptik vosita tariqasida o'tining damlamasi va ildizining qaynatmasi buyuriladi. Isteriya, quyonchiq kasalliklarida urug'i va o'tidan tayyoplangan damlamasi tinchlantiruvchi vosita tariqasida ishlatiladi. Bug'lab, yumshatilgan barglari badanning lat egan joylariga, og'rib turgan bo'g'imlarga qo'yiladi.

1. Maydalangan 1 oshqoshiq o'ti ustiga bir stakan qaynoq suv solib, batamom sovigunicha damlab qo'yiladi-da, suzib




ANJABOR, YERQUNOQ

olinadi. Ovqatdan oldin 1 oshoshiqdan kuniga 3 – 4 mahal ichish uchun buyuriladi.

2. Yer ustki qismlaridan olingan yangi suvini ovqatdan ilgari, 2 – 3 oshqoshiq dan kuniga 3 – 4 mahal ichiladi.

3. Bir oshqoshiq xerniariya o'ti va bir oshqoshiq barglari ustiga 200 ml qaynoq suv quyib, 10 minut qaynatiladi-da, qaynatmani sovigunicha damlab qo'yiladi, keyin suzib olinib, 1/2 stakanda n kuniga 3 mahal ichiladi.

ARPABODIYON, ANISSIMON ARPABODIYON ARPABODIYON – ANIS OBIKNOVENNIY – ANISUM VULGARE



ARPABODIYON

O'simlik tasviri. Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub bir yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, ko'p qirrali, yuqori qismi shoxlangan, bo'yi 30-60 sm ga yetadi. Ildizoldi va poyasining pastki qismidagi barglari uzun bandli, yumaloq, bo'yraksimon, tuxumsimon yoki bo'lakli va yirik tishsimon qirrali, o'rta qismidagilari – uzun bandli, uch bo'lakli (bo'laklari rombsimon) arrasimon qirrali, yuqori qismidagilari qinli, 2-5 bo'lakka patsimon qirqilgan yoki nashtarsimon bo'ladi. Barglari poyaga ketma-ket o'rnashgan.

Mayda, ko'rimsiz oq rangli gullari murakkab soyabonga to'plangan. Mevasi — qo'shaloq pista.

Geografik tarqalishi. Voronej viloyati, Ukraina va Shimoliy Kavkazda hamda ziravor o'simlik sifatida O'rta Osiyoda ko'p o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida 6 % gacha efir moyi, 8-28,4% yog', oqsil va boshqa moddalar bor. Efir moyi 80-90 % anetol, 7-10% metilxavikol, anis aldegidi, anis kislotasi va boshqa birikmalardan tashkil topgan.

Mevasi va efir moyi balg'am ko'chiruvchi (bronxit traxeit, laringit, ko'kyo'tal, nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida), ichak faoliyatini kuchaytiruvchi, yel haydovchi (meteorizm — qorin dam bo'lganda) va surgu sifatida qo'llaniladi. Mevasi ich yumshatuvchi va ko'krak og'rig'iga qarshi ishlatiladigan choylar — yig'malar, shuningdek, efir moyi, novshadil-arpabodiyon tomchisi va ko'krak eliksiri tarkibiga kiradi. Efir moyi dorishunoslikda dori ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Arpabodiyon mevasidan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaha ochuvchi, balg'am ko'chiruvchi, yel, o't va siydik haydovchi, terlatuvchi hamda yengil surgu sifatida xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinadi. Shu maqsadlar uchun arpabodiyon mevasidan ibn Sino ham o'z vaqtida keng foydalangan.

Arpabodiyon mevasi va undan olinadigan efir moyi oziq-ovqat sanoatida, efir moyidan ajratib olingan anetol esa parfyumeriyada qo'llaniladi. Arpabodiyon mevasidan olingan moy sovun tayyorlash ham keng ishlatiladi.

ARSLONQUYRUQ
ARSLONQUYRUQ –
PUSTIRNIK SERDECHNIY
– LEONURUS ARDIACA



ARSLONQUYRUQ

O‘simlik tasviri.

Arslonquyruq turlari yasnotkadoshlar (labguldoshlar) – Loshlaceae (Labialae) oilasiga mansub, bo‘yi 50-150 (200) sm ga yetadigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi bir nechta, tik o‘sadi, shoxlangan, to‘rt qirrali. Barglari tuxumsimon bo‘lib, besh bo‘lakka qirqilgan,

yuqoridagilari cho‘ziq ellipssimon, uch bo‘lakka qirqilgan bo‘lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida qaramaqarshi o‘rnashgan. Pushti yoki pushti binafsha rangli, besh bo‘lakli, ikki labli gullari o‘simlikning yuqori qismidagi barglari qultig‘ida halqa shaklida joylashib, boshhoqsimon to‘pgulni hosil qiladi. Mevasi – to‘rtta yong‘oqcha.

Iyun - avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul – sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Arslonquyruq turlari sobiq Sho‘ro davlatlarining yevropa qismi, Kavkaz va G‘arbiy Sibirdagi aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, bo‘sh yotgan va tashlandiq joylarda, ekinzorlarda va boshqa yerlarda o‘sadi.

Tibbiyotda arslonquyruqning ikki turi: besh bo‘lakli arslonquyruq va oddiy arslonquyruq qo‘llaniladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda arslonquyruq turlarining yer ustki qismi ishlatiladi. O‘simlik gullagan davrida poyasining yuqori qismi 30 - 40 sm uzunlikda o‘roq bilan o‘rib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Arslonquyruq turlarining yer ustki qismi tarkibida flavonoidlar (rutin, kversetin va kvinkvelozid), 0,4% alkaloidlar, efir moyi, vitamin C, karotin, qandlar, 9 % gacha oshlovchi, achchiq va boshqa moddalar bor.

Dorivor preparatlari (damlama, nastoyka va suyuq ekstrakti) tinchlantiruvchi vosita sifatida gipyertoniya, asab qo'zg'alishi va ba'zi yurak kasalliklari – yurak nevrozi hamda kardionevrozni davolash uchun qo'llaniladi.

O'rta Osiyo xalq tabobatida arslonquyruqning yana bir turi - Turkiston arslonquyruq'i ishlatiladi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyoning tog'li tumanlarida tog' etaklaridan to o'rta qismigacha bo'lgan tosh-tuproqli qiyaliklarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida – Turkiston arslonquyruq'ining yer ustki qismi ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. O'simlik gullagan vaqtida poyasining ustki qismi 30-40 sm uzunlikda o'rib olinadi va soya yerda quritiladi. Turkiston arslonquyruq'ining yer ustki qismi tarkibida 0,15 % efir moyi, smolalar, saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar, achchiq, 10,1 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.

O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida tinchlantiruvchi vosita sifatida yurak, me'da va asab kasalliklarini davolash uchun qo'llanadi.

ODDIY ARCHA

ODDIY ARCHA – MOJJEVELNIK OBIKNOVENNIY – JUNIPERUS COMMUNIS



ODDIY ARCHA

O'simlik tasviri. Oddiy archa sarvguldoshlar – Surressaceae oilasiga mansub, bo'yi 1-3 m ga yetadigan ikki uyli, doim yashil bo'ta. Bargi bandsiz, qattiq, nina shaklida bo'lib, poyasi bilan shoxlarida to'p-to'p bo'lib o'mashgan. Otalik va onalik gullari ayrim-ayrim bo'tadagi qubbalarda taraqqiy qiladi. Mevasi – yumaloq qubba meva, ikkinchi yili etiladi.

Geografik tarqalishi. Oddiy archa MDH davlatlarining Yevropa qismi va Sibirdagi ninabargli va mayda bargli aralash o'rmonlarda, ba'zan botqoqli o'rmonlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda oddiy archaning qubba mevasi ishlatiladi. Qubbalar kuzda, archa tagiga chodir yozib qoqib olinadi. Xom mevalaridan, shox va barglardan tozalangach, pishgan qubbalar havo kirib turadigan xona yoki chordoqlarda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Oddiy archa mevasi tarkibida 0,5-2 % efir moyi, 40% qandlar, organik kislotalar, smola, bo'yoq, pektin va boshqa moddalar bor. Efir moyi pinenlar, kampfen, sabinen va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Qubbaning dorivor preparatlari (damlama, siydik haydovchi yig'malar choylar tarkibida) tibbiyotda siydik haydovchi, siydik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazmini yaxshilovchi vosita

sifatida qo'llaniladi. Efir moyining spirtidagi eritmasi va surtmasi bod kasalligida tananing og'riqan yeriga surtiladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'siriga ega bo'lib, trixmonadli kolpitni davolashda ishlatiladi.


ACHIQ SEMIZAK **ACHCHIQ SEMIZAK – OCHITOK EDKIY** **– SEDUM ACRE**

Ko'p yillik o'tsimon o'simlik semiz o'tlar oilasiga kiradi va bo'yiga 5-15 sm bo'ladi. Tomiri go'shtli, yo'g'on emas. Poyasi yotuvchi yoki sal ko'tariladigan. Barglari mayda, cho'ziqroq, osilgan, go'shtli. May-avgustda gullaydi. Gullari sariq, besh gulbargli, tik turadigan gulbandda tarqalgan gulto'pga to'plangan mevasi avgust-sentabrda pishadi. O'simlik zaharli.

Yerdan yuqori qismi dorivor xomashyo bo'ladi. U gullagan paytida teriladi. Terilgandan keyin maydalab kesiladi va qaynoq suv quyiladi, keyin so'litib quyoshda 60-70°C quritiladi. Yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi.

O'tda organik kislotalar, qand moddalar, flavonoidlar, alkaloidlar, glikozidlar, mum, oshlovchi moddalar bor.

Vositalar mahalliy qichishtiruvchi bezgakka qarshi siydik haydovchi, ichakning to'liqsimon harakatini kuchaytiradi, kuchaytiruvchi ta'sirlarga ega.



ACHCHIQ SEMIZAK

Bezgakda gipotoniya, istisqoda, ichakni to'liqsimon harakatini kuchaytirish maqsadida ichiladi. Yara yiringlaganda so'g'alda, qadoqda tashdan qo'llaniladi.

ACHCHIQTORON
(SUVQALAMPIR, SUVZAMCHI, KELINTILI)
ACHCHIQTORON – GORES PERECHNIY
– POLYGONUM HYDROPIPER

O'simlik tasviri. Bir yillik, 20-70 sm balandlikdagi o't-o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, asos qismidan boshlab shoxlangan, bo'g'inli. Barglari cho'ziq yoki lansetsimon tekis qirrali, ostki qismidagilari qisqa bandi bilan yuqoridagilari bandsiz poyasida ketma-ket joylashgan mayda, ko'rimsiz gullari egilgan boshhoqsimon shingilga to'plangan. Mevasi – yong'oqcha.

May-oktyabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 2-2,5 % flavonoidlar (rutin, kversitrin, giperozid, kversetin va boshqa), poligopiperin va boshqa glikozidlar, efir moyi, organik kislotalar, K, C (200 mg 5 gacha) va E vitaminlari, karotin, 7,4 % qandlar mikroelementlar, smola, achchiq, 3,5-8,23 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.



ACHCHIQTORON

Yer ustki qismi damlamasi, suyuq ekstrakti qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida bachadondan qon oqqanda, hayz buzilganda, bavirusil kasalligida qo'llaniladi. Suyuk ekstrakti bavirusil kasalligida ishlatiladgan "anestezol" shamchalari tarkibiga kiradi.

Achchiqtoron (suvqalampir) yer ustki qismi damlamasi xalq tabobatida bezgak, ich ketishi, bavirusil kasalliklarda hamda turli qon oqishlarni (ichdan, bachadondan, yo'g'on ichakdan va boshqa) to'xtatish uchun va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Damlamasi yana turli yaralarga davo qilinadi.

QALINBARG BERGONIYA QALINBARG BERGONIYA – BADAN TOLSTOLISTNIY

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik toshsindiruvchilar oilasiga mansub, bo'yi 0,5 m. Ildizi yo'g'on, yondosh ildizlari bor, bir necha metr uzunlikkacha yotadi. Poyasi bargsiz, 6-20 sm balandlikkacha. Poyasining gullari yaqin joyi yirik, tarvaqaylagan. Uning shoxchalari qayrilib tugaydi. Barglari dumaloq, yirik, yalang'och, po'stli, to'q zangori 30 sm diametrli. Ularning pastki tomonida nuqtali bezaklari ko'rinib turadi. May-iyulda gullaydi. Gullari boy a'zoli, qo'ng'iroqli, pushtirangda.



QALINBARG BERGONIYA

Sam DTI

axborot-resurs mark

13624

Urug'lari avgustda etiladi. Dorivor ashyosi — ildizi va barglari. Barglari yoz-kuz oylarida yig'ib olinadi, oddiy usulda quritiladi. Ildizi kuzda yoki erta bahorda tayyorlanadi. Tuproqdan tozalanib, yuvib, mayda bo'laklarga bo'linadi. Quyoshda so'litilib, quritgichda quritiladi. 3 hafta davomida quritiladi. Sekin quritilganda mast qiluvchi modda o'simlik tarkibida polifenollar, askorbin va galleovay kislotalar, felobafenlar, arbutin, izofitodirlar, efir moylari, bergenin glikozidi tutadi. Asosiy biologik faol moddasi aralash guruhli mast qiluvchi moddalar va arbutin.

O'simlik preparatlari yallig'lanishga qarshi, qon to'xtatuvchi, antiseptik ta'sir qiladi, tomirlar devorini mustahkamlaydi, biroz qon bosimini pasaytiradi.

Oshqozon-ichak yo'llari yallig'lanishida, ich ketishda, dizenteriyada, ko'p hayz qoni kelayotganda, abortdan keyingi qon ketishda ichiladi. Bachadon bo'yni yaralarda, kolitda, yaralarni yuvishda, shuningdek, og'iz bo'shliqlaridagi surunkali yallig'lanishlarda chayqash uchun ishlatiladi.

DORIVOR BETONIKA **DORIVOR BETONIKA — BUKVISA** **LEKARSTVENNAYA**

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik labsimonguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 1 metrgacha bo'ladi. Novdasi tik turadi. To'rt burchakli, pastga qaragan tuklar bilan qoplangan, faqat 2 juft qarama-qarshi joylashgan bargi bor, tomir oldidagilari to'pbarg hosil qilishadi. Barglari uzunchoq, yuraksimon, qirg'oqlari arrasimon. Novdasi ishib boshqoq hosil qiladi. O'simlikning hidi kuchli, o'ziga xos, ta'mi achchiqroq va sho'rroq. Iyul-avgustda gullaydi. Gullari qizg'ish-pushti, yarim gushshaga to'plangan. Mevasi 4 ta


yong'iqdan tashkil topgan. Avgust-sentabrda pishadi.

Dori xomashyo sifatida yerdan tepa qismi ishlatiladi. Gullagan davrda issiq ob-havoda tayyorlaniladi, 10% o'simlik urug'lantirishga qoldiriladi. Qopga solinadi. Quritishdan oldin hasharotlar, sarg'aygan barglari va o'simliklar olib tashlanadi. Salqinda yoki quritgichda 40-50°C haroratda quritiladi. Poyasi quritgandan keyin sinishi kerak. Korobkada 2 yilgacha saqlash mumkin.

Betonikani tepa qismida efir moyi, alkaloidlar, betonisin, staxidrin, xolin, flavonoidlar, yelimlar, oshlovchi moddalar, achchiqlar, vitamin C va K, kalsiy tuzlari bor.

Dori vositalari quyidagi ta'sirlarga ega, bular: yallig'lanishga qarshi, o't haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, astmaga qarshi, yarani bitkazuvchi, tinchlantiruvchi, antiseptik, qon to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi, modda almashuvini tezlashtiruvchi. Qon bosimini tushiradi, qon aylanishini kuchaytiradi va hazm qilishni me'yorlashtiradi.

Jigar, o'pka, bronx xastaliklarida, traxeitda, tuberkulyozda, astmada, yo'talda, o'pkadan qon ketganda, bo'yрак shamollashida va siydik pufagi yallig'lanishida, jahldorlikda, epilepsiyada, migrenda, bosh aylanganda, bo'g'inlarda og'riq bo'lganda, revmatoid artritda, bod, gril kislotasi past bo'lgan gastritda, ich ketganda, hazm qilish buzilganda, sariqlikda, gipyertoniyada ichish yaxshi foyda beradi. Yarani yuvishda, gaymoritda surunkali shamollashda tashdan qo'llaniladi.



DORIVOR BETONIKA

BESHBARG

BESHBARG – LAPCHATKA GUSINAYA – POTENTILLA ANSERINA

Beshbarg (g'ozpanja) Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Namangan, Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi adirlarda, ariq bo'ylarida, tog' yonbag'irlaridan boshlab o'rta qismigacha bo'lgan namliklarda o'sadi.

Beshbarg ko'p yillik, bo'yi 30 – 100 sm gacha yetadigan o't-o'simlik. Poyasi ingichka, sudralib o'suvchi, tuksiz yoki siyrak tukli, bo'g'inlaridan ildizlar o'sib chiqadi. Ildizoldi barglari uzun bandli, panjasimon, 5-7 ta bargchalardan tashkil topgan. Poyadagi barglari kalta bandli, panjasimon, ko'pincha 5 ta bargchalardan iborat bo'lib, ketma-ket joylashgan. Bargchalari teskari tuxumsimon yoki cho'ziq-teskari tuxumsimon, arrasimon-tishsimon qirrali. Gullari sariq rangga bo'yalgan, yakka-yakka holda uzun bandi bilan barg qo'ltug'iga o'rtnashgan bo'ladi. Mevasi – yig'ma pista.

May-avgust oylarida gullaydi va mevasi pishadi.

O'simlikning ildizpoyasi va yer ustki qismi (poyasi, bargi va gullari) tayyorlanadi.

Ildizpoyasi bahorda yoki kuzda kovlab olinadi, so'ngra mayda ildizlari qirqib tashlanadi, tuproqdan tozalanadi va yuvib, ochiq yerda quritiladi. O'simlik gullash davrida yer ustki qismi yig'iladi va soya yerda quritiladi.

O'simlik tarkibida qandlar, organik kislotalar, vitamin C, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Abu Ali ibn Sino beshbarg ildizpoyasining qaynatmasini tish og'riganda, quymich nervi shamollaganda, o'pka va me'da kasalliklarida ishlatgan. Quritilmagan ildizpoya shirasi bilan jigar kasalligini davolagan. O'simlik bargidan esa isitmalayotgan bemorlarni davolashda foydalangan.

Xalq tabobatida ildizpoya yoki o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi (ichak va me'dadan, qon ketayotganda) dori sifatida hamda og'iz og'riganda og'iz chayishda, me'da-ichak kasalliklarida (ich ketganda) ishlatiladi.

Beshbarg o'simligidan damlama tayyorlash uchun bir stakan qaynab turgan suvga quritib maydalangan ildizpoyadan yoki o'simligidan yer ustki qismidan bir oshqoshiq solinadi va 1-2 soat qo'yib qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi. Kuniga 3-4 mahal bir oshqoshiqdan ichiladi.

BINAFSHA BINAFSHA — FIALKA — VIOLA

O'simlik tasviri. Binafsha turlari gunafshadoshlar — Violaceae oilasiga mansub, bo'yi 10-40 sm bo'ladigan bir, ikki yoki ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlanmagan yoki shoxlangan. Barglar yumaloqroq tuxumsimon yoki cho'ziq bo'lib, uzun band (poyasining yuqoridagilari qisqa bandli) yordamida poyasi va shoxlarida ketma-ket o'mashgan. Sariq rangli (uch rangli binafshaning ikkita toq bargi binafsha qolgan uchtasi sariq rangli), besh bo'lakli gullari uzun bandi bilan barg qo'ltig'iga joylashgan. Mevasi — pishganda ochiladigan ko'sakcha.



BINAFSHA

April oyidan boshlab kech kuzgacha gullaydi va mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Binafsha turlari sobiq Sho‘ro davlatlarining Yevropa qismi va G‘arbiy Sibirdagi o‘rmon chetlarida, dalalarda, o‘tloqlarda, bo‘talar orasida va begona o‘t sifatida ekinzorlarda o‘sadi.

Tibbiyotda ikki turi ishlatiladi. Dala binafshasi – Fialka polevaya – *V. arvensis* Murr. va Uch rangli binafsha (kapalakgul) – Fialka tryoxsvetvaya – *V. Irlecalor* L.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda binafsha turlarining yer ustki qismi ishlatiladi. O‘simlik gullagan vaqtida yig‘ib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Binafsha turlarining yer ustki qismi tarkibida flavonoidlar (ruti violakversetin va boshqa), antosian glikozidlari, efir moyi, vitamin C, karotinoidlar, saponinlar, shilliq boshqa moddalar bor.

Damlamasi nafas yo‘llari kasalligida balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida qo‘llanadi. Yer ustki qismi balg‘am ko‘chiruvchi va siydik haydovchi choylar – yig‘malar tarkibiga kiradi. Mahsulotni dorixonalardan olish mumkin.


ODDIY BODREZAK (CHINGIZ)

**ODDIY BODREZAK – KALINA OBIKNOVENNAYA
– GUELDER-ROSE ORDINARY**

O‘simlik tasviri. Shilvidoshlar (Uchqatdoshlar) – Capriloliaceae oilasiga mansub, bo‘yi 1,5-3 m keladigan bo‘ta. Barglari keng tuxumsimon, uch-besh bo‘lakli, yuqoridagilari ba‘zan butun plastinkali yoki bilinar-bilinmas bo‘lakli, ikkita yondosh bargchali bo‘lib, poyasi va shoxlarida bandi yordamida qarama-qarshi joylashgan. Oq rangli gullari

shar shaklidagi qalqonsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi — yumaloq shaklli, qizil rangli, bir urug'li ho'l meva. May-iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining o'rmon va o'rmoncho'l zonasi, Kavkaz, Qrim, G'arbiy Sibir va Qozog'istonning sharqidagi nam o'rmonlar chetida, ariq, ko'l bo'ylarida va botqoqliklar yonida o'sadi. Manzarali bo'ta sifatida istirohat bog'larida va bog'larda o'stiriladi.



ODDIY BODREZAK

Qo'llaniladigan qismi. Po'stlog'i va mevasi. Po'stlog'i odatda erta bahorda katta-kichik novdalaridan shilib olib oftobda quritiladi. Mevasi yetilib pishgandan keyin yig'iladi va quritilmay yoki oftobda, pechlarda quritib ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida viburnin glikozidi, 70-80 mg % vitamin C va 28-31 mr % vitamin K, 26 mg % karotin, 7 % gacha triterpen saponinlar, organik kislotalar, 4 % oshlovchi va boshqa moddalar bor. Mevasi tarkibida 32 % organik kislotalar, vitamin C, karotin, 3 % oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida 20 % gacha yog' bor.

Dorivor preparatlari (qaynatmasi) bachadondan qon ketishini to'xtatish hamda hayz ko'rganda bo'ladigan og'riqni qoldirish uchun qo'llaniladi. Mevasi vitaminli yig'malarchoylar tarkibida gipo-va avitaminoz kasalliklarini davolashda hamda ularning oldini olishda ishlatiladi.

YOVVOYI BODRING
YOVVOYI BODRING – BESHENIY OGURES
– ECBALLIUM ELATERIUM



BODRING YOVVOYI

Bu bir yillik o'simlik bo'lib, qovoqdoshlar oilasiga kiradi. Poyasi yotuvchan yoki tepaga chiquvchan, uzunligi 50-150 sm barglari yuraksimon, tuxumsimon yoki ozgina parrakli sariqroq, uzun gulbandlari bor. Mevasi – so'li, oshqovoq pishganda meva bandidan oson uziladi. Yer ustki qismi va tomiri dori xomashyosi bo'ladi. Yer ustki qismi gullagan vaqtda tayyorlanadi. Poyasi maydalangan va quyoshli kunda

soyada quritiladi. Agar poyasi ekkanda bukilmasdan sinsa, xomashyo tayyor deb hisoblanadi. Tomirlarni kuzda to'plab quritiladi. Quyoshdan berk idishda bir yil saqlash mumkin.

Xomashyoda triterpinoidlar, karotinoidlar, steroidlar, alkaloidlar, organik kislotalar, azoti bor birikmalar, vitamin C, yuqori yog' kislotalar va boshqa moddalar bor.

O'simlikni dorilari: ich keltiruvchi, siydik haydovchi, malyariyaga qarshi, antigementik, antibakterial va o'smaga qarshi xususiyatlarga ega.

Shishlarda, bezgakda, chaqaloqlarning sariqligida, jigar va bo'yрак shamollashlarida, amenoreyada, gemorroyda, bachadonning yomon sifatli o'smalarida, ich ketganda, podagrada, revmatizmida, nevralfiyada, ichakda sanchiq turganda, ichish maslahat beriladi. Teri zamburug'lar bilan

zararlanganda, absessda, burunning shilliq pardalari shomasida va gaymoritda tashdan qo'llaniladi. Davolashni faqat hakim maslahati va nazorati ostida olib boriladi.

DORIVOR BORAGO **DORIVOR BORAGO – BURACHNIK** **LEKARSTVENNIY – BORAGO OFFICINALIS**

Bu ikki yillik o'simlik oilasiga mansub bo'lib, bo'yiga 20-60 sm ga yetadi. Novdasi shoxlagan, semiz, tukli sochlar bilan qoplangan. Barglari go'shtli, dag'al junli, birin-ketin, chekkalari mayda tishli. Pastki barglar katta bandli tuxumsimon, tepadagilari esa mayda bandsiz, dumaloqroq. Iyun-iyulda gullaydi. Gullari havorang, egilgan, novdaning oxirida joylashgan va egilib, qalqonsimon gulto'p hosil qiladi. Gulto'pi popuksimon gulto'p bo'ladi. Mevasi – jigarrang, uzunchoq yong'oq.

O'ti dori xomashyo bo'ladi. Eng tagidan gullagan paytida kesiladi va sifatsiz barglari olib tashlanadi. Quyoshda mayin yoyib quritiladi.

Bargi tarkibida askorbin, olma va limon kislotalari, karotin, shilimshiq va oshlovchi moddalar, ko'p miqdorda kaliy, saponinlar bor. Gullarida shilimshiq va efir moyi topilgan.

Tinchlantiruvchi, siydik haydovchi, ich keltiruvchi, o'rovchi, moddalar almashishini me'yorlash xususiyatlariga ega.

Bo'g'inlar revmatizmida va bo'g'in va mushaklarning boshqa og'riqlarida,




DORIVOR BORAGO

podagrada, shishda, bo'yрак shamollashida, siydik chiqarish yo'llarining yallig'lanishlarida, o't va siydik-toshi xastaligida, jahldorlikda, yurak nevrozida, qo'rquvda, uyqusizlikda, ichga iste'mol qilinadi, teri kasalliklarida tashdan qo'llaniladi.

BOTQOQ BAGULNIGI **BOTQOQ BAGULNIGI – BAGULNIK** **BOLOTNIY – ZEDUM PALUSTRE**

Bu hamisha ko'mko'k bo'ta bo'lib, archaguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 30-120 sm, barglari qalin, kalta bandli, qishda to'kilmaydi, bargi cho'ziq chekkalari pastga qarab bukilgan. Barglari ustidan to'q zangori, pastidan esa qo'ng'ir zang rangli to'q va sariq nuqta bilan qoplangan. May va iyulda gullaydi. Qorday oppoq besh qismli gullagan shoxining oxirida soyabon hosil qiladi. Mevasi – egilgan korobka mayda gulli, doni bilan avgustda pishadi. Uzunligi 10 sm gacha bo'lgan bargsiz novdasi dori xomashyo bo'lib xizmat qiladi. U gullagan vaqtda to'planadi va salqin joyda yoki quritqichda 40 °C da quritilib, 2 yil muddatda saqlash mumkin. O'simlik zaharli, shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak. Xomashyoni avgust va sentabrdan uzish kerak.



BOTQOQ BAGULNIGI

Bagulnikning eng muhim tarkibiga kiruvchi bu efir moyidir. Undan tashqari, o'simlikda flavonoidlar, organik kislota, vitaminlar, oshlovchi moddalar, arbutin, glikozidlar topilgan.

O'simlikdan tayyorlangan vositalar balg'am ko'chiruvchi, yo'talga qarshi, bakterisid xususiyatlarga ega.

O'tkir surunkali bronxitda, ko'k yo'talda, o'pka shamollashlarida, bronxial astmada, siydik pufagi shamollashida, oshqozon shilliq pardalarining shamollashida ichiladi. Revmatizmدا, podagrada, namlanuvchi ekzemada, tashqaridan qo'llaniladi.

BOTQOQ GULSAPSARI

**BOTQOQ GULSAPSARI – SABELNIK BOLOTNIY
– COMARUM PALUSTRE**

Bu chiroyli yovvoyi, o'tsimon, manzaralari yarimbo'ta, ra'noguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yiga 20-100 sm bo'ladi. Poyasi uzun, shoxlangan, egilgan, bo'g'inlarda tomir otadi. Pastki barglari, toq patli, yonbosh barglari bilan tepadagilar uchtali. Barglar o'tirgan, ko'pincha tukli, pastdan ko'kimtir, tepadan zangori, bahordan yoz oxirigacha gullaydi. Gulto'pi oz gullik. Gullari mayda, tim qizil, 5ta gulbargli. Mevasi – yalang'och sanoqsiz urug'cha. Avgust-sentabrda pishadi.

O'simlikning hamma qismi – dorivor xomashyo. Uni yozning ikkinchi yarmida to'plashadi, so'litilib salqinda yoki quritqichda 40-50 °C haroratda quritishadi. Berk idishda saqlashadi. Botqoq gulsapsar tarkibida, organik kislotalar, vitamin C, karotin, saponinlar, oshlovchi moddalar, katexininlar, flavonoidlar, fenilkarbon kislotalar va ularning hosilalari, shuningdek, efir moyi bor.



**BOTQOQ
GULSAPSARI**

Uning vositalari terlatuvchi, isitmani tushiruvchi, qon to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi yallig'lanishga qarshi, arterial bosimni tushirish ta'sirlarga antibakteriallarga ega.

Ichburug'da, oshqozon og'rig'ida, moddalar almashinuvi buzilishida, bachadondan qon ketganda, ich ketganda, tanosil kasalliklarida, oqsilda, o'smalarda, silda, tuzlar cho'kkanda iste'mol qilinadi, tashdan yiringli yaralarning bitishini tezlatish maqsadida, milklarning shamollashida, podagrada, radikulitda bodda qo'llaniladi.

BOTQOQ KALUJNIKASI
BOTQOQ KALUJNIKASI – KALUJNISA
BOLOTNAYA
– CALTHA PALUSTRIS

Bu ko'p yillik ayiqtovongullilar oilasiga kiruvchi o'simlik bo'lib, bo'yi 7 sm gacha bo'ladi. Tomir tizimi ko'p tomirli, poyasi oddiy yoki shoxlagan, tomirga yaqin barglar bandli, gulga yaqini esa o'tirgan, ular katta qalin yarqiraydi, arrasimon yoki tekis qirg'oqlari plastinka. Erta bahorda gullaydi. Gullari oltin kabi sariq. Diametri 5 sm gacha, urug'i ko'p, qora va yarqiroq.



Gullari. Bargi va tomirlari xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Gullarni va barglarni gullaganda to'planadi va salqinda yoki quritqichda 50-60°C da quritiladi. tomiri kuzda olinadi va yaxshilab yuviladi, bo'laklarga bo'lib, keyin so'lilib quritqichda quritiladi. qopda yoki yog'ochli idishda 1-2 yil saqlasa bo'ladi.

BOTQOQ KALUJNIKASI

O'simlik zaharli, tepa qismida saponinlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, vitmain C, B, gullarida esa alaloidlar va karatinoidlar bor. Tomirida triterpinlar, glikozidlar, alkaloidlar topilgan, urug'ida alkaloidlar, vitamin C va yog'li moylar bor.

Kalujnikning dorivor vositalari yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, tutqanoqqa qarshi, mikroblarga qarshi, yo'talga, oz muncha o'simtalarga qarshi va siydik haydovchi xususiyatlarga ega.

Revmatizmida, shamollashlarda, mahalliy qitiqlovchi va diqqatni boshqa narsaga o'tkazuvchi vosita sifatida, ko'ygan joylarni, yaralarni, lat yeganda, so'gallarni yo'qotishda va boshqa teri kasalliklarida tashdan qo'llab ishlatiladi. Siydik chiqarish yo'llari kasalliklarida, moddalar almashuvi buzilishida, kamqonlikda, ko'kyo'talda, bronxitda, bronxial astmada, dori vositasi aniq dozalarda ichish kerak. Tashdan qo'llanganda ham hushyor bo'lish kerak, chunki teri yiringlashi mumkin.

BOTQOQLIK SUSHENIKASI **BOTQOQLIK SUSHENIKASI – SUSHENISA** **TOPYANAYA – GNAPHALIUM ULIGINOSUM**

Bu bir yillik o'tsimon o'simlik murakkabguldoshlar oilasiga kiradi, uning bo'yi 5-20 sm bo'ladi, poyasi to'p-to'p junli kulrang namatsimon qoplangan. Barglari mayda 2-5 sm uzuniga, uchli, birin-ketin, tuk bilan qoplangan o'rtasida yo'li bor. Gullari juda mayda, och sariq. Iyun-avgustda gullaydi. Mevasi – zangoriroq kulrang pupakchali urug'cha. Iyul-sentabrda pishadi.


O'simlikning hamma qismi dorivor xomashyo hisoblanadi, tomiri bilan sug'urib olib, yaxshilab silkitib,

tuproq'ini va bargiga o'tirgan changlar chiqariladi. Salqinda yoki quritqichda 30-40°C haroratda quritiladi. Quritilgandan keyin xomashyodagi qolgan changlar va chandiqlar yaxshi chiqib ketishi uchun uni elakdan o'tkaziladi. Qopda yoki yog'ochli idishda berkholda 3 yil saqlanadi.

Uning o'tini tarkibida efirmoyi, oshlovchi moddalar, yelimlar, flavonoidlar, alkaloidlar, ftosterinlar, karotin, vitamin C, A, Blar bor.

O'simlik vositalari arterial bosimni tushiradi, ichaklarning ishlashini kuchaytiradi, qonning ivishini to'xtatadi, asab tizimini tinchlantiradi, yara bitkazuvchi, kuyganga qarshi, qandni tushiruvchi xususiyatlarga ega.

Xafaqonlikning boshlanishida, oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralarida, asab qo'zg'alishi bilan kuzatilganda, uyqusizlikda, qo'rquvlarda iste'mol qilinadi. Xalq tabobatida o'simlikdan qorinda og'riq bo'lganda, yurak qattiq urganda, silda, diabetda ishlatiladi. Tashdan uni yiringli yaralari, kuyganlarni, bachadon bo'yni eroziyasini davolashda qo'llaniladi.



*BOTQOQLIK
SUSHENIKASI*

BRUSNIKA. ODDIY BRUSNIKA
BRUSNIKA – BRUSNIKA OBIKNOVENNAYA
– VACCINIUM VITIS – IDAEA

O‘simlik tasviri. Brusnika brusnikadoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 25 sm gacha yetadigan doim yashil bo‘ta. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan bo‘ladi. Barglari qalin, teskari tuxumsimon yoki ellipssimon, cheti bir pastga qayrilgan bo‘lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Och pushtirangli, to‘rt bo‘lakli (tishli), qo‘ng‘iroqsimon gullari shingil to‘pguliga joylashgan. Mevasi – sharsimon, qizil rangli yaltiroq, ko‘p urug‘li, sershira ho‘l (rezavor) meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. O‘rmon va tundra zonalarida hamda Kavkaz tog‘larida, Farg‘ona vodiysi tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda brusnikaning bargi va bargli novdalari ishlatiladi. Bargi va barg novdalari erta bahorda va o‘simlikning gullash davriga qadar yoki kech kuzgacha yig‘iladi va soya, havo kirib turadigan joyda yoki quritgich xonalarda quritiladi. Kech kuzda yig‘ilsa, barglari quritish davrida qorayib ketadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Brusnika bargi tarkibida 6-9 % gacha arbutin glikozidi, flavonoidi (giperozid va boshqalar), ursol, gallat, elag, vino, xin kislotalari, 2-9 % gacha oshlovchi va boshqa moddalar bor.



BRUSNIKA

Bargining damlamasi va qaynatmasi bo'yракka tosh kelganda, siydik yo'llari va qovuq (sistit va boshqa kasalliklarda dezinfeksiya qiluvchi, siydik haydovchi vosita sifatida hamda bod va podagra kasalliklarida qo'llanadi.

BUG'DOYIQ
BUG'DOYIQ – PIREY POLZUCHIY
– AGROPYRUM REPENS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, boshloqlar oilasiga kiradi. Va bo'yiga 10 sm gacha bo'ladi, ildizpoyasi uzun, sudraluvchan, judayam ko'p qo'shimcha ildizlar bilan. Poyasi tik turadi. Barglari birin-ketin yalpoq, parallel tomirli va qinli. Iyun-iyul gullaydi. Gullari ko'rimsiz murakab boshqoq hosil qiladi. Mevasi – donli. Avgust-sentabr pishadi.

Ildizpoyasi dorivor xomashyo bo'ladi. Uni kuzda va erta bahorda to'plashadi. Uqalab olingandan keyin tuproqdan tozalanib, yuvilib, quyoshda sulitib, salqinda yoki quritgichda 60-70 °C haroratda quritiladi. Qopda yoki yog'och idishda 2 yil saqlanadi.

Ildizpoya tarkibida yog'li va efir moyi, oqsilli va shilimshiq moddalar, uglevodlar, agropiren, olma kislotasi tuzlari, karatin va askorbin kislotalar bor.

Bug'doyiqni yallig'lanishda balg'am ko'chiruvchi, terlatuvchi, siydik haydovchi, ich keltiruvchi, terini tetiklashtirish xususiyatlarga ega.

Xalq tabobatida bug'doyiq vositasi o't va siydik-tosh xastaligida



BUG'DOYIQ

oshqozon-ichak yo'llari shamollashida, podagra, revmatizmida, nafas yo'llari shamollashida, chipqonda ichga iste'mol qilinadi. Har xil teri kasaliklarida obzan qilinadi. Bivosilda, yo'g'on ichakning surunkali shamollashida, siydik pufagi va siydik yo'llari shamollashida xuqna qilinadi.

BO'ZNOCH, QUMLOQ BO'ZNOCHI
BO'ZNOCH – BESSMERTNIK
PESCHANIY – HELICHRYSUM ARENARIUM

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Coshpositae) oilasiga mansub, bo'yi 30 sm gacha o'sadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, bir nechta, shoxlanmagan bo'ladi. Ildizoldi barglari qisqa bandli, poyadagilari bandsiz ketma-ket joylashgan. Barglari cho'ziq teskari tuxumsimon (poyasining yuqori qismidagilari nashtarsimon-chiziqsimon), tekis qirrali. Sariq gullari sharsimon savatchaga to'planib, qalqonsimon ruvak gulto'plamini hosil qiladi. Mevasi – pista. O'simlikning poyasi va barglari sertuk, shuning uchun kulrang ko'rinadi.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi – avgust-sentabrda etiladi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismida, Kavkaz, G'arbiy Sibir, Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyoning ayrim tumanlaridagi qumli nam yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Guli.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Guli

BO'ZNOCH



tarkibida flavonoidlar, kumarinlar, efir moyi, inozit, vitamin K, bo'yoq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Flavonoidlar summasi varingenin, apigenin, kempferol va ularning glikozidlari, salipurpozid va boshqalardan tarkib topgan.

Gulining dorivor preparatlari (qaynatma, tabletkalar) holidagi quruq konsentratlari – flamin quruq ekstrakti va o't haydovchi yig'ma – choy tarkibida) jigar (sariq) kasalligi, xronik xolestistit va boshqalar, o't-tosh, o't yo'llari kasalliklarida o't haydov vositasi sifatida qo'llanadi.

Gulining flavonoidlar summasi – arinaridan tayyorlangan surtma ko'z kasalliklari (ko'z) shikastlanishi, ko'z shohpardasi yarasi, kuyish va boshqa kasalliklar) davolashda ishlatiladi.

Bo'znoch gulining damlamasi yoki qaynatmasi xalq tabobatida jigar kasalliklarida, bo'yрак, siydik va o't yo'llari tosh yig'ilganda hamda istisqoda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ba'zan ushbu damlama yumshoq surgi sifatida ham ishlatiladi.

ODDIY BO'YMODARON **ODDIY BO'YMODARON – TISYACHELISTNIK** **OBIKNOVENNIY – ACHILLEA MILLEFOLIUM**

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Coshpositae) oilasiga mansub, bo'yi 20-50 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan, barglari nishtarsimon, ikki marta nishtarsimon yoki chiziqsimon bo'laklarga patsimon ajralgan bo'lib, ildizoldi va poyasining pastki qismidagilari bandli, qolganlari bandsiz, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rtnashgan. Mayda, tuxumsimon savatchaga to'plangan oqish, ba'zan och pushtirangli gullari poyasi bilan shoxlari

uchiga joylashgan qalqonsimon gulto'plamini hosil qiladi. Mevasi — yassi, tuxumsimon, kulrang pista.

Iyun oyidan boshlab to yozning oxirigacha gullaydi, mevasi avgustdan boshlab yetiladi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyoning hamma hududlaridagi quruq o'tloqlarda, qirlar, tog' etaklari, tog'dagi o'tloqlar, bo'talar orasida, soylarda, ariq bo'ylari, yo'l yoqalari, o'rmon chetlari, bog'lar va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi, ba'zan gullari. O'simlik gullay boshlaganda uni yuqori qismidan 15 sm uzunlikda (yoki faqat gulto'plamlari) qirqib olinadi va soya yerda yoki 50°C haroratdagi quritgichlarda quritiladi.

Oddiy bo'ymodaronni yig'ish vaqtida *ODDIY BO'YMODARON* o'simlikni ildizi bilan sug'urib olmaslik kerak. Aks holda, bu o'simlik tabiatda yo'qolib ketishi mumkin.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bo'ymodaronning yer ustki qismi va gullari tarkibida 0,06-0,8 % efir moyi, 9-13 mg % karotin, 74,8 mg % vitamin C va K, flavonoidlar (apigenin, lyuteolin va ularning glikozidlari), alkaloidlar (axillein va betokisin), xolin, asparagin, smolalar, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi 1-4% gacha xamazulen, 8-10 % sineol, borneol, 13 % gacha bornilasetat, tuyon kislotalar va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Dorivor preparatlari (damlamasi, suyuq ekstrakti) me'da-ichak kasalliklarini davolash, ishtaha ochish hamda ichakdan, bachadondan, burundan, milkdan, yaralardan va gemorroidal



qon oqishlarni to'xtatish uchun qo'llaniladi. Oddiy bo'ymodaronning guli va yer ustki qismi ishtaha ochishda va me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan yig'malar-choylar tarkibiga kiradi.

Oddiy bo'ymodaron qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelinadi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon tupurganda, qon aralash ich ketganda va boshqa kasalliklarda qon to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, damlamasini yana ishtaha ochish, o'pka sili, shamollash, astma, isitma, dizenteriya, ichak infeksiyasi va boshqa me'da-ichak kasalliklarini, bosh og'rig'ini davolash hamda siydik haydash uchun ishlatiladi. O'simlik gulining kukunini asalga qorib gijjalarni tushirish maqsadida bersa ham bo'ladi.

Damlamasi bilan yaralarni yuvish tuzukkina naf beradi.

Xalq orasida bo'ymodaronning yana uch turi tabobatda qo'llaniladi: Bibershtayn bo'ymodaroni-Tisyachelistnik Bibershtayna — A. bibersteintt S. Afan, Santolinli bo'ymodaron (boshog'riq o'ti) — Tisyachelistnik santolinniy — A. santolina L., Tobulgibarg bo'ymodaron — tisyachelistnik tavolgolistniy A. fitipendulina Lam.

O'simlik tasviri. Bo'ymodaronning bu uch turi bo'yi 15-75 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyalari bir nechta, tik o'sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Barglari tekis yoki tishsimon qirrali, nishtarsimon bo'laklarga patsimon ajralgan bo'lib, bandi yordamida (ildizoldi to'pbarglari va poyasining pastki qismi dorilari) yoki bandsiz (poyasining yuqori qismidagilari) poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Savatchalarda to'plangan mayda, sariq rangli gullari poyasi bilan shoxlari uchida joylashgan qalqonsimon gulto'plamni hosil qiladi. Mevasi — pista.

May oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyun-sentabr oylarida yetiladi.

Geografik tarqalishi. Bo'ymodaron turlari O'rta Osiyo respublikalaridagi Kavkaz va, qisman, Ukraina va Belorussiyaning janubiy hududlari. (Bibershteyn bo'ymodaroni) cho'llarda, yarimcho'llarda, tog' etaklaridan to tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan tosh-tuproqli tog' yonbag'irlarida, shag'alli va qumli yerlarda, daryolarning shag'alli joylarida, soylarda, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, sho'r yerlarda, begona o't sifatida ekinzorlarda va bog' yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. O'simlik gullash davrida poyasining yuqori qismi (gullari va barglari bilan) hamda ildizoldi barglari o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bo'ymodaron turlari garchi efir moyi saqlovchi o'simliklarga kirsa-da, lekin kimyoviy tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Bibershteyn bo'ymodaronining yer ustki qismi tarkibida 0,13-0,52 % efir moyi, alkaloidlar, 0,36 % flavonoidlar (giperozid, lyuteolin, apigenin), 1,37% organik kislotalar, 74,8 mg % vitamin C va K, 2,50 % gacha qandlar, smola, achchiq, 1,41-0,62 % oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismining efir moyi 63 % gacha sineoldan, 40 % gacha p-simol, 10 % a terpineol, kamfara va boshqa terpenlardan tashkil topgan.

Santolinli bo'ymodaron yer ustki qismi o'z tarkibida 0,11 % efir moyi, achchiq santolin va santolinoid hamda boshqa moddalar saqlaydi. Efir moyi 56 % gacha kamfara, 20 % gacha sineol, 15 % linyon va boshqa terpenoidlardan tarkib topgan.

Tobulgibarg bo'ymodaron yer ustki qismi tarkibida 0,07 % (gulida 1,2 %) efir moyi, oz miqdorda alkaloidlar, 0,21 9% (gulida 0,7%) flavonoidlar (giperozid, lyuteolin, sinarozid),

kumarinlar, 2,50 % gacha qandlar, 6,5 % gacha oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi 30 % atrofida borneol murakkab efiri, 8 % kampfen, 5 % pinen, 35 % spirt va boshqa birikmalardan tarkib topgan.

Bo'ymodaronning bu uch turi qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelinadi. Yer ustki qismidan (ayniqsa, gulidan) tayyorlangan qaynatmasi bilan Abu Ali ibn Sino qaytishi qiyin bo'lgan shishlarni, eti uzilgan yerlarni va radikulit kasalliklarini davolagan. Nafas olish qiyinlashganda qaynatmasini yoki damlamasini ichishga buyurgan. Qaynatmasini yana bo'yрак va qovuq toshlarini tushirish uchun, siydik haydash, ayollarda to'xtab qolgan hayzni keltirish uchun qo'llagan.

Bo'ymodaron turlarining yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasi xalq orasida me'da kasalliklariga, o'pka sili va bosh og'rig'iga davo qilinadi hamda turli qon oqishlarda qon to'xtatuvchi va isitmani tushiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Gullarining kukuni bilan kuyganni va ochiq qon oqib turgan yaralarni davolash mumkin. Buning uchun tananing kuygan yeriga va yaralarga kukundan sepiladi. Astma kasalligida bo'ymodaron turlari gulidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasiga novvot qo'shib ichiriladi.

BO'RIGUL

BO'RIGUL – BARVINOK MALIY – VINCA MINOR

O'simlik tasviri. Kendirdoshlar – Arosunaseae oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik.

Tibbiyotda bo'rigulning O'rta Osiyoda o'sadigan ikki turidan foydalaniladi. Ular zaharli. Shulardan biri – Kichik bo'rigul – Barvinok maliy – V. minor L. doim yashil o'simlik.

Poyasi yotib o'sadi, uzunligi 60 sm gacha yetadi, shoxlangan, gul hosil qiluvchi novdalari tik o'sadi. Barglari qalin, yaltiroq, ellipssimon, o'tkir uchli bo'lib, kalta bandi yordamida poyasida qapama-qarshi joylashgan. Yirik, to'q-ko'k rangli gullari uzun bandi bilan barg qo'ltig'iga yakka-yakka joylashgan bo'ladi. Mevasi – 2 ta bargchadan tashkil topgan.



BO'RIGUL

Geografik tarqalishi. Turkmanistonning ayrim joylarida (Ashxobod va Mari viloyatlarida), sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining janubiy, Zakavkazening shimoli-g'arbiy tumanlaridagi o'rmonlarda, bo'talar orasida va tog' qiyaliklarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida 0,6 % alkaloidlar (20 dan ortiq) va boshqa moddalar bor. Asosiy alkaloidlari vinkamin (devinkan), minorin, vinkaminorin izovinkamin va boshqalar hisoblanadi.

Tik o'suvchi bo'rigul – Barvinok pryamoy – v. erecta Rgj. et Schmalh.

O'simlik tasviri. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan, bo'yi 30-40 sm. Barglari ellipssimon, ba'zan tuxumsimon, poyasida bandsiz qarama-qarshi joylashgan; yirik, pushti rangli (gulbargining ichki tomoni oq rangli bo'ladi) gullari alohida-alohida barg qo'ltig'iga o'rnashgan. Mevasi 2 ta bargchadan iborat.

Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi may-iyunda pishadi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo tog'larining Ugam, Pskom, Chotqol, Farg'ona, Oloy, Hisor, Vaxsh, Harvoz tog' tizmalari etagidan o'rta qismigacha bo'lgan yonbag'irlarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi, ildizpoyasi va ildizi.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida 2-3 % alkaloidlar, steroid saponin, ursol kislota va boshqa moddalar bor. Asosiy alkaloidlariga vinkanin, vinkanidin, vinervin, rezerpinen va boshqalar kiradi.

Bo'rigul turlarining ishlatilishi. Dorivor preparatlari (tabletkada holdagi devinkan, vinkapan, vinkaton) qon bosimini pasaytiruvchi vosita sifatida gipertoniya kasalligida hamda miya qon-tomirlari spazmini davolashda qo'llaniladi.

Bo'rigul turlaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida bosh og'riganda og'riq qoldiruvchi hamda bosh aylanishni, ich ketishini, shuningdek, qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Tish og'riganda qaynatma bilan og'iz chayiladi, yer ustki qismidan tayyorlangan poroshogi (kukuni) yaralarga sepiladi. Lekin bo'rigul turlari zaharli o'simlik ekanligini esda tutish lozim!

KO'K BO'TAKO'Z **KO'K BO'TAKO'Z – VASILEK SINIY** **– CENTAUREA CYANUS**

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) oilasiga mansub, bo'yi 4-80 sm ga yetadigan bir yillik ko'p o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan. Poyasining pastki qismidagi barglari bandli, patsimon bo'lib, o'simlik gullaganda qurib qoladi, yuqori qismidagi barglari chiziqsimon yoki ingichka nishtarsimon, tekis qirrali, bandsiz poyasida ketma-ket joylashgan. Ko'k rangli guillari savatchaga to'plangan. Mevasi – qizg'ish rangli, uchmali pista. Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi avgustda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, kamroq O'rta Osiyo va Uzoq Sharqdagi o'tloqlarda, bog'larda, bug'doyzorlarda, ekinlar orasida va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llanidadigan qismi. Guli va gulbargi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ko'k butako'z tarkibida sinarin, sentaurin va sikornin glikozidlari, antosianlar, kumarinlar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Gulining damlamasi yurak va bo'yрак faoliyati buzilishi natijasida tanaga kelgan shishni (istisqo kasalligini) davolashda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gullari siydik haydovchi choy-yig'malar tarkibiga kiradi.

Ko'k butako'z gulining damlamasi xalq tabobatida shamollash, yo'tal, ko'kyo'tal, qorin va qovuq og'riqlari, ich ketishi, asab kasalliklarida qo'llaniladi. Damlamasi yana siydik haydovchi, terlatuvchi, bachadondan qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ba'zan ko'z kasalliklarida ham qo'llaniladi.



KO'K BO'TAKO'Z

DORIVOR VALERIANA (KADIUT)
DORIVOR VALERIANA – VALERIANA
LEKARSTVENNAYA – VALERIANA OFFICINALIS

O‘simlik tasviri. Dorivor valeriana valerianadoshlar – Valerianaceae oilasiga mansub, bo‘yi 2 m gacha yetadigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Ildizpoyasidan birinchi yili ildizoldi to‘pbarglari, ikkinchi yildan boshlab poyasi o‘sib chiqadi. Poyasi tik o‘sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Barglari oddiy, 4-11 juft bo‘lakchalardan iborat toq patli ajralgan bo‘lib, poyada bandlari (ildizoldi barglari uzun bandli, poyasidagilariniki yuqoriga ko‘tarilgan sari bandi qisqarib boradi) yordamida qarama-qarshi o‘rnashgan. Barg bo‘lakchalari chiziqsimon nishtarsimon yoki tuxumsimon, yirik tishsimon qirrali. Oq yoki pushtirangli, xushbo‘y, mayda, besh bo‘lakli gullari yirik ruvak to‘pguliga joylashgan. Mevasi – cho‘ziq tuxumsimon, och qo‘ng‘ir rangli pista. May-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyun-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Valeriana O‘rta Osiyodagi cho‘llar va Sibirning shimoliy qismidan tashqari hamma hududlaridagi nam yerlarda, o‘rmon yoqalarida, ariq bo‘ylarida, bo‘talar orasida va o‘tloqlarda o‘sadi. Andijon, Farg‘ona, Namangan, Toshkent, O‘sh, Jalolobod, Voronej, Moskva, Novosibirsk va Kirov viloyatlarida, Krasnoyarsk o‘lkasida, Moldaviya va Belorussiyada o‘stiriladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyot valeriananing ildizpoyasi, ildizi hamda yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismi o‘simlik gullagan davrida o‘rib olinadi va soya yerda quritiladi yoki quritmay qo‘llaniladi. Ildizpoyasi bilan ildizimevalari pishib to‘kilgandan so‘ng kovlab olinadi, suvda yuvib, tuproqdan tozalanadi, suvini qochirish uchun biroz ochiq yerda qoldiriladi va salqin hamda havo tegib turadigan joyda

yoki harorati 35°C li quritgichlarda sekin quritiladi yoki quritilmay ishlatiladi.


Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Valeriana ildizpoyasi bilan ildizi tarkibida 0,5-1 % efir moyi, 0,5-2 % valepotriatlar (valtrat, izovaltrat, valeridin, valexdorin va boshqalar), alkaloidlar, izovalerian, sirka, olma va boshqa organik kislotalar, saponinlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Valeriananing dorivor preparatlari (ildizpoyasi bilan ildizi poroshogi, tabletkasi, damlamasi, qaynatmasi, nastoykasi, suyuq, quyuq ekstrakti tabletkada hoida asab tizimini tinchlantiruvchi (uyqusizlikda, asabiylanishda) vosita sifatida hamda yurak faoliyatini tartibga solish uchun qo'llaniladi. Nastoykasi kamfora-valerianali tomchilar va boshqa kompleks preparatlar tarkibiga, ildizpoyasi va ildizi tiichlantiruvchi va boshqa choylar — yig'malar, izovalerian kislotasining mentol bilan hosil qilgan efiri validol tarkibiga kiradi. Validol tinchlantiruvchi vosita sifatida ko'krak qisishi (stenokardiya)ni davolashda qo'llaniladi.



DORIVOR VALERIANA

ODDIY VERESK
ODDIY VERESK – VERESK OBIKNOVENNIY
– CALLUNA VULGARIS



ODDIY VERESK

Bu doimo ko'k bo'lib turuvchi, ko'p ignali bo'ta veresklar oilasiga kiradi va bo'yi 40-80 sm bo'ladi. Barglari mayda to'g'rima-to'g'ri butun. Iyundan boshlab kech kuzgacha gullaydi, gullari juda ko'p. Gullari mayda pushti, ayrim hollarda oq, kalta gulbandi, bir tomonli popuk hosil qiladi. Mevasi – po'stli ko'sak, urug'i mayda avgustda pishadi.

Barglari va guli shifobaxsh xomashyo hisoblanadi. Ular gullagan paytida, guli bilan shoxning tepa qismi olinadi. Xomashyoni salqinda tez-tez ag'darib quritish kerak. Kartonli yoki shishali idishda 1 yil saqlanadi.

O'simlikda: organik kislotalar, alkaloidlar, fenollar va uning hosilalari, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, fenilkarbonoidli kislotalar, kumarinlar, katexinli triterpenoidlar, saponinlar valeykoantisianidlar, mineral tuzlar, kamed, yelimlar bor.

Veresk vositalari tinchlantiruvchi, uxlatuvchi, siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, qon to'xtatuvchi, shamollashga qarshi, antimikrob, o'rab oluvchi, yara bitishini yaxshilaydigan va kislotalilikni pasaytiradigan vosita sifatida ishlatiladi.

Siydik pufagi shamollashida, siydik yo'llari yiringli jarayonlarida, yuqori tana haroratida, diabetda,

aterosklerozda, ko'chayotgan balg'amli, *quruq balg'amli* qiyin ko'chayotgan yo'talda, bo'yрак jomi yallig'lanishida, jigar, o't yo'llari va taloq xastaliklarida, kislotalilik ko'tarilgan gastritda, kolitda, enterokolitda, radikulitda, asabiylashganda, uyqusizlikda va, ayniqsa, siydik-tosh kasalligida vereskdan tayyorlangan vositani ichish qo'llaniladi, ekzema stomatitlarda, anginada, allergik ko'rinishlarda, yaralarni, kuygan joylarni yuvishda, tashdan qo'llaniladi, radikulitda, revmatizmida, podagra, suyaklar singanda va lat yeganda obzan ko'rinishida qo'llaniladi.

DORIVOR VERONIKA
DORIVOR VERONIKA – VERONIKA
LEKARSTVENNAYA – VERONICA OFFICINALIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik norichniklar oilasiga kiradi. Barg yozilib, palak otadi, shoxli, uzunligi 5 sm gacha. Barglari qarama-qarshi joylashgan uzunchoq, aralash, yumshoq tivitli, kalta bandi bilan. Iyun va avgustda gullaydi. Gullari barg qo'ynidan chiqadi va popuk hosil qiladi. Ularda 4 alohida gulkosa, to'rt tishli, havorang yoki siyohrang, ayrim hollarda oq gultoj va birgina changchisi bor. O'simlikning tepa qismi barglari bilan shifobaxsh xomashyo. Gullashni boshlaganda pichoq bilan tagidan kesib olinadi. Gullari to'kilmasligi va tabiiy rangi yo'qolmasligi uchun tezda va avaylab quritiladi.

Xomashyoda oshlovchi moddalar, achchiq, glikozidlar, efir moyi, vitaminlar, saponinlar,



DORIVOR VERONIKA

karotin, organik kislotalar, taninlar, yog‘li moylar bo‘ladi.

Veronika vositasi qon to‘xtatuvchi, tinchlantiruvchi, antiseptik, qichishishga qarshi, fungisid, yara bitkazuvchi, shamollashga qarshi, siydik haydovchi, bronxial yo‘talga qarshi, ishtahani ochish xususiyatlariga ega.

Oshqozon-ichak yo‘llari xastaliklarida, oshqozon atoniyasida, ichakdagi xurujli og‘riqlarda, bronxitda, o‘pka tuberkulyezida, quruq yo‘talda, bronxial astmada, podagrada, o‘t va bo‘yrak-tosh kasalligida, bosh og‘rig‘ida, asabiylashganda, uyqusizlikda, klimaks davrida, bo‘yrak xastaliklarida, ichga iste‘mol qilgan holda qo‘llaniladi, yiringlagan yaralarni, teri zamburug‘lar bilan shikastlanganda, quyoshdan kuyganda, diabetdagi furunkul va jinsiy a‘zolar va ginekologik xastaliklarda qo‘llaniladi.

DORIVOR GALEGA **DORIVOR GALEGA – GALEGA LEKARSTVENNAYA** **– GAKEGA OFFICINALIS**

Bu ko‘p yillik o‘tli o‘simlik dukkakililar oilasiga kiradi, bo‘yiga 1 m. gacha bo‘ladi. Novdasi kuchli, yog‘ochsimon kovakli, murakkab tog‘ barglari bilan ular pastdan barg yonini ushlab turadi. Iyundan boshlab sentabrgacha gullaydi. Gullari noto‘g‘ri shaklda, kapalakgulli, bir bosh tupgul hosil qiladi va uzun bar qo‘ynidan chiqqan gul bandi joylashgan. Gulning barglari siyohrang ko‘k, qanoti va qayiqchasi oq. Mevasi ko‘p urug‘li tik turadigan dukkak zangori sariqroq urug‘i bilan.

Yerdan tepa qismi shifobaxsh xomashyo. Gullagan paytda 2 sm. gacha kesib olinadi. Salqinda quritiladi. Agar quritilgandan keyin xomashyo egilmasdan sinsa, u tayyor

deb hisoblanadi. Berk idishda 1 yil saqlanadi.

Tepa qismida uglevodlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, vitaminlar, saponinlar, fenilkarbonlar, kislotalar va uning hosilalari va azoti bor moddalar, yog'li moylar, yuqori yog' kislotalar bor.

O'simlik vositasi siydik haydash, antibakterial, gijjalarga qarshi ta'sir qiladi, shakar miqdorini pasaytirish xususiyatiga ega, yana sut bezlarida ko'proq sut ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Diabetning yengil shakllarida, xafaqon kasalligida, shishda, emizayotgan ona sutini ko'paytirish uchun ishlatiladi.



DORIVORA GALEGA

G'OZPANJA, TIK O'SUVCHI G'OZPANJA
G'OZPANJA – LAPCHATKA
PRYAMOSTOYACHAYA – POTENTILLA ERECTA

Bo'yi 15-50 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, kavkaz va Sibirdagi ignabargli va aralash o'rmonlarda, nam o'tloqlarda, daryo yoqalarida va chakalakzor to'qayzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda tik o'suvchi g'ozpanjaning ildizpoyasi ishlatiladi. U kuzda kovlab olinadi,

suv bilan yuvib, tuproqdan tozalanadi va ochiq havoda — quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizpoyasi tarkida 14-31 % oshlovchi moddalar, triterpen saponinlar, kraxmal va boshqa birikmalar bor.

Dori preparatlari (qaynatma va me'da-ichak salliklarida qo'llaniladigan yig'malarchoylar tarkibida og'iz bo'shlig'i yallig'lanishi (stomatit va gingivit), me'da-ichak kasalliklari (enteritlar, enterokolitlar) va ichketar kasalliklari)ni, kuygan yerlarni, ekzema, boshqa teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi.



G'OZPANJA

YONG'OQ, GREK YONG'OG'I
GREK YONG'OG'I — OREX GRESKIY
— JUGLANS REGIA

O'simlik tasviri. Yong'oq-yong'oqdoshlar — Juglandaceae oilasiga mansub, bo'yi 20, ba'zan 35 m gacha yetadigan sershox daraxt. Barglari 3-5 bo'lakli, toq patli murakkab bo'lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida ketma-ket o'rnashgan. Bo'lakchalari qalin, o'ziga xos hidli, qisqa bandle,

tuxumsimon, tuxumsimon-nishtarsimon yoki chiziq tuxumsimon va o'tkir uchli. Mayda, ko'rimsiz, bir jinsli gullari kuchala to'pgulga (otalik gullari) yoki bir yillik shoxlariga yakka, 2-3 tadan, ba'zan 5 tadan joylashgan. Mevasi – soxta, danakli (yong'oqli) meva. Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi sentabrda pishadi.



Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda yong'oqning bargi va mevasi ishlatiladi. Bargi yozning dastlabki kunlarida (iyun oyida) yig'iladi va soya yerda quritiladi. Mevasi xomligida (vitamin konsentrati tayyorlash uchun) yoki to'liq pishib yetilganda (yog' olish uchun) qoqib olinadi, quritmay yoki quyoshda quritib ishlatiladi. Ba'zan yong'oqning po'stlog'i ham ishlatiladi. Uni erta bahorda shoxlaridan shilib olinadi va quyoshda quritiladi.

GREK YONG'OQ'I

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yong'oq po'stlog'i tarkibida oshlovchi, bo'yovchi moddalar, bargi tarkibida gidrogluklar va ularning glikozidlari, flavonoidlar (kversetin va kempferol glikozidlari), 4-5 % vitamin C, P va B₁, karotin, efir moyi, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bundan tashqari, uning yosh mevasi po'stida 3 % gacha vitamin C, gidrogluklar, 25 % gacha oshlovchi moddalar, urug'i (mag'zi)da 66,9-82,8 % yog', karotin, C, E, P va B guruhidagi vitaminlar, temir, kobalt tuzlari va boshqalar bor.

Bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida me'da-ichak yallig'lanishi, ich ketishi, diabet va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Shu damlama bilan teri sili va boshqa teri kasalliklari, bolalarning raxit kasalliklari hamda turli yaralar davolanadi, angina va gingivitda og'iz chayiladi. Barg

shirasi temiratki va boshqa teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Qorin og'riganda va ko'ngil ayniganda yong'oq mag'zini iste'mol qilish buyuriladi.

Bargidan olingan yuglon preparati surtma, eritma va suspenziyalar) ilmiy tibbiyotda teri sili, ekzema, surunkali epideriofitiya, temiratki, terining yuqumli, yiringli va boshqa kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

Yong'oqning ham mevasi po'stidan vitamin C konsentrati tayyorlanib, singa va boshqa avitaminoz kasalliklarini davolash hamda ularning oldini olishda ishlatiladi.

GULXAYRI – ALTHAEA OFFICINALIS
GULXAYRI – ALTEY LEKARSTVENNIY
– ALTHAEA MEDICINAL


O'simlik tasviri. Gulxayridoshlar – Malvaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan, bo'yi 1,5 m gacha yetadi. Barglari uch yoki besh bo'lakli (poyasining yuqori qismidagilari butun, tuxumsimon bo'lib, bandi yordamida poyasida ketma-ket joylashgan, pushti yoki oq rangli gullari barg qo'ltig'ida, poya va shoxlari uchida to'p-to'p bo'lib joylashadi. Mevasi – yassi, yumaloq, ko'p urug'li tup pista. Iyun-sentabr oylarida gullaydi, mevasi iyuldan boshlab yetiladi. Tibbiyotda gulxayrining ikki turidan foydalaniladi: Dorivor gulxayri - Altyon lekarstvenniy va Arian gulxayrisi – Altyon ariyanskiy.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, G'arbiy Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi to'qayzorlarda, ariq, ko'l, daryo bo'ylarida va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Ildizi va ildizpoyasi, ba'zi hollarda barglari bilan gullari ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizi tarkibida 35 % shilliq moddalar, 37 % kraxmal, 10,2% saxaroza, mikroelementlar, pektin va boshqa moddalar bor.

Ildiz preparatlari (kukuni, damlamasi, quruq ekstrakti, sharbati) va mukaltin balg'am ko'chiruvchi, ko'krakni yumshatuvchi, o'rab oluvchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida nafas yo'llari hamda me'da-ichak (gastrit, enterokolit va boshqa) kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Maydalangan ildizi nafas yo'llari shamollaganda ishlatiladigan yig'malar-choylar tarkibiga kiradi. Ildizidan tayyorlangan sharbati farmasevtika amaliyotida suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun, kukuni hapdori tayyorlashda qo'llaniladi.



GULXAYRI

Gulxayri turlari xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinadigan o'simliklar sirasiga kiradi. Ibn Sino ularning ildizi, bargi va urug'idan tayyorlangan damlama bilan zotiljam, qon tupurish, yo'tal, bo'yрак kasalliklarini davolagan hamda balg'am ko'chiruvchi va shishlarni qaytaruvchi vosita sifatida qo'llagan.


O'rta Osiyo xalqlari gulxayri turlari ildizidan tayyorlangan damlamani ko'krak og'riganda, nafas qisishi, o'pka shamollashi, yo'tal, ko'kyo'tal va nafas yo'llarining boshqa kasalliklarida ko'krakni yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatadilar. Ildizining damlamasi yana me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligida, dizenteriyada, bolalarning ichi ketganda, bo'yрак

(siyish qiyinlashganda) va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Tomoq yallig'langanda, tomoq og'rig'ida ushbu damlama bilan tomoq chayiladi.

Gulxayri ildizi, guli va bargidan tayyorlangan malhamni quruq yaralar, yiringli yaralar va chipqon chiqqan joyga bog'lab qo'yilsa, yaxshi naf beradi.

DALA QIRQBO'G'IMI DALA QIRQBO'G'IMI – XVOSHCH POLEVOY – EQUISETUM ARVENSE

O'simlik tasviri. Qirqbo'g'imdoshtar – Equisetaceae oilasiga mansub, bo'yi 15-60 sm keladigan sporali ko'p yillik o't-o'simlik. Ishlatishiga ko'ra o'simlik poyasi ikki xil – bahorgi va yozgi bo'ladi.



DALA QIRQBO'G'IMI

Bahorgi poyasi jigarrang yoki qizg'ish tusli, yumshoq, bo'yi 15-20 sm, uchida sporalar hosil qiluvchi boshqoqcha bo'ladi. Sporalar yetilib va sochilib ketgandan so'ng bahorgi poyasi qurib qoladi. Keyin yozgi poyalari o'sib chiqadi. Bu poyalari qattiq, bo'g'imli, 6-18 qirrali bo'lib, bo'g'imlaridan to'p-to'p shoxchalar o'sib chiqadi. Barglari yaxshi taraqqiy etmagan, tangachasimon, poya bo'g'inlarida o'rnashgan. Sporalari aprel-may oylarida yetiladi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining cho'l va yarimcho'l hududlaridan tashqari hamma yerdagi

ariq bo'ylarida, qumli o'tloqlarda, bo'talar orasida, o'rmonlarda va ekinzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. Yoz oylarining o'rtalarida dala qirqbo'g'imining yozgi, spora hosil qilmaydigan poyalari o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 5 % gacha saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar (apigenin, lyuteolin, kversetin, kempferol va ularning glikozidlari, ekvizetrin, naringenin), 190 mg % gacha vitamin C, karotin, oksalat, 25 % gacha silikat (suvda eriydigan turida) va boshqa kislotalar, oshlovchi, achchiq moddalar bor.

Damlamasi (yoki qaynatmasi) va suyuq ekstrakti qon aylanishi yetishmovchiligida, istisqo, siydik pufagi (qovuq) yallig'lanishida va siydik yo'llarining boshqa kasalliklarida siydik haydovchi, me'dadan, ichakdan, bachadondan va bavoil kasalligida qon oqishlarni to'xtatuvchi vosita sifatida hamda o'pka sili kasalligining ba'zi turlarini davolash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig'masi va siydik haydovchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Qirqbo'g'im qadimdan xalq orasida turli kasalliklarga davo sifatida ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino uning quritilmagan yer ustki qismidan olingan shirasi bilan yaralarni davolagan. Quritilgan va maydalangan yerusti qismiga sharob qo'shib tayyorlangan damlamasini jigar shishida, qon aralash ich ketish va istiqo kasalliklarini davolashda qo'llagan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida o'pka sili, bo'yрак kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Undan bo'yрак va siydik yo'llaridagi toshlarni tushirishda, siydik haydashda, turli qon oqishlarda (qon tupurganda, qon aralash ich ketganda, burun, milk va yaralardan qon oqqanda) foydalaniladi. Damlamasi bilan yana yaralar, chipqon va ba'zi teri kasalliklari davolanadi.

DALA ONONISI
DALA ONONISI – STALNIK POLEVOY
– ONONIS ARVENSIS



DALA ONONISI

O‘simlik tasviri. Dala ononisi dukkakdoshlar – Fabaceae oilasiga mansub, bo‘yi 30-50 (80) sm gacha o‘sadigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi bir nechta, tik o‘sadi, shoxlangan, asos qismi yog‘ochlangan. Poyasining pastki va o‘rta qismidagi barglari uch plastinkali murakkab, yuqoridagilari oddiy bo‘lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Bargchalari tuxumsimon-ellipssimon, o‘tkir uchli, o‘tkir tishsimon qirrali. Pushti rangli, besh bo‘lakli (kapalakguldoshlarga mansub) gullari barg qo‘ltig‘iga ikkitadan joylashib, poyasi va yon shoxlari yonida boshhoqsimon to‘pgulni hosil qiladi. Mevasi – 2-4 urug‘li, ellipssimon yoki tuxumsimon, sertuk dukkak. Iyul-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho‘ro davlatlari Yevropa qismining o‘rmon-cho‘l va cho‘l zonalarida, Kavkaz, Sibirning janubida va Qozog‘istondagi o‘tloqlarda, bo‘talar orasida hamda ariq bo‘ylarida o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda dala ononisining ildizi ishlatiladi. Kuzda o‘simlikning yer ostki organlari kovlab olinadi, suv bilan yuvib tuproq va loydan tozalanadi, uzun, yirik ildizlari bo‘laklarga bo‘linadi va ochiq joyda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ononis ildizi tarkibida flavonoidlar (trifolirizin va onon), izoflavon glikozidlar

(okonin va okospin), saponinlar, efir moyi, smola, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Dorivor preparatlari (qaynatma, nastoyka) bavirus kasalligini davolash uchun hamda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

DASTORBOSH – ODDIY DASTORBOSH
DASTORBOSH – PIJMA OBIKNOVENNAYA
– TANACETUM VULGARE

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 50-150 sm bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, sershox bo'ladi. Barglari patsimon ajralgan, ustki tomoni to'q yashil, orqa tanasi kulrang-yashil bo'lib, bandi yordamida (poyasining pastki qismidagilari) yoki bandsiz (poyasining o'rta va yuqori qismidagilari) poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Barg bo'lakchalari cho'ziq, nishtarsimon, patsimon qirqilgan yoki tishsimon qirrali. Savatchaga to'plangan sariq rangli gullari qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Mevasi – cho'ziq pista. Iyul-sentabr oylarida gullaydi, avgust-oktyabrda mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Uzoq Shimol va cho'l zonalaridan tashqari hamma yerda – yo'l yoqalarida, aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, o'tloqlarda,



DASTORBOSH

oʻrmon chetlarida va suv boʻylarida oʻsadi. Oʻrta Osiyoda — oddiy dastorbosh turi Qirgʻiziston, Tojikiston va Qozogʻiston Respublikalarida uchraydi.

Qoʻllaniladigan qismi. Guli (gultoʻplami). Gullari oʻsimlik gullagan vaqtida gultoʻplamini qisqa bandi bilan (2 sm dan uzun boʻlmasligi kerak) qirqib olinadi va salqin yerda yoki harorati 40°C boʻlgan quritgichlarda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Gullari tarkibida 1,5-2 % efir moyi, flavonoidlar (kversetin, lyuteolin, apigenin, diosmetin), alkaloidlar, achchiq tanasetin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Gullarining efir moyi 47 % gacha tuyol spirtidan va boshqa birikmalardan tashkil topgan.

Gullarining damlamasi va poroshogi gijjalarni (askarida va ostrisalarni) tushirishda va jigar kasalliklarida oʻt haydovchi vosita sifatida hamda baʼzi ichak kasalliklarini davolash uchun qoʻllaniladi. Dastorbosh guli oʻt haydovchi (jigar, oʻt pufagi va oʻt yoʻllari kasalliklarida ishlatiladigan) choylar-yigʻmalar hamda Zdrenko yigʻmasi tarkibiga kiradi. Gullaridan olingan tanasexol preparati jigar va oʻt pufagi kasalliklarida oʻt haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Dastorbosh gullari qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarini davolash uchun ishlatib kelingan. Gullaridan tayyorlangan damlama gijjalarni tushirish, isitma, baʼzi meʼda-ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun, yel va oʻt haydovchi vosita sifatida hamda yaralarni davolashda qoʻllaniladi.

DASTORGUL

DASTORGUL – MARGARITKA OBIKNOVENNAYA
– BELLIS PERENNIS


Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik murakkabgullilar oilasiga kiradi va bo'yiga 10 sm bo'ladi. Barglari parraksimon, kalta bandli, bargsiz gulband atrofida to'pbarg hosil qiladi. Aprel-mayda gullaydi. Chekkadagi barglar yolg'on tilsimon, ayol jinsli oq yoki pushti. O'rtadagilar – naysimon ikki jinsli, sariq mevasi – sariq urug'cha, cheklari yalpaygan. Iyun-avgustda pishadi.

O'simlikni yerdan tepa qismi dorivor bo'ladi, gullagan paytda o'ti to'planadi, salqinda tez-tez yoki quritgichda 20-25°C haroratda quritiladi. Yaxshi berkitilgan shisha idishda 1 yil saqlanadi.

O't tarkibida efir moyi, saponinlar, organik kislotalar, inulin, achchiq moddalar, oz miqdorda mineral tuzlar va vitamin C bor.

Dastorgul vositalari balg'am ko'chirish, yallig'lanishga qarshi, siydik haydovchi, o't haydovchi va qon to'xtatuvchi xususiyatlarga ega.

Nafas yo'llari shamollashida, balg'am qiyin ko'chayotganda, bronxial astmada, o'pka silida, siydik va o't pufagi shilliq pardalarini, jigarning o't-chiqarish yo'llari yallig'lanishida, ichki qon ketishlarda, poliartrit, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasida, ingichka va yo'g'on ichak




DASTORGUL

shamollashida iste'mol qilinadi. Bivosilda damlamasi ichiladi va mahalliy tampon qo'yiladi. Lat yeganda, ko'karganda, yangi va uzoq bitmayotgan yaralarda, damlamasi malham va kompress shaklida qo'llaniladi. U yana emizayotgan ona ko'kragi yallig'langanda va ko'krak bezi shamollaganda, husnbuzar toshmalarda qo'llaniladi. Bolalar terisi yiringli xastaliklarida obzan shaklida qo'llaniladi.

QIZIL DO'LANA

QIZIL DO'LANA – BOYARISHNIK KROVAVO-KRASNIY – CRATAEGUS SANGUINEA

Bu bo'ta yoki atirguldoshlar oilasiga kiradi, bo'yi 5 m ga yetadi. Novdasi jigarrang, yaltiroq qattiq ignalari bor. Barglari birin-ketin, bandli, teskari, tuxumsimon, uchli, ikki tomondan kalta tushirilgan. May-iyunda gullaydi, gullari mayda oq, 5 yaproqli, ular qalin qalqonsimon gulto'p hosil qilishadi. O'ziga xos hidi bo'ladi. Mevasi olmaga o'xshaydi. Diametri 1 sm, qizil, shirin lekin nordon, unga o'xshagan yumshoq, avgustning oxirida pishadi.



QIZIL DO'LANA

Dori-xomashyo sifatida guli, bargi va mevasi qo'llaniladi. Do'lana 3-4 kunda gullab bo'ladi. Gullari gullashni boshlaganda yig'iladi. Yomg'irdan va shamoldan keyin ularni termaslik kerak, chunki quritganda qorayib ketadi. Terilganda 1-2 soat salqin joyda quritiladi. Xomashyoni berk idishda bir yil saqlash mumkin. Mevalari to'liq pishganda teriladi,

quyoshda yoki pechkada quritiladi, keyin xashaklardan tozalanadi. Shisha idishda yoki qopda 2 yil saqlanadi.

Do'landa mevasida quyidagilar bor. Shakar, organik va triterpen kislotalar, kofein va xloroganli kislotalar, giperozid, kvarsetin, efir moyi, asetixolin, xolin, trimetilen topilgan.


Do'landa dori vositalari sifatida yurak va bosh miya tomirlarini kengaytiradi, yurakda va bosh miyaga kislorodning kelishini kuchaytiradi, modda almashuvini yaxshilaydi, yurak ritmini, uyquni, umumiy holatni me'yoriga keltiradi, yurak sohasidagi yomon hislarni yo'qotadi, qonda xolesterin miqdorini tushiradi.

Ularni xafaqon kasalligi boshlanishida, hansirashda, uyqusizlikda, klimaks davridagi nevrozlarda, stenokardiyada, aterosklerozda, miya tomirlari torayganda, yurak ritmi buzilganda, qalqonsimon bez faoliyati kuchayib ketganda ichiladi.

YEVROPA TUYOQCHASI
YEVROPA TUYOQCHASI – KOPITEN
EVROPEYSKIY
– ASARUM EUROPÆUM

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik qirqazovlar oilasiga kiradi. Poyasi sudraluvchan. Barglari keng bo'yraksimon, chekkalari tekis, tepasidan tim zangori, yaltiragan, pastidan jilovsiz, ochroq, ko'pincha qishi bilan saqlanadi. Gullari tashqaridan qo'ng'iroq, ichidan to'q qizil, teparoqda ikkita gulbandi bilan. Mevasi – ko'sakcha. O'simlikning o'ziga xos hidi bor.

Tepa qismi va tomiri dorivor hisoblanadi. Barglari gullagan paytida aprel oxiridan iyungacha, ildizi kuzda yoki erta bahorda to'planadi. Salqin joyda yupqa qilib yoyib, tez-



YEVROPA TUYOQCHASI

qarshi, qon to'xtatuvchi, bronxlarni kengaytiruvchi, sklerotik jarayonlarga qarshi xususiyatlarga ega.

Istisqoni, shamollashlarni, o'pka shamollashini, o'tkir va surunkali bronxiti larni, epilepsiyani, asabilashish holatlarini, bosh og'rig'ini, oshqozon-ichak yo'llari xastaliklarida, o'tkir va surunkali gastritni, jigarning shamollashi bilan bog'liq xastaliklarni, yana o't-chiqarish yo'llarini va ichakning shamollash kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Ildizi alkolizmni davolashda ishlatiladi.

JAG'-JAG' (OCHAMBIT), ODDIY JAG'-JAG'
JAG'-JAG' – PASTUSHYA SUMKA
– CAPSELLA BURSA-PASTORIS

O'simlik tasviri. Karamdoshlar (krestguldoshlar) – Brassicaceae (Cruciferae) oilasiga mansub, bo'yi 20-30 ba'zan 60 sm gacha yetadigan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta, bir nechta, tik o'sadi, shoxlangan yoki shoxlanmagan.

Ildizoldi barglari bandli, cho'ziq nishtarsimon, kemtik tishsimon qirrali yoki patsimon kesik, ba'zan tekis qirrali bo'ladi. Poyasidagi barglari kichikroq, tekis qirrali bo'lib, bandsiz ketma-ket o'rnashgan. Mayda, oqish rangli, to'rt bo'lakli gullari shingil to'pguliga joylashgan bo'ladi. Mevasi – teskari uchburchak yoki teskari uchburchak-yuraksimon cho'zoqcha.

April oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan yetiladi.

Geografik tarqalishi. Juda keng tarqalgan o'simlik. Uzoq shimol va cho'l zonalaridan tashqari, barcha o'tloqlarda, yo'l yoqalarida, aholi yashaydigan yerlarda va begona o't ko'rinishida ekinzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. O'simlikning yer ustki qismi. O'simlik gullashi va mevasi etilishi davrida uni ildizi bilan sug'urib olinadi va ildizini qirqib tashlab, salqin joyda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Jag'-jag'ning yer ustki qismi tarkibida gissopin glikozidi, burso kislota, 0,12 % vitamin C va K, flavonoidlar, organik (olma, limon, vino va boshqa) kislotalar, xolin, asetilxolin, inozit, saponinlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Dori preparatlari (damlama, suyuq ekstrakti) tug'ruqdan keyingi va bachadondan qon oqishlarni to'xtatish uchun qo'llaniladi.

Jag'-jag' – qadimdan xalq tabobatida doimo ishlatib kelingan dorivor o'simlik. Undan tayyorlangan damlama asosan turli qon oqishlarni (bachadondan, o'pkadan, me'dadan, ichakdan, bo'yrakdan va yaralardan) to'xtatish



JAG'-JAG'

uchun hamda ich ketishi (ayniqsa qon aralash ich ketishi), bo'yarak va siydik yo'llari (qon aralash siyish va boshqalar), jigar kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Damlamasi yana isitma hamda bachadon rakini davolashda ishlatiladi. Undan ko'k somsa, ko'k chuchvara tayyorlanadi.

DORIVOR JERUXA

DORIVOR JERUXA – JERUXA LEKARSTVENNAYA – NASTURTIUM OFFICINALIS

Bu o'simlik karamsimonlar oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik dorivor va ovqatlik o'simlikdir. Shoxchalari ko'tarilgan holda ichi teshik yo'l-yo'l, barglari juft holatda joylashadi. Shoxdagi yuqori barglar biroz ovalsimon. Maydan boshlab sentabr oylarigacha gullaydi. Gullari oq, to'rtta gultojibarglardan iborat bo'lib, shoxining yuqori qismlarida joylashadi. Mevasi danaklari biroz shishib turadi.

Dorivor xomashyosi ko'kati hisoblanadi. O'sayotgan maysani 40-45 kundan keyin o'rib, 40-45 sm yetganda, xomashyo sifatida ishlatishga tayyorlanadi. Xomashyoni bog'lab, savatchalarga solib, keyin quritiladi.

Go'sht va baliqdan tayyorlangan taomlar bilan iste'mol qilish uchun buning yangi ko'katlari mayonez yoki o'simlik yog'i bilan aralashtirib ishlatiladi.

Bu ishtaha qo'zg'ovchi achchiq, o'tkir ta'm beradi. O'simlik vitamin va mikroelementlarga boy, tarkibida qand yo'q. Vitamin C va karotin moddalari piyozga nisbatan ko'p. Maysasida efir moylari, yod, kalsiy, magniy, temir, rux, mis, marganes, fosfor, kaliy, natriy, vitamin E, B₁, A va D provitaminlari topilgan. Bu o'simlikda vitaminlar va mikroelementlar to'g'ri taqsimlangan.

Jeruxa preparatlari siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, yallig'lanishga qarshi, qabziyatga qarshi, tonus ko'taruvchi, modda almashinuvini regulyatsiya qilish xususiyatiga ega.

Avitaminoz, kamqonlikda revmatizmدا podagra o't va siydik pufagi kasalliklari, jigar yuqori nafas yo'llari, qalqonsimon bez, qandli diabetda, o't va siydik tosh kasalliklarida ichiladi. Teri toshmalarida, teri qichishishida, kuyganda tashqaridan teriga surtiladi. Ozganda, ateroskleroz profilaktikasida, anemiyada, jigar kasalliklarida, bo'yрак va siydik toshlari kasalliklarida bo'yрак va oshqozon-ichak tizimi yallig'lanishida yangi tayyorlangan sharbat ichiladi. Kuyganda, so'gallarga, qarshi, lipomalarida tashqaridan maz sifatida qo'llaniladi.



DORIVOR JERUXA

ZIG'IR

**ZIG'IR – LEN POSEVNOY – LINUM
USITATISSIMUM**

O'simlik tasviri. Zig'irdoshlar – Linaceae oilasiga mansub bir yillik o't-o'simlik. Poyalari kam shoxlangan bo'ladi. Ular ikki xil: bo'yi 60-120 (Len dolgunes – baland bo'yli zig'ir) yoki 30-50 sm (Len kudryash – pakana zig'ir) bo'ladi. Barglari nishtarsimon yoki toq nishtarsimon bo'lib, bandsiz



ZIG'IR

poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Zangori rangli, besh bo'lakli gullari poya va shoxlarining uchida yakka-yakka joylashgan. Mevasi — sharsimon, 10 ta urug'li ko'sak.

Aprel-may oylarida gullaydi, Iyun-avgustda mevasi pishadi.

Geografik tarqalishi. Zig'ir sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi va O'rta Osiyoda ko'p miqdorda (Pakana zig'ir — *Linum numile* Mill.) o'stiriladi. Ba'zan yovvoyi holda uchraydi.

Qo'llaniladigan qismi. Urug'i va undan olinadigan moyi. Mevasi yetilganda o'simlik kombaynlarda yoki qo'l bilan yig'ib olinadi, xirmonda quritiladi, yanchiladi va sovurib urug'i ajratib olinadi. Urug'idan zavodlarda moy olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Urug'i tarkibida 5-12% shilliq modda, 30-48 % yog', 18-33% oqsil va boshqa birikmalar bor.

Urug'ining dori preparatlari (15-20% li qaynatmasi) me'da-ichak shilliq qavatlarida yallig'lanishida o'rab oluvchi va yengil surgidori sifatida, nafas yo'llari yallig'langanda tomoq va og'iz chayqash uchun qo'llaniladi. Urug'ining kunjarasi — poroshogi tananing og'riydigan joylariga qizdirib qo'yiladi. Zig'ir yog'idan yengil surgi sifatida va kuygan joylarni davolashda hamda farmasevtika amaliyotida suyuq surtma dorilar — linimentlar va tibbiyotda sovun tayyorlashda foydalaniladi, zig'ir yog'idan olingan linetol preparati ateroskleroz kasalligini davolash va uning oldini olishda hamda turli kuyishlarda kuygan joylarga surtish

uchun ishlatiladi. Linetol “Livian”, “Lifuzol” (Vinizol) va “Levovinizol” kompleks preparatlari tarkibiga kiradi.

Qovurilgan zig‘ir urug‘ini Abu Ali ibn Sino ich ketishi va boshqa me‘da kasalliklariga, yo‘talga davo qilgan, ezilgan urug‘ni shishga va chipqonga qo‘ygan. Bachadon va yo‘g‘on ichakda shish bo‘lganida hamda bo‘yrak va qovuq kasalliklariga zig‘ir urug‘i qaynatmasiga tushib o‘tirishni tavsiya etgan.


Zig‘ir urug‘idan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida gastrit, me‘da yarasi va uning boshqa kasalliklarini, yo‘tal, angina, bo‘yrak kasalliklarini davolashda qo‘llanilib kelinadi. Shu qaynatmaga sut qo‘shib o‘pka sili bilan kasallangan bemorga beriladi. Maydalab ezilgan yoki pishirib ezilgan zig‘ir urug‘i chipqon va shishlarga qo‘yib bog‘lanadi.

Zig‘ir moyidan oziq-ovqat sanoatida va texnikada keng foydalaniladi.

ODDIY ZIG‘IRAK

ODDIY ZIG‘IRAK – LNYANKA OBIKNOVENNAYA – LINARIA VULGARIS

Bu ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik zig‘irdoshlar oilasiga kiradi. Poyasi tik turadi, tor nashtarsimon, chekkasi ichga qayrilgan. Gullari jigarrangroq sariq, o‘ziga xos shaklda, halqumi berk, uchida qalin popuksimon to‘pgul hosil bo‘ladi. Mevasi ko‘p urug‘li ko‘sakcha, urug‘i avgust-oktyabrda pishadi. O‘ti dorivor



ODDIY ZIG‘IRAK

xomashyo bo‘ladi. Uni issiq havoda gullaganda tepasidan 10-15 sm qilib kesib olinadi, salqinda yoki quritgichda quritiladi. O‘tning hidi bo‘lib, quritilganda yana ham kuchayadi. Mazasi achchiq va sho‘rroq.

Xomashyoda limon, chumoli olma va sariq kislotasi, peganin alkaloidi, glikozidlar, saponinlar, fitosterinlar, karotin, vitamin C, pektinli oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Zig‘irak vositasi siydik haydovchi, yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, ich keltiruvchi, o‘t haydovchi va terlatuvchi ta’sirlarga ega. Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi.

Ichakni atoniyasida, ich qotganda, qorin dam bo‘lganda, bivosilda, sariqlikda, bosh og‘rig‘ida, qayt qilganda, allergiyada ichish tavsiya etiladi. Bivosilda, ekzemada, terining zamburug‘li kasalliklarida, lishayda, kon’yunktivitda, ninalogichda, anginada, soch o‘shini tezlatish uchun obzan, g‘arg‘ara qilish, yuvish qo‘llaniladi.

ZIRK

ZIRK – BARBARIS OBIKNOVENNIY
– BERBERIS VULGARIS

O‘simlik tasviri. Zirk turlari zirkdoshlar – Berberidaceae oilasiga mansub, bo‘yi 4 m gacha etadigan tikanli bo‘ta. Tikanlari oddiy yoki uch bo‘lakli bo‘ladi. Barglari teskari tuxumsimon, cho‘zinchoq yoki ellipssimon, qalin, tekis yoki tishsimon qirrali bo‘lib, poyasi va shoxlarida bandi bilan ketma-ket joylashgan. Sariq rangli gullari oddiy, shoxlangan yoki ruvaksimon shingilga to‘plangan. Mevasi – cho‘ziq, cho‘ziq ellipssimon yoki teskari tuxumsimon, qora, binafsha yoki to‘q-qizil rangli, nordon, ko‘p urug‘li, sershira meva.

Geografik tarqalishi. Zirk turlari O'rta Osiyo tog'larining O'rta va pastki qismida toshli tog' qiyaliklarida, ariqlar yoqasida va archazorlarda o'sadi. Oddiy zirk o'stiriladi. O'rta Osiyoda o'sadigan zirk turlaridan 8 tasi xalq tabobatida qo'llaniladi. Asosan uch turi ko'proq ishlatiladi.

1. Qora zirk — *Barbaris prodolgovatij* — *Berberis oblonga* Schneid.

2. Qizil zirk — *Barbaris selnokrayniy* — *Berberis integerrima* Bunge.

3. Oddiy zirk — *Barbaris obiknovenniy* — *Berberis vulgaris* L.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida zirk turlarining ildizi, bargi va mevasi ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ular tarkibida 0,04-0,9 % alkaloidlar, vitamin C, karotin, qandlar, organik kislotalar, bo'yoq va boshqa moddalar bor. Alkaloidlar summasidan berberin, yatrogizin, palmatin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan.

Alkaloidlar summasi va berberin xlorid qon ivishini oshiradi, qon bosimini pasaytiradi va o't haydash ta'siriga ega. Shuning uchun tibbiyotda berberin sulfat surunkali gepatit, gepatoxolestisit, xolesistit va boshqa jigar kasalliklarida hamda o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

Zirk ildizi damlamasi xalq orasida yurak-tomir va me'da kasalliklarini, nevrasteniyani, bod va isitmani davolashda qo'llanadi. Bargi va shoxlari qaynatmasi bilan bosh og'rig'i, burundan qon oqishi davolanadi. Meva damlamasidan yurak



ishini yaxshilovchi, isitmani va qon bosimini pasaytiruvchi, chanqoq qoldiruvchi vosita sifatida hamda nevrasteniya va ich ketishni davolashda foydalaniladi.

KATTA ZUBTURUM (BARGIZUB)
KATTA ZUBTURUM – PODOROJNIK BOLSHOY
– PLANTAGO MAJOR

O‘simlik tasviri. Zubtuumdoshlar – Plantaginaceae oilasiga mansub, kalta va yo‘g‘on ildizpoyali, poyasiz ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Yer ustki qismining ildizoldi barglari va 10-50 sm balandlikdagi gul o‘qi tashkil qiladi. Barglari uzun, qanotli, bandli, keng tuxumsimon yoki keng ellipssimon, tekis qirrali, 3-9 ta yoysimon asosiy tomirli bo‘ladi. Guli bitta yoki bir nechta bo‘ladi. Mayda, ko‘rimsiz, to‘rt bo‘lakli gullari gul o‘qi uchidagi boshhoqsimon to‘pgulga joylashgan bo‘ladi. Mevasi – tuxumsimon, ko‘p urug‘li ko‘sakcha. Iyun-sentabr oylarida gullaydi va mevasi yig‘iladi.

Geografik tarqalishi. Hamma hududlardagi yo‘l yoqalarida, ariq, daryo bo‘ylarida, botqoqliklarda, dalalarda, ekinzorlarda, o‘tloqlarda, o‘rmon chetlarida va boshqa yerlarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Bargi bilan yer ustki qismi. Barglari yil bo‘yi kalta bandli qilib qirqib olinadi va tezlikda soya yerda quritiladi. Yer ustki qismi o‘simlik gullagan vaqtda yig‘iladi va quritilmasdan undan shira olish uchun farmasevtika zavodlariga yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bargi bilan yer ustki qismi tarkibida 0,1 % efir moyi, shilliq moddalar, saponinlar, aukubin glikozidi, vitamin C (300 mg % gacha) va K, 4,5-32,91 mg % karotin, flavonoidlar (lyuteolin, skutellyarein, apigenin, baykalalien va ularning glikozidlari), T-omil, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, urug‘ida 22 % gacha

yogʻ, saponinlar, 44 % gacha shilliq va boshqa moddalar bor.


Katta zubtutumning dorivor preparatlaridan (damlamasi, yangi yigʻib olingan bargi yoki yer ustki qismining konservatsiya qilingan shirasi, shirasidan tayyorlangan plantaglitsid preparati) meʼdai-ichak kasalliklari (gastrit, enterit, enterokolit), yoʻgʻon ichakning yalligʻlanishi, meʼda va oʻn ikki barmoq ichakning yara kasalligini davolashda foydalaniladi. Bundan tashqari, meʼda shirasining kislotaliligi kamayib ketgan hollarda ham ishlatiladi.

Bargi yoki yer ustki qismi shirasi bilan tuzalishi qiyin boʻlgan kolit va yaralar davolanadi.

Zubtutum bargi yoʻtalga qarshi ishlatiladigan yigʻmalar - choylar tarkibiga kiradi.

Zubtutum — qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda koʻp ishlatilib kelingan oʻsimlik. Uning bargi bilan Abu Ali ibn Sino oʻz vaqtida qiyin bitadigan yaralarni, shishlarni (xavfli shishlarni ham), koʻz yalligʻlanishi, jigar, boʻyrak va boshqa kasalliklarni davolagan hamda qon oqishini toʻxtatish uchun ishlatgan. Jigar va boʻyrak kasalliklarida hamda qon tupurishda bemorga zubtutum urugʻining qaynatmasini ichirgan, quritilmagan barg yoki urugʻ shirasidan ichak yarasida xuqna qilgan.

Bargidan tayyorlangan damlamasi yoki quritilmagan barg shirasi xalq tabobatida nafas yoʻllari, koʻz, teri, bezgak, soʻzak, yoʻgʻon ichak yalligʻlanishi va turli yuqumli



KATTA ZUBTURUM

kasalliklarni hamda yaralarni, kuydirgini davolashda, shuningdek, turli qon oqishlarni to'xtatishda qo'llaniladi. Zubtutum bargi yana o'pka va me'da raki kasalligini davolash uchun hamda nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Yaralar, chipqon va kesilgan yrlarni davolash uchun yangi uzib olingan bargi ezib bog'lanadi.

Zubtutum urug'idan tayyorlangan qaynatmasi yoki shakarga aralashtirib qovurilgan urug'i bilan qon aralash ich ketish (ayniqsa bolalardagi qon aralash ich ketishda) hamda yo'tal, isitma, qon tupurish va boshqa kasalliklar davolanadi.

Zubtutumning yangi yig'ilgan bargini ezib teng miqdorda shakar aralashtiriladi va issiq joyda uch hafta saqlanadi. So'ng shu aralashmadan ajralib chiqqan shiradan kuniga 3-4 choy qoshiqda o'pka va me'da raki kasalligini davolash uchun bemorga ichiriladi.

IGIR, ODDIY IGIR

IGIR – AIR BOLOTNIY – ACORUS CALAMUS

O'simlik tasviri. Kuchaladoshlar – Araceae oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik. Ildizpoyasi sudralib o'sadi, ko'p shoxli, serildiz. Ildizpoyasining yuqorisidan barg to'plamlari o'sib chiqqan bo'ladi. Barglari chiziqsimon yoki qilichsimon, 60-120 sm keladi. Poyasi (gul o'qi) yashil, tik o'sadi, shoxlanmagan va bargsiz, uch qirrali. Gullari so'taga to'plangan, so'tasi silindrsimon bo'lib, uzunligi 4-12 sm keladi. Mevasi cho'zinchoq bo'lib, ko'p urug'li, qizil ho'l meva bo'ladi. Ildizpoyasi bilan barglari xushbo'y, mayda ildizlarining hidi bo'lmaydi. May-iyul oylarida gullaydi.

Geografik tarqalishi. Igir sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining janubida, Qozog'iston, Sibir, Yoqutiston, Uzoq Sharq, qisman, Kavkaz va O'rta Osiyodagi daryo, ko'l, hovuz

bo'ylarida va ko'lmaklarda, botqoqlik yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Poyasi, barglari, mayda ildizlari va ildizpoyasi ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 5 % gacha efir moyi, akorin achchiq glikozidi, 25 % gacha kraxmal, smola, alkaloid, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi kampfen, lisein, kamfara, borneol, kalamen, seskviterpenli spirtlar va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Dorivor preparatlari (poroshok va damlamasi) xushbo'y achchiq vosita sifatida ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash uchun, ba'zan bo'yрак, jigar va o't pufagi kasalliklarida siydik va o't haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Igir ildizpoyasi achchiq, nastoyka va me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan choylar — yig'malar, ildizpoya poroshogi esa me'da, o'n ikki barmoq ichak yarasi va boshqa kasalliklarda qo'llaniladigan "Vikalin" va "Vikair" preparatlari tarkibiga kiradi.


Igir ildizpoyasi qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelingan dorivor vositadir. Uni Abu Ali ibn Sino me'da-ichak va ko'krak og'rig'ida, jigar va qorataloq kasalliklarini davolash uchun hamda siydik haydovchi dori sifatida qo'llagan.

Ildizpoyasidan tayyorlangan damlama, qaynatma yoki aroqda tayyorlangan nastoykasi hozirgi vaqtda ishtaha ochuvchi, yel haydovchi, isitma tushiruvchi, yo'tal va ko'krak og'rig'i kasalliklarida og'riq qoldiruvchi hamda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatilmoqda.



IGIR

ILONSIMON TORON
ILONSIMON TORON – GORES ZMEINIY
– POLYGONUM BISTORTA



ILONSIMON TORON

Ildizpoya qaynatmasi me'da-ichak kasalliklari (kolit), enterokolit va ichak yallig'lanishini davolash hamda og'iz shilliq pardasi yallig'langanda (stomatit va gingivitda) og'izni chayish uchun qo'llanadi. Ildizpoyasining quritilgani me'da kasalliklarida ishlatiladigan choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

O'simlik tasviri. Ko'p yillik, ilonsimon buralgan ildizpoyali, 30-100 sm balandlikdagi o't-o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, bitta, ba'zan bir nechta, bo'g'imli, shoxlanmagan bo'ladi. Ildizoldi barglari uzun qanotli bandli, keng lansetsimon, tekis qirrali, poyadagilari kichikroq, cho'ziq lansetsimon bo'lib, poyada bandsiz ketma-ket joylashgan. Mayda, pushtirangli gullari silindrsimon boshqqa to'plangan bo'ladi. Mevasi – uch qirrali, yaltiroq yong'oqcha.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyun-iyulda yetiladi.

Qo'llaniladigan qismi.
Ildizpoyasi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.
Tarkibida 25 % gacha oshlovchi moddalar, gallat kislota, antratsen hosilalari va boshqa birikmalar bor.

ISLAND YO'SINI


ISLAND YO'SINI – SETRARIYA ISLANDSKAYA – CETRARIA ISLANDICA

Bu lishaynik parmeinlar oilasiga kiradi, zangoriroq qo'ng'ir jigarrang yoki kulrang qatlamli bo'ladi. Uning parrakka o'xshash barglarining chekkalari o'yiqlik va og'zi tepaga bukilgan bo'ladi. Pastdan qatlam och jigarrang oq dog'lar bor. Tuproqqa ular kalta ingichka rizoid bilan bog'langan. Kuchli rivojlangan lappaklar ichkarisida meva tanasi rivojlanadi, unda sporalar bo'ladi. Sporalar va vegetativ yo'l bilan ko'payadi.

Qatlamlar dorivor xomashyo bo'ladi. Yozda to'planadi va yerdan qo'shilgan chiqindilardan tozalanadi. Salqinda yoki quritqichda quritiladi. Va ikkinchi bor qo'shimchalardan tozalanadi. Qopda yoki yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi.

Qatlami tarkibida 70-80% uglevodlar, oqsillar, yog'lar, vitamin B₁₂ mumi, kamed achchiq sitranin moddasi, lishaynik, kislotalar, oxirgisi antimikrob xususiyatiga ega va ko'p miqdorda mikroelementlar bor.

O'simlik vositasi yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, ich keltiruvchi, o't haydovchi va yara bitkazuvchi ta'siriga ega. Maydalangan xomashyodan qaynatilganda quyruq shilimshiq qaynatma hosil bo'ladi, agar u ichilsa, oshqozon shirasi ishlab chiqarish ko'payadi, oshqozon-ichak yo'llari ishini me'yorlaydi, yaxshigina o'rovchi xususiyatga ega.



ISLAND YO'SINI

Qaynatmasi ich ketganda, surunkali ich qotishda, silda, o'pka shamollashida, ko'kyo'talda, surunkali bronxitda, iste'mol qilinadi. Yiringli yaralarda, terining mikroblilik shikastlanishida, yiringli toshmalarda, kuyganda va chipqonda malham shaklida va yuvish qo'llaniladi.

DORIVOR ISSOP

DORIVOR ISSOP – ISSOP LEKARSTVENNIY
– HYSSOPUS OFFICINALIS



DORIVOR ISSOP

Bu yarimbo'ta yasnotiklar oilasiga mansub va bo'yi 80 sm gacha yetuvchi o'simlik bo'lib, uning ildizi – o'qildiz, novdasi to'rtqirrali, shoxli, pastiyog'ochsimon. Barglari qarama-qarshi, chekkalari tekis va ozgina bukilgan. Iyul-avgustda gullaydi. Gullari ko'k, ko'pincha bir tarafli tepadagi barglari qo'ynida joylashgan va go'sha hosil qiladi. Mevasi yong'oqdan iborat. Avgust-sentabrda pishadi.

Bargsiz novdasi shifobaxsh hisoblanadi. Ular gullashni boshlaganda faqat tepa qismi teriladi. Salqinda yoki quritqichda 40°C dan ko'p bo'lmagan haroratda quritiladi. Xomashyosi hidi o'tkir, ta'mi achchiqroq bo'ladi. Yog'ochli va shishali idishda 2 yilgacha saqlash mumkin.

O'ti tarkibida efir moyi, oshlovchi moddalar, glikozidlar, oleonoli va ursol kislotalar, achchiq moddalar, pigmentlar bor.

Issop vositalari antiseptik, terlashga va yo'talga qarshi xususiyatlarga ega. Hazm


qilishni kuchaytiradi va oshqozon-ichak yo'llaridagi tekis mushaklar qisishini qo'yib yuboradi.

Bronxidlarda balg'am ko'chiruvchi sifatida, bronxial astmada, ko'krakdagi og'riqlarda, silda, yana kuchli terlashda, ayollar klimaksida, surunkali oshqozon-ichak yo'llari yallig'lanishida va yomon hazm jarayonida ichish tavsiya etiladi. Yaralar, ko'z kon'yunktivitida, yuvish uchun, ko'kargan joylarning so'rilishi uchun malham sifatida ishlatiladi.

ODDIY QARAG'AY ODDIY QARAG'AY – SOSNA OBIKNOVENNAYA – PINNS SYLVESTRIS

O'simlik tasviri. Oddiy qarag'ay qarag'aydoshlar – Pinaceae oilasiga mansub, bo'yi 40 m gacha yetadigan doim yashil daraxt. Poyadagi shoxlari to'p-to'p joylashgan. Ninabarglari yarim silindrsimon, qattiq, o'tkir uchli, ichki tomoni botiq, ustki tomoni do'ng, poyada juft-juft bo'lib o'rtnashgan bo'ladi. Gullari bir jinsli, ko'rimsiz, qubbalarga joylashgan bo'ladi. Otaliq qubbalari bahorda yosh novdalarda hosil bo'ladi, oraliq qubbalari novdalarning uchki qismida 1-3 tadan joylashadi. Oraliq qubbalari ikkinchi yili pishadi va yog'ochlanib qoladi.

Geografik tarqalishi. Oddiy qarag'ay sobiq Sho'ro davlatlarining



ODDIY QARAG'AY

Yevropa qismi, Sibir, Qozog'istonning shimoliy qismi, Kavkaz va uzoq sharqdagi ninabargli o'rmonlarning asosiy daraxtlaridan hisoblanadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda oddiy qarag'ayning kurtagi, efir moyi, smolasi va smoladan olingan mahsulotlari ishlatiladi. Qo'shaloq kurtaklar erda bahorda, burtgan vaqtida o'sib chiqqan joyi bilan birga qirqib olinadi va salqin joyda uzoq vaqt quritiladi. Efir moyi 15-20 sm uzunlikdagi quritilmagan novdalardan suv bug'i yordamida haydab olinadi. Smola va uning mahsulotlari daraxt po'stlog'ini tilib, daraxtni quruq haydash yoki ekstraksiya qilish usuli bilan olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Qarag'ay kurtagi tarkibida 0,36 % efir moyi, vitamin E, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, qarag'ay bargli shoxchasida 0,13-1,3 % efir moyi, 7-12 % smola, vitamin C, karotin va boshqa birikmalar bor. Bargli novdalaridan olingan efir moyi 40% pinen, 40% limonen, 11 % gacha bornilasetat va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Qarag'ay kurtagi damlamasi balg'am ko'chiruvchi, dezinfeksiya qiluvchi va siydik haydovchi vosita sifatida hamda yuqori nafas yo'llari kasallanganda ingalyatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Barg damlamasi lavsha (singa) kasalligida va uning oldini olishda, ekstrakti — shifobaxsh vanna uchun ishlatiladi. Efir moyining spirtkori eritmasi xonalar (ko'pincha kasalxonalarda) hidini yaxshilash uchun purkaladi.

Qarag'ay smolasidan hamda daraxtni quruq haydash usuli bilan skipidar, kanifol, qoramoy va pista ko'mir olinadi.

Skipidar turli surtmalar, balzam va boshqa aralashmalar tarkibida nevrologiya, bod va boshqa shamollash kasalliklarida og'riqan yerga surtish, nafas yo'llari kasallanganda ingalyatsiya qilish, xonalar davosini yaxshilash uchun ishlatiladi. Qoramoyi Vishnevskiy surtmasi tarkibida

yaralarni, Vilkinson surtmasi tarkibida qo'tirni, ekzema va temiratkini davolashda qo'llaniladi. Kanifol turli malhamlar tarkibida kiradi. Pista ko'mir preparati — karbolen tabletkasi me'dada yig'ilib qolgan ortiqcha gazlarni (qorin dam bo'lganda) chiqarishga yordam beradi.

Smola, skipidar, kanifol, qoramoy va pista ko'mirdan sanoat tarmoqlarida va texnikada keng foydalaniladi.

QALAMPIRYALPIZ **QALAMPIRYALPIZ — MYATA PERECHNAYA** **— MENTHA PIPERITA**

O'simlik tasviri. Qalampiryalpiz yasnotkadoshlar (labguldoshlar) — Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub, bo'yi 30-100 sm keladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'sadi, to'rt qirrali, barglari cho'ziq tuxumsimon yoki nishtarsimon, o'tkir uchli, arrasimon notekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poyada qarama-qarshi o'rnashgan bo'ladi. Qizil binafsha rangli, mayda gullari poyasi bilan shoxlari uchida g'o'j joylashgan boshhoqsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi — to'rtta yong'oqcha. Iyun-sentabr oylarida gullaydi.

Geografik tarqalishi. Sobiq ittifoqda qalampiryalpiz yovvoyi holda uchramaydi. U Ukraina, Belorussiya, Moldaviya respublikalarida, Krasnodar o'lkasi hamda Voronej viloyatida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda qalampiryalpizning bargi, ba'zan, efir moyi olish uchun butun yer ustki qismi va o'simlikdan olingan efir moyi ishlatiladi. Bargi (yoki yer ustki qismi) o'simlik gullay boshlaganda o'rib olinadi, xirmonda so'litaladi, so'ng so'ri ustida yoki quritgichda quritiladi. Shu vaqtda poyasidan barglar to'kiladi. Poyasi

esa tashlab yuboriladi, keyin barglari quyoshda oxirgi marta quritib olinadi. O'simlik kuzda yangitdan ko'karib, gullash davrida yana bir marta o'rib olinadi. Efir moyi olish uchun o'rilgan yer ustki qismi quritilmay farmasevtika zavodlariga yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Qalampiryalpiz bargi tarkibida 2,4-75 % efir moyi, karotin gesperidin, betain, ursol va oleanol triterpen kislotalari bor. Efir moyi 4-65% mentol, 9-25% menton, 4-9 % mentol efirlari va boshqa birikmalardan tashkil topgan bo'ladi.

Qalampiryalpizni qadimdan tabobatda turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino qalampiryalpiz bilan bosh va quloq og'rig'ini davolagan hamda qon oqishini va qon aralash qusishni to'xtatish, ovqat hazmini yaxshilash, yaralarni, sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatgan.

Qalampiryalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari (damlamasi, nastoykasi va yalpiz suvi) ko'ngil aynishini va qusishni to'xtatishda hamda ovqat hazmini yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og'iz chayqash va suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Mentol preparatlari quloq-burun, nafas yo'llari kasalliklarida hamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi. Mentoldan bosh og'rig'ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanadi. Mentol preparati – validol stenokardiya (ko'krak qisish kasalligi)ga davo qilishda ishlatiladi. Bargi tinchlantiruvchi, o't haydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan yig'malar-choylar, efir moyi qorin og'rig'ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentol inrofen tarkibiga kiradi.

Efir moyidan oziq-ovqat sanoatida va parfyumeriyada foydalaniladi.

O'rta Osiyo xalq tabobatida yalpizning yana ikki turidan foydalaniladi:

Osiyo yalpizi – *Myata aziatskaya* –
M. asiatica Boriss. va dala yalpizi –
Myata polevaya – *M. apvensis* L.

Geografik tarqalishi. Osiyo yalpizi faqat O'rtta Osiyoda, dala yalpizi O'rtta Osiyo, sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz va Sibirdagi nam yerlarda, ariq bo'ylarida, adirlarda, tog' etaklaridan boshlab, to o'rtta qismigacha bo'lgan yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi va ishlatilishi. Xalq tabobatida yalpizning bu turlarining yer ustki qismi ishlatiladi. O'simlik gullashidan oldin yoki gullash davrida yer ustki qismi o'rib olinib, soya yerda quritiladi, yirik poyalari tashlab yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yalpizning bu turlari yer ustki qismi tarkibida 0,34-1,58 % efir moyi, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi karvon, sitrokellol, pulegon, mentol, mentok, karvakrol, silvestren va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Yalpiz turlari tabobatda qadimdan qo'llaniladi. Abu Ali ibn Sino ovqat hazmini yaxshilash, qusishni to'xtatish uchun hamda gijja haydovchi va qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida ishlatgan.

Yalpiz turlarining yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki quritilmagan o'simlikdan olingan shira xalq orasida istisqo, qo'tir, bod, ko'krak og'rig'i, yo'tal, shirincha, sariq kasalligi, me'da va boshqa kasalliklarni davolash uchun hamda chanqov bosuvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.



QALAMPIRYALPIZ

Qalampiryalpizni respublikamizda O'zbekiston FAgA qarashli F. N. Rusanov nomidagi Botanika bog'i yetishtiradi. O'simlik barglaridan tayyorlangan mahsulotni dorixonalardan olish mumkin.

DORIVOR KALENDULA

DORIVOR KALENDULA – KALENDULA LEKARSTVENNAYA – CALENDULA OFFICINALIS

Bu bir yillik o'tsimon o'simlik oilasiga mansub, bo'yi 40 sm. poyasi shoxli, biroz egilgan, qobirg'ali, barglari navbatli, poyasini yopib turuvchi, pastlari keng kaftli, yuqoridagilari uzunchoq shaklda. Iyundan boshlab butun yoz bo'yi gullaydi. Gullari tillarang, sariyog' yoki novvotrang, poyasining uchi 4-5 sm li savatcha kabi to'plangan, yoqimli hidga ega. Mevasi – bukilgan urug'. Gullab bo'lgandan keyin yopila boshlaydi.



DORIVOR KALENDULA

Kalendulaning dorivor ashyosi – guldoni. Ularning tilchalarini yarmidan ko'pi ochilgan gullari yoz bo'yi yig'ib olinadi. Savatchalarini yig'ib olish o'rtasidagi tanaffus 2-5 kunni tashkil qiladi. Uni teriboq tomda yoki naves tagida yupqa qilib yoyib quritiladi, tez-tez aralashtirib turiladi. Quritgichda harorat 40-45 °C dan ortmasligi kerak. Savatchalarni barmoqlar bilan yengil bosilganda to'kilib ketsa, quritish to'xtatiladi, yopiq idishda 1 yil saqlanadi.

Ashyo tarkibida karotinoidlar, efir moyi, smolalar, organik kislotalar, achchiq moddalar bor.


Kalendula preparatlari mikrobg qarshi, yallig'lanishga qarshi, yara bitiruvchi, qon tozalovchi, tinchlantiruvchi, gipotenziv, spazmolitik, o't haydovchi, og'riq qoldiruvchi, qichishishga qarshi xususiyatlarga ega. Gastritlarda, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklarida, kolitlarda, enterokolitlarda, jigar va o't pufagi kasalliklarida, gipertenianing boshlang'ich bosqichlarida, ayniqsa, klimaksda, ritm buzilishi bilan kechuvchi yurak kasalliklarida ichiladi, parhezlarda, lat yeyishda, yiringli va uzoq bitmay turuvchi yaralarda, yotoq yaralarda, sovqotishda, bachadon po'sti eroziyasi, proktitlar, paraproktitlar, angina, parodontit, milklar qonashida, har xil teri kasalliklarida surtish uchun qo'llaniladi.

KARAFS, XUSHBO'Y KARAFS
KARAFS, XUSHBO'Y KARAFS – SELDEREY
PAXUCHIY – APIUM GRAVEOLENS

O'simlik tasviri. Karafs selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo'yi 50 sm gacha o'sadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, o'rta qismidan boshlab shoxlan, barglari cho'ziq yoki lansetsimon bo'lakchalarga patsimon ajralgan (poyaning yuqori qismidagilari uch bo'lakka qirqilgan) bo'lib, uzun bandi (ildizoldi va poyaning pastki qismidagilari) yoki bandsiz poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Mayda, oq rangli, besh bo'lakli gullari murakkab soyabon to'pguliga joylashgan. Mevasi – yumaloq qo'shaloq pista.

Iyul oyida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Rossiyaning Yevropa qismi, O'rta Osiyo, Kavkazda kanal va ariq bo'ylarida, daryo qirg'oqlarida, sug'oriladigan va nam yerlarda, tog' etaklarida



KARAFS, XUSHBO'Y KARAFS

o'sadi. Ziravor o'simlik sifatida keng miqyosda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi.

Tibbiyotda karafsning yer ustki qismi, mevasi va ba'zan ildizi ishlatiladi. Yer ustki qismi o'simlik gullagan vaqtida yig'iladi, soya yerda quritiladi yoki quritmay qo'llaniladi. Mevasi pisha boshlaganda o'simlik o'riladi, xirmonda quritib, yanchib, elab, mevasi ajratib olinadi. Ildizi kuzda kovlab olinadi; suv bilan yuvib, tuproqdan tozalanadi va ochiq yerda — quyoshda quritiladi (yiriklari bo'lakchalarga

bo'linadi).

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Karafsning yer ustki qismi tarkibida 0,1 % efir moyi, vitamin C (20 mg %) va B₁, karotin, flavonoid, glikozid-apiin, mevasida — 1,03-6 % efir moyi, 12-17 % yog', furokumarinlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi 60-78 % limonen, 10-13% selenin, sedanolid va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Karafs mevasi va uning damlamasi xalq tabobatida ko'ngil aynishi, isitma, hiqichoq tutganda va og'riq bilan o'tadigan hayzni davolashda hamda el haydovchi va ishtaha ochuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Yer ustki qismi va ildizidan tayyorlangan damlamasi ham xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ovqat hazmini yaxshilovchi, yel va siydik haydovchi (istisqo kasalliklarida), yengil surgidori sifatida hamda bo'yрак, siydik pufagi kasalliklarini, bod,

temiratki, eshakyemi toshganni davolashda qo'llaniladi. Barg yoki ildiz damlamasi bilan yiringli yaralar yuviladi. Quritilmagan bargini maydalab, ezib yaralar ustiga qo'yiladi.

Karafs o'simligining siydik haydash ta'siriga ega ekanligi tajribalarda aniqlangan va quritilmagan yer ustki qismidan olingan sukapigraveol preparati shu maqsadda ilmiy tibbiyotda qo'llashga tavsiya qilingan.

DORIVOR QASHQARBEDA (SARIQ QASHQARBEDA)

DORIVOR QASHQARBEDA – DONNIK LEKARSTVENNIY – MELILOTUS OFFICINALIS

O'simlik tasviri. Dukkakdoshlar – Fabaceae (Leguminosae) oilasiga mansub, bo'yi 50-100 (200) sm keladigan ikki yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta bo'lib, tikka o'sadi. Barglari uch plastinkali murakkab, poyasi bilan shoxlarida uzun bandi yordamida ketma-ket joylashgan, nishtarsimon, bigizsimom o'tkir uchli yondosh bargchalari bo'ladi. Barg bo'lakchalari cho'ziq, dumaloq-nishtarsimon yoki teskari tuxumsimon, mayda arrasimon tishsimon qirrali. Mayda, sariq gullari barg qo'ltig'idan chiqqan ko'p gulli shingilga to'plangan. Mevasi bir-ikki urug'li, o'tkir uchli dukkak.

Iyun-sentabrda gullaydi, mevasi avgust oyidan boshlab yetila boshlaydi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va G'arbiy Sibirning tekislik va tog'larining o'rta poyasigacha bo'lgan o'tloqlar, daryo, ariq va ko'l bo'ylarida, yo'l yoqalarida, soylarda, hamda ekinzorlarda o'sadi.



DORIVOR
QASHQARBEDA

dushistiy – *M. suaveolens* Ledebning yer ustki qismlari tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan.

Qashqarbeda damlamasi xalq tabobatida o'pka va yuqori nafas yo'llari kasalliklarida, ko'krak og'riganda balg'am ko'chiruvchi, yumshatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida, bosh og'rig'ida, gipyertoniya kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Ba'zan uni yel haydovchi dori sifatida ham tavsiya qilishadi. Qurilmagan dorivor qashqarbeda yoki undan tayyorlangan malham yiringli yaralarga bog'lanadi. Bunda yaralar yiringdan tozalanadi. Yaralarni qashqarbeda damlamasi bilan yuvilsa, yaxshigina naf beradi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 0,4 - 0,9 % kumarin, dikumarin, melilotozid glikozidi, efir moyi, vitamin C va E, karotin, xolin, shilliq va boshqa moddalar, urug'ida - 8,5 % yog' va 0,13-0,45 % trigonellin alkaloidi bor.

Yer ustki qismining yumshatuvchi va ta'sirlovchi xossasi bor. Shuning uchun undan tayyorlangan malham yiringli yara va chipqonni davolashda qo'llaniladi. Dikumaryl qon ivitmaydigan ta'sirga ega va shu maqsadda tromboflebit kasalligida ishlatiladi.

Dorivor qashqarbeda bilan bir qatorda uning boshqa turlari – Baland bo'yli qashqarbeda – *Donnik rosliy* (yoki visokiy) – *Maltissimus Thuill* va Xushbo'y qashqarbeda – *Donnik*

Biroq dorivor qashqarbeda preparatlari ko'p miqdorda va uzoq muddat qabul qilinsa, bosh aylanishi, qayt qilish va uyqusizlik kuzatilishi mumkin.

KASHNICH, EKMA KASHNICH


**KASHNICH, EKMA KASHNICH – KORIANDR
POSEVNOY, ILI KINZA – CORIANDRUM SATIVUM**

O'simlik tasviri. Selderdoshlar (Soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo'yi 30-70 sm keladigan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan, ildizoldi barglari uzun bandli, uch bo'lakka qirqilgan, qirrasi tishsimon kesilgan; poyasining pastki qismidagi barglari qisqa bandli, ikki bo'lakka qirqilgan, o'rta va yuqoridagilari qinli, bandsiz, ikki-uch bo'lakka ajralgan bo'lib, poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Mayda, pushti rangli gullari murakkab soyabonga to'plangan. Mevasi – qo'ng'ir yoki sarg'ish kulrang, dumaloq shaklli qo'shaloq doncha.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining janubiy tumanlarida, Kavkaz va O'rta Osiyoda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi va efir moyi. Mevasi yetilganda o'simlik o'riladi, xirmonda yanchib, mevasi



**KASHNICH, EKMA
KASHNICH**

ajratib olinadi. Efir moyi maydalangan mevasidan suv yoki suv bug'i yordamida haydab olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida 0,7-1,5% efir moyi, 10-12 % yog', oqsil va boshqa moddalar bor. Efir moyi 50-80 % linaleol, fellandren, pinen va boshqa birikmalardan tashkil topgan.

Mevasi va efir moyi o't haydash, og'riq qoldirish va antiseptik ta'sirga ega, ovqat hazmini yaxshilaydi. Dori preparatlari (meva poroshogi, damlamasi va yig'ma – choylar tarkibida) ishtaha ochadigan, ovqat hazmini yaxshilaydigan va o't haydaydigan vosita sifatida hamda bavoil kasalligida va yaralarni davolashda qo'llaniladi. Efir moyi antiseptik, og'riq qoldiruvchi, o't haydovchi vosita sifatida va bavoil kasalligida ishlatiladi. Kashnichning spirtli suvi va efir moyi ba'zi suyuq dori shakllari ta'mini yaxshilash uchun ularga qo'shiladi.

Kashnich mevasi me'da va bavoil kasalliklarida ishlatiladigan choy – yig'malar tarkibiga kiradi. Abu Ali ibn Sino kashnich mevasini bosh aylanishida, qorni dam bo'lganda qo'llagan, qovurilgan mevasini qusishni to'xtatish hamda me'da-ichak kasalliklarini davolash uchun ishlatgan. Qon tupurishni davolash maqsadida bemorga kashnich mevasini zubturus bargi shirasi bilan birga iste'mol qilishni buyurgan.

Kashnich mevasi poroshogi, damlamasi va nastoykasi xalq tabobatida me'da-ichak kasalliklarini (ovqat hazmining buzilishida, me'da shirasi ko'p ajralgan hollarda) davolash, ba'zan gijjalarni tushirish hamda og'izdagi yoqimsiz hidni yo'qotish uchun qo'llaniladi. Mevasining efir moyi bavoilga davo qilinadi, jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi (poroshogi, damlama va nastoykasi) vosita sifatida ishlatiladi.

ODDIY KASHTAN

ODDIY KASHTAN – KASHTAN KONSKIY OBIKNOVENNIY – AESCULUS HIPPOCASTANUM

Bu ko'p yillik daraxat qoraqayinlar oilasiga kiradi va bo'yiga 30 m bo'ladi. Po'sti kulrangroq qo'ng'ir rangli, yoriq-yoriq. Barglari to'g'rimsimon to'g'ri, barmoqsimon murakkab, ozgina arrali. Uzun novsimon bandli. Gullari gultoji, oq, sariqroq, keyinchalik qizilroq dog'lari bilan katta konussimon popuk hosil qiladi, uzunligi 20-30 sm ga etadi. Mayiyunda gullaydi. Urug'i jigarrang, ichiga ezilgan, o'rtasi chandiq. Avgust-oktyabrda pishadi. Mevasi pishganda teriladi, po'sti, guli, bargi salqinda yupqa qilib yoyib quritiladi, mevasi oftobda yoki quritgichda 50-60 °C da quritiladi, yopiq idishda 1 yil saqlanadi.



ODDIY KASHTAN

Po'stida, bargida, gulida, mevasida trisheppenoidlar, saponinlar, fenollar, fenilkarbonik kislotalar, katexininlar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, flavonoidlar, aldegidlar, vitamin E, C, K, B₁, B₂, karotinoidlar, va yog'li moylar bor.

Kashtan dorivor vositalari qon kapillyarlari o'tkazuvchanligini ozaytiradi, qonning qovushqoqligini ozaytiradi, venalarga qon to'planishni va ularning tarangligini kuchaytiradi, ayniqsa venalardan qon o'tishi buzilganda.

Venalarning varikoz kengayishida, gemorroyda, boldir yassiligida, venalarning qisilishidan kelib chiqqan boldir

yarasida, shuningdek, tugʻruqda trombosit oldini olish maqsadida ichish qoʻllaniladi. Oʻtning chiqishi buzilganda, surunkali hazm qilish buzilishida, har xil sababli yoʻtallarda, nafas yoʻllari kasalliklarida mevasi va poʻstining qaynatmasini ichish kerak. Poʻsti, dorivor vositalari qoʻshilgan obzanlar, mushaklardagi shamollash jarayonlarini susaytiradi, nevrалgiyalarda foydali. Oyoqdagi venalarning kengayishida va bavo sil qubbalar kattayganda, quritilganda gulining damlamasi isteʼmol qilinadi. Revmatik va artretik ogʻriqlarda quritilgan gulining spirtli damlamasi surtiladi.

QIZILMIYA QIZILMIYA – SOLODKA – GLYCYRRHIZA GLABRA

Qizilmiya turlari dukkakdoshlar – Fabaceae oilasiga mansub, boʻyi 50-100 sm boʻladigan koʻp yillik oʻt-oʻsimlik. Oʻrta Osiyo oʻsadigan turlaridan quyidagi ikkitasi tibbiyotda ishlatiladi:

Oddiy qizilmiya (chuchukmiya) – Solodka obiknovennaya – *G glabra* L. va Ural qizilmiyasi *G – uralensis* Fisch.

Oʻsimlik tasviri. Qizilmiya turlarining yer ostki qismi yaxshi taraqqiy etgan boʻlib, koʻp boshli, kalta yoʻgʻon ildizpoyali. Undan yer ostida gorizontal va vertikal novdalar (4-5 m chuqurlikda) tarqaladi. Poyasi bir nechta, tik oʻsadi, shoxlanmagan yoki kam shoxlangan. Barglari toq patli murakkab, 3-7 juft ellipssimon, choʻziq-tuxumsimon yoki nishtarsimon, tekis qirrali bargchalardan tashkil topgan boʻlib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket oʻrnashgan. Oqish binafsha rangli, besh boʻlakli gullari barg qoʻltigʻidan oʻsib chiqqan shingil gultoʻplamga joylashgan. Mevasi – toʻgʻri (yoki Ural qizilmiyasida oʻroqsimon

qayrilgan), bezli tikanchalar bilan qoplangan yoki silliq, pishganda ochilmaydigan, ko'p urug'li dukkak.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Qizilmiya turlari O'rtta Osiyoning cho'l va yarimcho'llarida, ayniqsa Turkmaniston va O'zbekistonda (Amudaryo va Sirdaryo bo'yida), Qozog'istonda (Sirdaryo va Ural daryolari hamda Balxash ko'li bo'yida), Kavkaz va sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining janubida va Sibirdagi sho'r tuproqli cho'llarda, cho'llaridagi ariq, kanal, daryo va ko'l bo'ylarida, begona o't sifatida ekinzorlarda va boshqa qumli yerlarda, qumli qiyaliklarda hamda to'qayzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ostki qismi (ildizpoyasi bilan ildizi). Ularni o'sadigan joyiga qarab yil bo'yi (ko'pincha bahordan kech kuzgacha, Turkmanistonda oktyabr oyidan kelasi yilning aprelegacha) yig'ish mumkin. Qizilmiya ildizi belkurak, ketmon, ko'p o'sadigan joylarda traktor va suqa yordamida haydab kovlab olinadi, tuproqdan tozalanadi va quritiladi. Ba'zan ildizining po'stlog'i po'kak qismidan tozalanadi va ochiq havoda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizi tarkibida 3,2-24 % tripen saponin - glisirrizin birikmasi, 4 % gacha flavonoidlar, 20 % gacha qandlar 34 % gacha kraxmal, asparagin, efir moyi, vitamin C, achchiq, 6 % gacha pektin va boshqa moddalar, Ural qizilmiyasi ildizida yana triterpen saponin - uralenoglyukuron kislotasi bor.



QIZILMIYA

Ildiz flavonoidlaridan likviritin, likviritozid, likurozid, glabrozid va boshqa birikmalar ajratib olingan.

Qizilmiya ildizidan tayyorlangan quyuq va quruq ekstraktlari hamda sharbati nafas yo'llari kasallanganda balg'am ko'chiruvchi, surunkali qabziyatda esa yengil surgidori sifatida qo'llaniladi. Ildiz preparatlaridan glisiram – astma, ekzema, allergik dermatit va boshqa kasalliklarni, likviriton, likurazid va flakarbon yallig'lanishga va spazmga qarshi ta'siriga ega bo'lganligi uchun me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi hamda yallig'lanish kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

Qizilmiya ildizining poroshogi, qirqilgan ildizi quyuq va quruq ekstraktlari hamda sharbati farmatsevtika amaliyotida hapdori tayorlashda, suyuq dori shakllari va choy – yig'malarning ta'mini yaxshilash uchun qo'llanadi. Ildizining poroshogi surgidori sifatida ishlatiladigan murakkab qizilmiya poroshogi, ekstrakti nafas yo'llari kasalligida qo'llaniladigan ko'krak eliksiri qirqilgan ildiz bo'lakchalari o'pka kasalliklarida ishlatiladigan balg'am ko'chiruvchi hamda siydik haydovchi va ich yumshatuvchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

Qizilmiya ildizi xalq tabobatida qadimdan turli kasalliklarni davolashda keng ishlatib kelingan. Abu Ali ibn Sino bu o'simlikning ildizi bilan bo'yрак, qovuq va me'da yallig'lanishi hamda isitma, o'pka kasalliklarini davolagan.

Xalq tabobatida qizilmiya ildizidan tayyorlangan qaynatma ko'krak og'rig'i, ko'kyo'tal, nafas qisishi, tomoq qurishi, me'da-ichak (me'da va ichak yallig'lanishi qabziyatda) va boshqa kasalliklarda ichiladi. Ildizining qaynatmasi yana yo'tal va nafas olish yo'llari shamollaganda balg'am ko'chiruvchi hamda siydik haydovchi surunkali qabziyatda yengil surgidori sifatida qo'llaniladi.

Qizilmiya o'simligining ildizidan oziq-ovqat sanoatida (pivo, kvas kabilar tayyorlashda) hamda texnikada to'qimachilik, kimyo sanoatida va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida keng foydalaniladi.

ODDIY QIZILPOYACHA. ODDIY DALACHOY
ODDIY QIZILPOYACHA – ZVEROBOY
PRODIRYAVLENNIY – HYPERICUM
PERFORATUM

O'simlik tasviri. Dalachoydoshlar – Hypericaceae (Guttiferae) oilasiga mansub, bo'yi 20-75 (100) sm keladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta bo'lib, tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan, silliq, ikki qirrali. Barglari keng yoki cho'ziq tuxumsimon poyasi bilan shoxlarida bandsiz qarama-qarshi joylashgan. Tilla sariq rangli gullari valkonsimon ruvakka, shingil yoki tarqoq soyabonga to'plangan. Mevasi – uch xonali, ko'p urug'li ko'sakcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va G'arbiy Sibirda yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, bedazorlarda, bog'larda, sug'oriladigan yerlarda, bo'tazorlarda, tog' yonbag'irlaridan boshlab, o'rta qismigacha bo'lgan mayda tosh-tuproqli joylarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 10-12 % oshlovchi moddalar,



ODDIY
QIZILPOYACHA

0,2-0,3 % efir moyi, 5,66 % antotsianlar, 2 % flavonoidlar (kversetin, giperozid, kversitrin, rutin), karotin (15,88 mg %), 240 mg % vitamin C, organik kislotalar, qand, smola, shilliq va boshqa moddalar bor.

Dorivor preparatlari (damlama, nastoykasi) va yig'malarchoylar, tarkibida burishtiruvchi, antiseptik vosita sifatida (me'da-ichak kasalliklari — kolit, ichketar va boshqalar), og'iz bo'shlig'i yallig'lanishi (gingivit, stomatit), turli yaralarni, kuyganni va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismining moyli ekstrakti va novoimanin preparatlari me'da va ichak yara kasalligiga, yiringli yaralarga hamda II-III darajali kuyganga davolatiladi. Yer ustki qismidan Bolgariyada peflavit preparati olinadi.

O'zbekistonda qizilpoychanning yana bir turi — dag'al qizilpoycha (dalachoy) — *Hypericum scabrum* L. — zveroboy sheroxovatiy keng tarqalgan bo'lib, uning yer ustki qismi tarkibida oddiy qizilpoycha tarkibidagi moddalar: 8,5% qandlar, 6,71 mg % karotin, 130 mg % vitamin C, 0,22 % efir moyi, 5,03 % antotsianlar, 0,9 % flavonoidlar (kversetin, giperozid, kversitrin va rutin), 4,5 % shilliq 10,5 % oshlovchi va boshqa moddalar bor. Shuning uchun u tibbiyotda yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Dag'al qizilpoycha (dalachoy) — *Hypericum scabrum* L.

O'simlik tasviri. Bo'yi 20-50 sm keladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, bir nechta, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Poyasidagi barglari cho'ziq-chiziqsimon yoki nishtarsimon, qirrasini ichiga qayrilgan, barg qo'ltig'idan chiqqan qisqa shoxchadagilari - chiziqsimon, ichiga qayrilgan qirrali bo'lib, poyasi bilan shoxchalarida bandsiz qarama-qarshi o'rnashgan. Sariq gullari qalqonsimon — ruvaksimon tupgulni hosil qiladi. Mevasi — ko'p urug'li, tuxumsimon ko'sakcha.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo, Kavkaz, Oltoydagi tog'li hududlarda, tog' etaklaridan to o'rta qismigacha bo'lgan toshli va shag'alli, tuproqli qiyaliklarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. Uni o'simlik gullaganda yig'ib olib soya yerda quritiladi.

Ishlatilishi. Dalachoy turlari ilgaridan ishlatib kelinadigan dorivor o'simlikdir. Abu Ali ibn Sino uni og'riq qoldiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida hamda yaralarni davolashda qo'llagan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamani xalq tabobatida bo'yрак, bo'yрак-tosh va qovuq kasalligida siydik haydovchi, qon tupurganda, ichki a'zoldan qon oqqanda, qon aralash ich ketganda qon oqishini to'xtatuvchi, ich ketganda va me'da-ichakning boshqa kasalliklarida burishtiruvchi, antiseptik, yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi va ich ketishini to'xtatuvchi hamda turli yaralarni (damlamasi bilan yaralar yuviladi yoki dokani ho'llab, yara ustiga bog'lanadi) davolash uchun qo'llaniladi. Og'iz bo'shlig'i yallig'langanda (gingivit va stomatit), og'izdan yomon hid kelganda damlama bilan og'izni chayish buyuriladi.

KATTA QONCHO'P **KATTA QONCHO'P – CHISTOTEL BOLSHOY –** **CHELIDONIUM MAJUS**

Ko'knordoshlar – Papave-gaseae oilasiga mansub, bo'yi 30 – 100 sm gacha o'sadigan ko'p yillik o'simlik. Sho'ro davlatlari Yevropa qismi, Qrim, qisman Sibir, Qozog'iston, Oltoy va Uzoq Sharqdagi salqin yerlarda, bo'talar orasida, o'rmon chetlarida, jar bo'ylarida, aholi yashaydigan joylarda, bog' va polizlarda o'sadi.



KATTA QONCHO'P

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (xelidonin, xeleritrin, sangvinarin va b.), organik (xelidon, olma, limon va b.) kislotalar, flavonoidlar, saponinlar va b. moddalar bor. Damlamasi jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida, yer ustki qismidan tayyorlangan pasta teri silini davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismi o't haydovchi choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

QORAANDIZ

QORAANDIZ – DEVYASIL VISOKIY – INULA HELENIUM

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 100-80 sm keladigan yirik ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari yirik, uzun bandli, ellipssimon yoki cho'ziq tuxumsimon va o'tkir uchli bo'ladi. Poyasidagi barglari maydaroq cho'ziq tuxumsimon bo'lib, bandi yordamida (pastki qismidagilari) yoki bandsiz (poyasining yuqori qismidagilari) poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan hamma barglari sertuk (ayniqsa pastki tomoni) va tishsimon qirrali. Tilla sariq gullari poyasi bilan shoxchalari uchida qalqonsimon yoki shingilsimon to'pgul hosil qiluvchi savatchalarga joylashgan. Mevasi – to'rt qirrali, cho'zinchoq pista.

Iyul oyidan boshlab sentabrgacha gullaydi, mevasi avgust-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho‘ro davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, va G‘arbiy Sibirdagi tog‘ etaklaridan to tog‘larning o‘rta qismigacha bo‘lgan to‘qayzorlarda, daryo vodiylarida, bo‘talar orasida, o‘tloqlarda, o‘rmonlardagi ochiq joylarda va boshqa nam yerlarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Ildizpoyasi bilan ildizi. Ular kuzda mevasi pishib to‘kilgandan so‘ng yoki erta bahorda kovlab olinadi, tuproq va loydan suv bilan yuvib tozalanadi, yo‘g‘onlarini maydalab, ochiq havoda quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 1-3 % efir moyi, 44 % gacha inulin va boshqa uglevodlar, saponinlar, 0.16 % alkaloidlar, smola, achchiq, bo‘yoq, shilliq va boshqa moddalar bor.

Ildizpoyasi bilan ildizining qaynatmasi nafas yo‘llari kasalligida balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Yer ostki organlaridan olingan allantoin preparati me‘da va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligini davolash uchun ishlatiladi.

Qoraandiz preparatlari va efir moyi yallig‘lanishga qarshi, antiseptik va gijja haydovchi (ayniqsa, efir moyi tarkibidagi alloktolakton va izoallantolakton birikmalari) ta’sirga ega. Qoraandiz ildizi bilan ildizpoyasi yo‘talga qarshi va balg‘am ko‘chirish uchun ishlatiladigan yig‘malar — choylar hamda Zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi.

Qoraandiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun qo‘llanib kelingan. Uni Abu Ali ibn Sino



QORA ANDIZ

bo'g'im og'riganga, radikulit kasalliklariga davo qilgan, ildiz qaynatmasini balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida ishlatgan, ildizi bilan bargining qaynatmasiga dokani ho'llab et uzilgan joyga bog'lagan.

Ildiz va ildizpoyasidan tayyorlangan qaynatma damlama va ularning poroshogi hozirgi vaqtda ham xalq tabobatida balg'am ko'chiruvchi, isitmani tushiruvchi, terlatuvchi, siydik va gijja haydovchi, ishtaha ochuvsi vosita sifatida ishlatiladi. Nafas yo'llari shamollashi va yallig'lanishi, bo'yрак va siydik yo'llari hamda me'da kasalliklarida, gripp, bavirusil va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Qaynatmasi bilan yana qo'tir, gush (ekzema), turli yaralar va terining boshqa kasalliklari davolanadi.

Xalq tabobatida andizning boshqa turlari Sariqandiz – Devyasil krupniy - I. grandis Schrenk, Britaniya andizi (chachalbosh) – Devyasil britanskiy – I. britannica L. va boshqalar yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni davolashda qoraandiz bir qatorda ishlatiladi.

Sariqandizning yer ostki organlari tarkibida 2,20-3,17 % efir moyi (asosiy qismi allantolaktonlar), 2-20 % qandlar, 12-32 % inulin, 5,68-13,71 % smolalar (20,4-30,1 % efir moyi tashkil etadi) va boshqa birikmalar bor. Bargida yana flavonoidlar, xromonlar, saponinlar, alkaloidlar va boshqa moddalar uchraydi. Sariqandizning hamma organlaridan grandilin, ivalin, grandin, igalin va boshqa seskviterpen laktonlar olingan.

Sariqandiz ildizi ilmiy tibbiyotda qoraandiz bilan bir qatorda ishlatiladi. Uning preparatlari yana me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi va me'da yallig'lanishida ishlatishga tavsiya etilgan.

QORAZIRA, ODDIY QORAZIRA QORAZIRA – TMIN OBIKNOVENNIY – CARUM CARVI


O'simlik tasviri. Selderdoshlar – (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo'yi 25-80 sm ga yetadigan ikki yillik o't-o'simlik, poyasi (ikkinchi yili o'sib chiqadi) tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan. Barglari ikki va uch marta chiziqsimon bo'laklarga ajralgan, ildizoldi barglari uzun bandli poyadagilari qisqa bandli bo'lib, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnavgan. Mayda, oq yoki pushti rangli, besh bo'lakli gullari murakkab soyabon gulto'plamiga joylashgan. Mevasi – cho'ziq qo'shaloq, pista.

Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlari Yevropa qismining o'rmon va o'rmon cho'l zonalarida, Sibirning janubidagi, Kavkaz va O'rta Osiyodagi tog'li o'rmonlarda, o'rmon chetlarida va o'tloqlarda o'sadi. Ukrainada o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi va undan olinadigan efir moyi. O'simlikni birinchi soyabonlaridagi mevalari pisha boshlaganda iyul-avgust oylarida o'rib olib xirmonda quritiladi. So'ng o'simlik yanchiladi va mevalari maxsus mashinalarda yelpib, ajratib olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida 3-7 % efir moyi, 14-22% yog', 20-23 % oqsil,



QORAZIRA

flavonoidlar (kversetin va kempferol), oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi 40-50% limonen, 40-70% karvakrol, 50-60% karvok va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Meva damlamasi ichak atoniyasini davolash, og'riq qoldirish, ovqat hazmini yaxshilash uchun, dispepsiya va enterit kasalliklarida hamda qorin dam bo'lganda (meteorizm) yel haydovchi vosita sifatida qo'llanadi. Mevasi siydik va yel haydovchi hamda me'da kasalliklarida ishlatiladigan choy-yig'malar tarkibiga kiradi. Ba'zan mevasidan meva suvi tayyorlanadi va uni ichak sanchig'ida (ayniqsa, bolalarda), tish og'rig'ida, og'riq qoldirish uchun qo'llaniladi va miozitda badanning yallig'langan joyiga surtiladi. Efir moyi farmasevtika amaliyotida suyuq dorilarning hidi va ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Qorazira mevasi qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelingan. Uning mevasini ibn Sino terlatuvchi, yel haydovchi va gijjani tushiruvchi vosita sifatida qo'llagan.

Mevasidan tayyorlangan damlama, yoki qaynatma xalq orasida me'da-ichak kasallilarini (ichak ishining buzilishi, ichakning zaiflashishi, dispepsiyada), sil va boshqa kasalliklarni davolashda hamda yel va siydik haydovchi dori sifatida ishlatib kelinadi, damlamasi bilan ekzemada teri yuviladi.

Qoraziraning efir moyi parfyumeriyada, mevasi esa oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladi.

QORA QORAG'AT
QORA QORAG'AT – SMORODINA CHERNAYA
– RIBES NIGRUM

O'simlik tasviri. Qorag'atdoshlar – Saxifragaceae oilasiga mansub, bo'yi 1-1,5 m ga yetadigan bo'ta. Barglari panjasimon 3-5 bo'lakli bo'lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Besh bo'lakli, pushtikulrang gullari shingil gulto'plamiga joylashgan. Mevasi – xushbo'y, yumaloq shaklli, to'q binafsha yoki qora rangli, ko'p urug'li ho'l meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Ittifoq o'rmon zonasidagi nam o'rmonlarda, nam o'tloqlarda, botqoqlik chetlarida va ariq bo'ylarida o'sadi. MDH davlatlari Yevropa qismida, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sibirda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Barglari bilan mevasi. Barglari o'simlik gullashi oldidan yoki gullash davrida yig'iladi va soya yerda quritiladi. Mevasi to'liq yetilganda terib olinadi va quyoshda yoki pechlarda kuni bilan 65°C dagi haroratda quritiladi. Ko'pincha quritilmagan mevasi sharbat tayyorlash uchun ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bargi tarkibida 400 mg% gacha vitamin C va P, efir moyi, mevasida 568 mg % gacha vitaminlar: C, B₁,



QORA QORAG'AT

B₂, B₆ va K, karotin, 2,5-4 % organik (olma, limon va boshqa) kislotalar, 4,5-16,8 % qandlar, flavonoidlar (kversetin, izokversitrin, antotsianlar), pektin, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Barg va meva damlamasi lavsha (singa) hamda boshqa gipo - va avitaminoz kasalliklarini davolash uchun, mevasi terlatuvchi va siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Barg va mevasi vitaminli choylar — yig'malar tarkibiga kiradi. Qora qorag'at mevasidan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi.

Qora qorag'at bargidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida bod, teri va bo'yрак kasalliklariga davo qilinadi, qon bosimi oshganda uni pasaytirish uchun bemorlarga beriladi, terlatuvchi va siydik haydovchi vosita sifatida keng qo'llaniladi. Bargi bilan yosh novdalaridan tayyorlangan qaynatmasiga teri sili shirincha va boshqa diatez kasalliklari bilan og'rigan bolalar cho'miltiriladi.

KO'KGUL

KO'KGUL — SINYUXA GOLUBAYA — POLEMONIUM CERULEUM

Bu ko'p yillik o'simlik ko'kguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 1 m gacha bo'ladi. Ildizpoyasi sudraluvchan, semiz, qo'shimcha tomirlari bor. Poyasi tik turadi, kam shoxlaydi, tepasidan bezli tuklar bilan qoplangan, barglari birin-ketin, tog', yalang'och tepadagilar kalta bandli yoki bandsiz, pastdagilari esa uzun bandli. Iyun-iyulda gullaydi. Gullari ko'kroq, nafarmon, ba'zida oq, popuksimon gulto'pga to'plangan. Mevasi uch uyali ko'p urug'li ko'sakcha. Avgust-sentabrda pishadi.

Ildizpoyasi ildizlari bilan dorivor xomashyo bo'ladi. Kuzda kavlab olinadi tuproqdan tozalanadi, ko'ndalangiga kesiladi va

tezda suvda yuvib soʻltiladi, keyin quyoshda yoki quritgichda 50-60 °C da quritiladi. Xomashyo berk idishda yogʻochli yoki shishali idishda 2 yilgacha saqlanadi.

Ildizpoyada va triterpinli saponinlar, kraxmal, yelimlar, moddalar, organik kislotalar, efir va yogʻli moylar bor.


Uning asosidagi vositalar balgʻam koʻchiruvchi, tinchlantiruvchi, yara bitkazuvchi, qon toʻxtatuvchi, oʻrtacha aterosklerotik va arterial bosimni tushirish xususiyatlariga ega. Oʻtkir va surunkali bronxlar va oʻpka kasalliklarida, ayniqsa, absess boʻlsa, silda, asabning qoʻzaluvchanligi koʻtarilganda ichga isteʼmol qilinadi. Tinchlantirish buyicha valerianadan 8-10 bora kuchli.



KO'KGUL

DORIVOR KO'KO'T, DORIVOR KROVOXLEBKA
DORIVOR KO'KO'T – KROVOXLEBKA
LEKARSTVENNAYA – SANGUISORBA
OFFICINALIS

Oʻsimlik tasviri. Raʼnoguldoshlar — Rosaceae oilasiga xos, boʻyi 1 m gacha oʻsadigan koʻp yillik oʻt-oʻsimlik. Poyasi tik oʻsadi, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari uzun bandli, poyadagilari bandsiz, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket oʻrnashgan. Hamma barglari toq patli murakkab boʻlib, 4-13 juft choʻziq tuxumsimon, tumtoq tishsimon yoki oʻtkir arrasimon qirrali bargchalardan tashkil topgan. Mayda, toʻq



DORIVOR KO'KO'T

qizil gullari cho'zinchoq boshcha shaklida boshoqsimon to'pgulga joylashgan. Mevasi — pista. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho'ro davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, qrim, Sibir, Uzoq Sharq, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubidagi o'rmon chetlarida, bo'talar orasida, nam yerlarda va o'tloqlarda, botqoqliklarda, daryolar atrofida, tog'li tumanlarda daryo va ariq bo'ylarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Ildizpoyasi bilan ildizi. Ularni kuzda, mevalari pishib to'kilgandan so'ng kovlab olinadi, tuproqdan tozalanadi, suvda yuviladi, yo'g'on va bo'yi uzunlarini bo'laklarga bo'lib, oftobda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 12-20 % oshlovchi moddalar, 4% gacha saponinlar, gallat va ellag kislotalar, 1,8 % efir moyi, 29 % kraxmal va boshqa moddalar bor.

Dori preparatlari (qaynatma, suyuq ekstrakti) me'da va ichak kasalliklari (ich ketish, enterokolitni) davolash, ba'zan qon oqishini to'xtatish uchun (qon tupurishda, bachadondan qon ketishida, bavoasil kasalligida) qo'llaniladi.

Dorivor ko'kat ildizpoyasi bilan ildizidan tayyorlangan qaynatmasi xalq tabobatida ich ketishini to'xtatuvchi (burishtiruvchi) va antiseptik vosita sifatida ishlatiladi, u qon ketishini to'xtatadi hamda og'riq qoldiradi. Bundan tashqari, u turli yaralarni davolashda ham ishlatiladi.

QULMOQ, ODDIY QULMOQ.
QULMOQ – XMEL OBIKNOVENNIY
– HUMULUS LUPULUS

O‘simlik tasviri. Tutdoshlar – Moraceae oilasiga mansub, bo‘yi 5-6 m gacha yetadigan, chirmashib (yoki osilib) o‘sovchi ikki uyli ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi to‘rt qirrali. Poyasining pastki qismidagi barglari panjasimon chuqur 3 yoki 5 bo‘lakli, asosi yuraksimon, yirik tishsimon qirrali bo‘lib, poyasida uzun bandi yordamida qarama-qarshi o‘rnashgan. Barglari poyasining yuqorisiga ko‘tarilgan sari kichrayib boradi. Mayda, bir jinsli, sarg‘ish yashil rangli gullari ruvak gulto‘plamiga (onalik gullari) yoki barg qo‘ltig‘idan o‘sib chiqqan boshqoq gulto‘plamiga (oraliq gullari) joylashgan. O‘simlik gullab bo‘lgandan so‘ng boshqoqchadagi o‘rama barglari tez o‘sib, qubba deb nomlanuvchi to‘pmevani hosil qiladi.

Mevasi – yong‘oqcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi. O‘simlik zaharli!

Geografik tarqalishi. Sobiq Sho‘ro davlatlarining Yevropa qismi, Qrim, Kavkaz, G‘arbiy Sibir, Oltoy va O‘rta Osiyodagi keng yaproqli o‘rmonlarda, bo‘tazorlarda va ariq bo‘ylarida o‘sadi. Ukraina, Belorussiya va Boltiqbo‘yi respublikalarida o‘stiriladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Qubba to‘pmeva va undan elab olinadigan sariq rangli poroshok holdagi bezlari – lupulin. O‘simlik qubbalari to‘liq pishib yetilmasdan oldin (avgust-sentabr oylarida) qo‘l



QULMOQ

bilan terib olinadi va soya yerda yupqa qilib yoyib quritiladi. Qurigan qubbalarini elab lupulin olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Qubbalari tarkibida 2 % gacha efir moyi, xumulin alkaloidi, valerian va boshqa kislotalar, smolalar, achchiq va boshqa moddalar bor.

Qubbalar qaynatmasi va ularni elab olingan poroshogi – lupulin siydik haydovchi, tinchlantiruvchi, yallig‘lanishga qarshi ta’sir etuvchi va og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida hamda me‘da shilliq qavatlarining yallig‘lanishi – gastrit va boshqa kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. Qubbalari tinchlantiruvchi choylar - yig‘malar tarkibiga kiradi.

Qubbalardan tayyorlangan damlama xalq tabobatida siydik yo‘llari kasalliklarini (sistit va uretritlar), gastrit (me‘da yallig‘lanishi) va boshqa kasalliklarni davolashda, gijjalarni tushirish hamda sochni mustahkamlash uchun (soch to‘kilishiga qarshi) uchun ishlatiladi.

KUNGABOQAR
KUNGABOQAR – PODSOLNECHNIK
ODNOLETNIY
– HELIANTHUS ANNUUS

O‘simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo‘yi 1,2-2,5 m bo‘ladigan bir yilli o‘t-o‘simlik. Poyasi tik o‘sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan va dag‘al tuklar bilan qoplangan. Poyasining pastki qismidagi barglari yuraksimon, yuqoridagilari tuxumsimon, hammasi yirik va notekis tishsimon qirrali bo‘lib, uzun bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Sariq rangli gullari poyasi bilan shoxlari uchiga joylashgan yirik savatchalarga to‘plangan. Mevasi – turli rangdagi pista.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Vatani Amerika. Sobiq Sho'ro davlatlarida Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Voronej va Kursk viloyatlarida, Ukraina, Moldaviya, Qozog'iston va O'zbekiston respublikalarida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Bargi, savatcha chetiga joylashgan sariq rangli tilsimon gullari, mevasi va undan olinadigan moyi. O'simlik gullaganda barg plastinkasi (bargi bandsiz holda) va tilsimon gullari yig'iladi, soya yerda quritiladi. Mevasi to'liq



KUNGABOQAR

pishganda savatchalar qirqib olinadi, xirmonda quritib, yanchib mevalari ajratiladi. Mevasidan zavodlarda moy olinadi.


Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Urug'i tarkibida 38 % gacha moy, xlorogen, limon va vino kislotalari, karotinoidlar, fitin, 26,55 % uglevodlar, 13,5-19,1 % oqsil, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Kungaboqarning bargi va tilsimon gullari tarkibida solant kislota, arnidiol va faradiol triterpen diollar, flavonoidlar (kversimeritrin va sianidin glikozidi), saponinlar va boshqa moddalar bo'ladi.

Kungaboqar moyi uchuvchan surtma, mingdevona moyi bilan malhamlar, ba'zan dorivor moddalarni eritish hamda yashil (kaliy) sovun tayyorlash uchun qo'llaniladi. Kungaboqar moyi "Livian" preparati tarkibiga kiradi. Ba'zan bargi va gulidan tayyorlangan nastoyka ishtaha ochish uchun ishlatiladi.

Kungaboqarning bargi bilan gulidan tayyorlangan nastoyka xalq tabobatida bezgak kasalligini davolashda, ishtaha ochish va ovqat hazmini yaxshilash uchun ishlatiladi. Bargining damlamasi bilan isitma, gulidan tayyorlangan qaynatma bilan bezgak, isitma, ich ketishi, bod, sariq va yurak kasalliklari davolanadi. Gullarining qaynatmasi yana siydik haydovchi vosita sifatida ham qo'llaniladi.

**KUNGURALI KALANXOY VA
PATSIMON KALANXOY
KUNGURALI KALANXOY – KALANXOE PERISTOE
– KALANCHOE PINNATA**

O'simlik tasviri. Kalanxoy turlari semizakdoshlar – Crassulaceae oilasiga mansub, bo'yi 180 sm gacha yetadigan ko'p yillik doim yashil o't-o'simlik yoki yarimbo'ta. Poyasining pastki qismi biroz yog'ochlangan. Bargi qalin, etli, ellipssimon yoki 2 - 5 bo'lakli toq patli, qirrasida kungurali bo'lib, bandi yordamida qarama-qarshi o'rnashgan. Sariq yoki yashilnamo, oq-pushti rangli, to'rt bo'lakli, qaychisimon gullari ruvaksimon gulto'plamiga joylashgan. Mevasi – ko'sakcha.



Geografik tarqalishi. Vatani tropik Afrika. Sobiq Sho'ro davlatlarida gulxonalarda va xonalarda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda kalanxoy turlarining yangi yig'ilgan yer ustki qismi va undan olingan shirasi ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Kalanxoye tarkibida flavonoidlar,

35-40 % gacha polisaxaridlar, organik (olma, sirka, limon, oksalat va boshqa) kislotalar, vitamin C, oshlovchi va boshqa birikmalar bor.

Quritilmagan yer ustki qismi shirasi kuygan joylarni, yaralar, jarohatlar, oqma yaralar (ayniqsa, suyaklarning oqma yarasi)ni davolash uchun qo'llaniladi.

Kalanxoy turlari bizning sharoitda xonalarda o'stiriladi. Uning preparatlari: shirasi va surtmalarini dorixonadan olib foydalanish mumkin.

QUSHTORON
(QIZILTASMA, CHUMCHUQ TILI)
QUSHTORON – GORES PTICHIY
– POLYGONUM AVICULARE

O'simlik tasviri. Qushtoron (qiziltasma) bir yillik, 10-60 sm balandlikdagi o't-o'simlik. Poyasi bo'g'inli, shoxlangan. Barglari cho'ziq lansetsimon, to'mtoq uchli, tekis qirrali bo'lib, poya va shoxlarida bandi yordamida ketma-ket joylashgan. Mayda, pushti rangli gullari 1-5 tadan barg qo'ltig'iga o'rnashgan. Mevasi – uch qirrali, qora rangli yaproqcha.

May-oktyabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida flavonoidlar (avikulyarin, kversitrin, giperozid va boshqalar) efir moyi, vitamin K va C (120-887 mg%), karotin saponinlar, kumarinlar, 2, 65 % qand, shilliq, 3-4% oshlovchi va boshqa moddalar bor.



Yer ostki qismidan tayyorlangan dori preparat akusherlik-ginekologiya amaliyotida tuqqandan va abortdan so'nggi qon oqishini to'xtatuvchi hamda bo'yрак va bo'yрак-tosh kasalligida siydik haydovchi dori sifatida qo'llanadi.

O'simlik damlamasi xalq tabobatida ich ketishi me'da-ichak yarasi, bezgak, bo'yрак, jigar, o'pka sil kasalliklarini davolash uchun hamda siydik va gijja haydovchi, qon oqishini (tuqqandan va abortdan so'nggi to'xtatuvchi, organizm tonusini ko'taruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Shu damlama bilan yaralar, chipqon va temiratki yuviladi yoki o'simlikni maydalab yara ustiga bog'lanadi. Bolalar tanasiga turli toshmalar toshganda qushtoron yer ustki qismi qaynatmasiga cho'miltiriladi.

O'rta Osiyo xalq tabobatida siydik haydovchi (bo'yрак-tosh va podagra kasalliklarida) vosita sifatida, zaxm, bod, asab kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

QO'YPECHAK QO'YPECHAK – VYUNOK POLEVOY – CONVULVULUS ARVENSIS

Qo'ypechak O'zbekistonning hamma hududlarida ekinlar orasida begona o't sifatida o'sadi.

Qo'ypechak ko'p yillik, bo'yi 40 – 100 sm ga yetadigan o't-o'simlik. Poyasi ingichka, sudralib va chirmashib o'suvchi, ko'p qirrali. Bargi nayzasimon bo'lib, poyada uzun bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Gullari oq yoki pushtirang, voronkasimon, barg qo'ltig'iga uzun bandi bilan joylashgan. Mevasi – keng tuxumsimon, ikki urug'li va ikki chanoqli ko'sak.

May-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyun-sentabrda pishadi.

Qo'ypechak gullaganida yer ustki qismi yig'iladi va soya yerda quritiladi. O'simlik quritilmasdan ham ishlatiladi.

O'simlik tarkibida flavonoidlar, kofe kislotasi, karotin, vitamin C, smolalar va alkaloidlar bor.

Abu Ali ibn Sino qo'ypechak o'simligini astma, o'pka, jigar, taloq, ko'krak og'rig'i kasalliklarini davolashda hamda o't haydovchi dori sifatida qo'llagan. Xalq tabobatida quritilmagan barg shirasi mol yog'i bilan aralashtirilib, o'pka va quloq kasalliklariga davo qilinadi.

O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma bilan yaralar, tananing ko'kargan yeri yuviladi. Bulardan tashqari qaynatmani temiratki va qo'tirga ham davo qilinadi. Barg poroshogi yaralar, jarohatlar ustiga sepiladi.

Qo'ypechak o'simligidan olingan smola va ekstrakt kuchli surgi ta'sirga ega bo'lganidan ularni ilmiy tibbiyotda surgu dori sifatida ishlatish tavsiya etilgan.



QO'YPECHAK

DORIVOR LIBISTOK
DORIVOR LIBISTOK – LYUBISTOK
LEKARSTVENNIY – LEVISTICUM OFFICINALE

Bu ko'p yillik dorivor o'simlik soyabongullilar oilasiga kiradi, uning bo'yi 2 m gacha yetadi. O'qildizlari va tomirlari katta go'shtli, ko'p boshli. Poyasi ko'p, tik turuvchi, dumaloq naysimon, ko'kimtir qarash bilan, tepasida shoxlagan bo'ladi. Barglari katta to'q ko'k tepasidan yaltiragan, ikki-uch marta

patsimon bo'lingan, uzun bandli. O'rtadagi barglari kichkinaroq, kalta bandli, tepadagilari o'tirgan, kengaygan qinli, yaxshi ochilmagan. Iyun-iyulda gullaydi. Gullari mayda, sariqroq, zangori, murakkab soyabonga to'plangan, shox oxirida joylashgan. Mevasi — sariqroq qo'ng'ir rangli ikki urug'li. Avgust-sentabrda pishadi. O'simlik o'ziga xos hidi bor karafs hidini eslatadi va achchiq sho'rtak mazasi bor.

Tomiri, o'ti, mevasi xomashyo bo'ladi. Tomirlar kuzda olinadi, sovuq suvda yuvib qismlarga bo'lib so'ltiladi va 20-25 °C da quritiladi. O'ti gullari bilan salqinda quritiladi. Xomashyo tomiri va mevasi berk shisha yoki yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi. Bargini 1 yil saqlash mumkin.

Libistokning kimyoviy tarkibi yaxshi o'rganilmagan. O'simlikning hamma qismida efir moyi bor. Tomirida furokumarinlar, lesitin, yelimlar va kamed topilgan.

Yurak va bo'yрак yetishmovchiligidagi shishlarda, siydik pufagining shamollash kasaligida bo'yрак og'rig'ida, bronxitda balg'am ko'chiruvchi sifatida iste'mol qilinadi. Uni uzoq iste'mol qilganda asab tizimini qo'zg'aluvchanligini tushiradi va kamqonlikni yo'qotish kuzatilgan. Xalq tabobatida barglari va poyasi gijja haydovchi hisoblanadi. Barglari bosh og'riganda boshga qo'yilsa bosh og'rig'i to'xtaydi. Terining yiringli kasalliklarida uzoq vaqt bitmayotgan yaralarda, teriga dog' tushganda obzan, malham qilishi yaxshi natija ko'rsatadi. Homilador ayoillar libistok va uning tomirlarini iste'mol qilmasliklari kerak, chunki u kichik tos a'zolarga qon to'playdi.



*DORIVOR
LIBISTOK*

LIMONO‘T, DORIVOR LIMONO‘T LIMONO‘T – MELISSA LEKARSTVENNAYA – MELISSA OFFICINALIS

O‘simlik tasviri. Limono‘t labguldoshlar (yasnotkadoshlar) – Labiatae (Lomiaceae) oilasiga mansub, bo‘yi 30-60 sm ga yetadigan, limon hidi kelib turadigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi tik o‘sadi, to‘rt qirrali, shoxlangan. Barglari tuxumsimon, o‘tkir uchli, yirik arrasimon qirrali bo‘lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida qarama-qarshi o‘rnashgan. Oq rangli, besh bo‘lakli, ikki labli gullari barg qo‘ltig‘idagi halqasimon gulto‘plamiga joylashgan. Mevasi – to‘rtta yong‘oqcha.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. O‘rta Osiyo, Qrim, Kavkazning tog‘li hududlarida, tog‘ etaklaridan o‘rta qismigacha bo‘lgan yerlardagi katta toshlar, daraxt va boshqalar soyasida, salqin va nam yerlarda, bog‘larda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Xalq tabobatida limono‘tning bargi va yer ustki qismi ishlatiladi. Barglari o‘simlik gullashidan oldin, yer ustki qismi gullagan vaqtida yig‘iladi va soya yerda quritiladi. Qurigan yer ustki qismi maydalanadi, g‘alvirda elab tozalanadi, yig‘ib poyalari tashlab yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 0,02-0,14 % efir moyi, 150 mg % vitamin C, kofe, oleanol, ursol va boshqa kislotalar,



flavonoidlar, 5 % gacha oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Limono't qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ishlatib kelingan. Ibn Sino uning yer ustki qismini yurak ishini va ovqat hazmini yaxshilash uchun qo'llagan.

Xalq orasida hozirgi kunda ham limono'tning yer ustki qismi (ba'zan bargining) damlamasi ovqat hazmini yaxshilash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, u kamqonlik, ba'zi asab va yurak kasalliklarini davolash uchun hamda tirishishga qarshi ta'sir etuvchi, og'riq qoldiruvchi, surgi, siydik va yel haydovchi vosita sifatida ham qo'llaniladi.

LOVIYA

LOVIYA – FASOL OBIKNOVENNAYA – PHASEOLUS VULGARIS

Botanik ta'rifi. Loviya – chirmashib o'sadigan bir yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi kalta-kalta tuklar bilan qoplangan yoki yalang'och, uchiga tomon juda ko'p shoxlab boradi. Barglari – navbatma-navbat joylashgan, uzun bandli, tuxumsimon shaklda. Gullari – kapalaknusxa bo'lib, oq, pushtiroq, sarg'ish, ko'kimtir-oq yoki binafsharang shingillar hosil qiladi. Mevasi – to'g'ri yoki sal bukilgan dukkak (qo'zoq). Uzunligi 16 – 18 sm gacha boradi. Urug'lari – har xil katta-kichiklikda va rangda, bo'yraksimon bo'ladi.

May oyidan to sentabrgacha gullaydi, mevalari avgust-sentabrda yetiladi.


Geografik tarqalishi. Bu o'simlik dukkakli ekin tariqasida Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida keng tarqalgan. O'rta Osiyoda ko'p ekiladi.

Ishlatiladigan organlari: gullari, qo'zoqlari.

Kimyoviy tarkibi. Loviya donida 22,3 foizgacha oqsil,

jumladan, alishtirib bo'lmaydigan aminokislotali oqsillar, talaygina miqdorda kraxmal, pektin, yog' bor. Loviya oqsilining tarkibida hayot uchun muhim bir qancha aminokislotalar: valin, leysin, lizin, fenilalanin va boshqalar bo'ladi. Bunday tashqari, loviyada bir, qancha makro- va mikroelementlar bor.

Loviya qo'zoqlarida B guruh vitaminlari bilan birga vitamin E, shuningdek, biotin, karotin ham anchagina bor.



LOVIYA

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida loviya qo'zoqlari yoki quritilgan gullaridan tayyorlangan damlamalarni siydik yo'llari, yurak qon tomir kasalliklari, qandli diabet, revmatizm va podagra kasalliklari davosiga ishlatiladi. Pilchirab turadigan yaralar, gush bo'lgan joylar, quyuq yaralar va yiringli yaralarga quritilgan loviya dukkaklarini yanchib, kukun qilib qo'yiladi. Qontalash bo'lgan joylar, chipqonlar, jarohatlarga loviya unidan malham qilib qo'yiladi. Yetilgan loviya dukkaklari, qo'zoqlari, poyalaridan tayyorlangan qaynatma nemis xalq tabobatida jigar kasalliklari, qandli diabetda yaxshi davo bo'ladi deb hisoblanadi. Loviya qo'zoqlari zig'ir urug'i va suli yormasi bilan qo'shib ishlatilsa, diabetda ko'proq naf beradi.

Qadimgi hakimlarning fikriga qaraganda, loviya peshobni ko'paytirib, mijozni kuchaytiradi, jinsiy maylni qo'zg'atadi.

Ibn Sino loviyani ko'krak og'rig'i va o'pka kasalliklarida foyda qiladi deb hisoblaydi. Bundan tashqari, loviya toshlarni eritib qonni tozalashi mumkin. Lekin loviyani ko'p iste'mol qilish uyquga xalal berib, odamning aloq-chaloq tushlar ko'rishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy tabobatda loviyadan parhezboq shifobaxsh masalliq tariqasida foydalaniladi. Loviya dukkaklaridan tayyorlangan suyuq va quruq ekstraktlarning qondagi qand miqdorini 30 foizgacha kamaytirishi tajribada aniqlangan. Loviyaning qondagi qandni kamaytirish xossasi borligi klinika sharoitida ham isbotlangan. Uning bunday ta'siri loviya qo'zoqlarida bo'ladigan argininga bog'liq deb hisoblanadi.

Tayyorlash va ishlatish usullari.

1. Quritib, yanchilgan loviya qo'zoqlaridan 2 oshqoshiq miqdorda olib, ustiga 300 ml suv qo'yiladi-da, 15 minut qaynatib, keyin damlab qo'yiladi, so'ngra suzib olib, ovqatdan 20 minut ilgari 1 oshqoshiqdan kuniga 4 – 5 mahal ichiladi.

2. 40 g miqdoridagi yanchilgan loviya dukkaklari ustiga 400 ml qaynoq suv qo'yiladi-da, idishining qopqog'ini berkitib, qaynab turgan suvda 40 – 60 minut qaynatiladi, keyin suzib olinib, ovqatdan ilgari 1 – 2 oshqoshiqdan kuniga 3 – 4 mahal ichiladi.

3. 20 g loviya gullari ustiga xuddi choy damlagandek qilib, 200 ml qaynoq suv qo'yiladi, damlab qo'yilgandan keyin suzib olinadi-da, o't va siydik-tosh kasalliklarida ovqatdan ilgari 0,5 stakandan kuniga 3 – 5 mahal ichiladi.

4. Loviya qo'zoqlarining suyuq ekstrakti 18 tomchidan kuniga 3 mahal ichiladi.

5. Quruq loviya ekstraktini 0,8 g dan kuniga 3 mahal ichish uchun buyuriladi.

LOTIN CHECHAGI


LOTIN CHECHAGI – NASTURSIYA BOLSHAYA ILI KAPUSIN – TROPAEOLUM MAJUS

Bu bir yillik o'tsimon o'simlik chechakdoshlar oilasiga kiradi. Poyasi sudraluvchan, shoxlagan. Guli qalqonsimon, qirg'oqlari butun. Iyul-avgustda gullaydi. Gullari to'q sariq. Yoki qizil, yakka. Uzun gulbandda joylashgan. Mevasi ko'sakcha, uch bo'lakka bo'linadigan, ularning har birida bittadan urug' bor. Sentabrda pishadi.

Gullayotgan shoxlari dorivor xomashyo. U gullaganda olinadi. Salqinda yoki quritgichda jildirib-jildirib quritiladi. Matoli qopda 1-2 yil saqlanadi.

Lotin chechagi vositasi uroseptik, balg'am ko'chiruvchi, yurak qon-tomirlarni kengaytiruvchi va yo'talga qarshi xususiyatlarga ega.

O'simlik sharbati siydik chiqarish yo'llari shamollashlarida, o'tkir va surunkali sistitda, nospesifik uretritda ishlatiladi. Shoxlarining qaynatmasi o'tkir va surunkali bronxitda, pnevmoniyada, bronxial astmada va o'pkani efizemasida qo'llaniladi. Sharbati va qaynatmasi tomirlarni kengaytiruvchi va yurak mushaklarida qon aylanishini yaxshilovchi vosita sifatida yurak ishemik kasalligida ishlatilsa, yaxshi foyda beradi. Lotin chechagi vositasini antibiotik bilan davolash o'rtasida iste'mol qilish maslahat beriladi. Gazanda bargi va g'ozpanjaning o'qildizi bilan chechak bargi soch to'kilganda ishlatiladi, chunki uning sharbati soch piyozi faoliyatini kuchaytiradi.



LOTIN CHECHAGI

MAVRAK
MAVRAK – SHALFEY LEKARSTVENNIY
– SALVIA OFFICINALIS

Botanik ta’rifi. Mavrak yoki xuttan – bo’yi 100 sm gacha boradigan ko’p yillik o’tsimon o’simlik. Ildizi – kam tarmoqlanadigan o’qildiz. Poyalari – to’rt qirrali, qizg’ish-binafsharang tusda, ustki qismi bez tukchalari bilan qoplangan. Barglari qarama-qarshi joylashgan, tuxumsimon shaklda, chetlari tishli, bandlari bor. Poyasining uchiga tomon barglari kichrayib, bandi kalta tortib boradi. Gullari pushti yoki oq rangda bo’lib, to’pgullar hosil qiladi, bezchalaridan o’ziga xos shilimshiq chiqadigan bo’lgani uchun yopishqoq bo’ladi. Mevasi – qo’ng’ir-jigarrang tusda, silliq, dumaloq bo’ladigan to’rt qo’shaloq yong’oqcha.

Iyun – avgustda gullaydi, mevalari avgust – sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Bu o’simlik O’rta Osiyoda tog’lardagi bo’tazorlar orasida, daralar, vohalar va qirlarda, aksari toshloq yerlarda o’sadi. Kavkaz, Qrim, Ukrainaning janubida ham uchraydi.

Ishlatiladigan organlari: o’ti, barglari to’pguli. To’pgulidan efir moyi olinadi.

Kimyoviy tarkibi. Mavrak to’pgullarida 0,58 foizgacha efir moyi, o’tida kumarinlar, flavonoidlar, biroz miqdorda efir moyi, saponinlar, sklareol va boshqa moddalar bor.

Ta’siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida mavrak o’ting gullari va barglaridan tayyorlangan damlamani bronxitlar, pielit, sistit, gepatit, enterit, gastroenterit, me’da yara kasalligi davosiga ishlatiladi, stomatitlar, anginalarda og’iz, tomoqni chayish uchun, teri kasalliklari va quyuc yaralar davosiga sirtga ishlatish uchun buyuriladi. Mavrak gullaridan

tayyorlangan qaynatmalardan yurak o'ynog'i va quvvatsizlikka davo qilish uchun foydalaniladi, mevalarini qovurib, qon aralash ichi ketayotgan bolalarga beriladi, yanchib, kukun holiga keltirilgan mevalarini moyga aralashtirib, yara va jarohatlarga ularning tezroq bitishi uchun surtiladi. Mavrak o'ti xushbo'y, ishtahani ochadigan vosita tariqasida, shuningdek, bo'yрак kasalliklari va isitma mahalida, jinsiy quvvat pasaygan vaqtlarda ham buyuriladi.

MAVRAK



Zamonaviy tabobatda mavrakdan tayyorlangan galen preparatlar og'iz bo'shlig'i, burun-halqum va yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida, bronxitlar, bronxial astma, gepatitlar, xolesistitlar, me'da va o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligi, sistitlar, pielitlarda ishlatiladi, yiringlagan jarohatlar, quyuq yaralar va boshqa teri kasalliklari davosiga buyuriladi. Mavrak terlashni kamaytiradi, shuning uchun odam hadeb terlayveradigan mahallarda, klimakterik davrda qo'llaniladi.

Bu o'simlikning dori mavrak deb ataladigan turi burishtiradigan, qon to'xtatadigan va yallig'lanishlarga qarshi ta'sir qiladigan vosita tariqasida, shuningdek, gipyertoniya kasalligi, titroq falaj mahalida, markaziy nerv sistemasini tinchlantiradigan dori sifatida ham ishlatiladi.

Tayyorlash va ishlatish usullari.

1. Mavrak barglaridan 10 g (2 oshqoshiq) miqdorida olib, sirlangan idishga solinadi-da, ustiga 200 ml qaynab turgan suv quyilib, idishi bilan qaynab turgan suvga 15 minut solib qo'yiladi, keyin undan olib, uy haroratida kamida 15 minut sovutiladi, yaxshilab suzib olib, bu damlama ustiga

hajmi 200 ml ga kelguncha qaynagan suv quyiladi. Uni og'iz va tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

2. 10 g dan mavrak barglari, arpabodiyon urug'i va qarag'ay kurtaklari, 20 g dan altay ildizi bilan chuchukmiya ildizini olib, ustiga qaynab turgan 1 stakan suv qo'yiladi-da, 30 – 40 minut damlab qo'yiladi, keyin suzib olinadi va bronxoektaktik kasallikda bu damlamani kun bo'yi uch qismga bo'lib ichiladi.

3. To'g'ralgan mavrak o'ti va barglaridan 2 choyqoshiq miqdorida olib, ustiga qaynab turgan 2 stakan suv solinadi-da, biroz damlab qo'yib, suzib olinadi. Bu damlamani iliq holida har 2 – 3 soatda 1 oshqoshiqdan ichiladi. Uni og'izni chayish uchun ishlatsa ham bo'ladi.

MAY NA'MATAGI MAY NA'MATAGI – SHIPOVNIK MAYSKIY – ROSA MAJALIS

O'rta Osiyoda o'sadigan na'matak turlaridan quyidagi to'rt turi tibbiyotda ishlatiladi: Begger na'matagi (oq kargul) – shipovnik Beggera – Rosa beggeriapa Schrenk, Itbutun na'matak (itburun) – Shipovnik sobachiy – Rosa canina L., Fedchenko na'matagi (xargul) – Shipovnik Fedchenko – Rosa fedtshenkoana Rgl va Qo'qon na'matagi – Shipovnik kokandskiy – Rosa kokanica Rgi, ex luz.

O'simlik tasviri. Na'matak turlari ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga mansub, bo'yi 1,5-3 m, ba'zan 6 m ga yetadigan tikanli bo'ta. Novdalari egiluvchan bo'lib, yaltiroq, qo'ng'ir-qizil yoki qizil-jigarrang po'stloq bilan qoplangan. Barglari toq patli murakkab, 5-7 ta tuxumsimon, arrasimon qirrali bargchalardan tashkil topgan bo'lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Yirik qizil,


pushti, sariq yoki oq rangli, xushbo'y, besh bo'lakli gullari 2-3 tadan shoxchalariga joylashgan. Shakli va rangi turlicha, shirali, gul o'rindan hosil bo'lgan soxta mevaga ega.

Aprel-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul – oktabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Na'matak turlari O'rta Osiyoning hamma respublikalaridagi o'rmonlarda, tekisliklarda, tog'-cho'l tumanlarida, to'qaylarda, tog'larning pastki (tog' etaklari), o'rta va yuqori qismlarigacha bo'lgan ariq bo'ylarida, bo'talar orasida, tog'larning quruq toshloq yonbag'irlarida, yong'oq va archazorlarda, bog'larda va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Soxta mevasi. O'simlik mevasi avgust oyining oxirlaridan boshlab to kech kuzgacha yig'iladi. Sovuq urgan mevalarida vitamin C miqdori kamayib ketadi. Mevasini yig'ayotgan vaqtda qo'lga tikan kirmasligi uchun brezent qo'lqop kiyib olish lozim. Terilgan mevalar tezda ochiq havoda – quyoshda yoki 80-90°C li pechlarda quritiladi. Ba'zan na'matak mevasi quritilmasdan dorivor preparatlar olish uchun to'g'ridan-to'g'ri farmasevtika zavodlariga yuboriladi. Qurigan mevalarini ishqalab, kosachabarg qoldiqlari tushirib yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida 4-6 %, ba'zan 15 % gacha vitamin C, vitamin B₂, P, E va K, 12-27 mg % karotin, 29 % gacha organik (limon, olma va boshqa) kislotalar, 18 % gacha qandlar, 3,7 % gacha pektin, 4,5 % gacha oshlovchi moddalar, urug'ida moy va boshqa birikmalar bor.



MAY NA'MATAGI

Na'matak turlarining mevasi turli vitaminlar saqlovchi polivitaminli mevalarga kiradi. Yuqori vitaminli turlari (Begger na'mataklari va Fedchenko na'matagi) avitaminoz kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Urug'idan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayyorlangan moyli ekstrakti – karatolin kuyganni, trofik yaralarni, ekzema, teri kasalliklarini, rentgen nuridan kuygan joylarni, yarali kolit va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Na'matak turlarining ba'zilaridan vitaminli konsentratlar, sharbat tayyorlanadi, vitamin C (askorbin kislota) olinadi, quruq mevasidan tabletka va hapdori tayyorlanadi. Bu dorilar avitaminoz kasalliklarini davolashda va uning oldini olishda ishlatiladi. Askorbin kislota ko'pgina kompleks preparatlar tarkibiga kiradi.

Vitamin C kamroq bo'ladigan na'matak turlaridan – itburun na'matagi (mevasi tarkibida 0,2-2,2 % gacha vitamin C bo'ladi, xolos) mevasida tayyorlanadigan holosas preparati jigar kasalliklarini (xolesistit, gepatit – sariq kasalliri va boshqalarni) davolash uchun ishlatiladi. Na'matak turlarining mevasidan tayyorlangan damlama va qaynatmalar xalq tabobatida me'da-ichak kasalliklarini (ich qotish, qon aralash ich ketish, ichakning yuqumli kasalliklarini) davolash uchun hamda bachadondan qon oqishini to'xtatuvchi, isitma qoldiruvchi, o't va siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Bu dori turlari bilan og'iz bo'shlig'i kasalliklari (milk yallig'lanishi va undan qon oqishi)da og'iz chayiladi.

Na'matak mevasi yana organizmni quvvatlantirish, modda almashinuvini yaxshilash, soxta mevalari ichidagi haqiqiy mevalari – yong'oqchalari bo'yрак va siydik yo'llari kasalliklarida siydik haydash uchun ishlatiladi.

O'simlik ildizidan tayyorlangan damlama va qaynatma xalq orasida me'da va jigar kasalliklarida, kukuni esa yaralarda davo qilinadi.

Na'matak turlari mevasidan oziq-ovqat sanoatida vitamanga boy konsentratlar, konfetlar va boshqa qandolat mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi.

MAYMUNJON. ODDIY MAYMUNJON
MAYMUNJON – OBIKNOVENNAYA
– RUBUS IDAEUS

O'simlik tasviri. Ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik. Birinchi yilgi poyalari yashil rangli, yog'ochlanmagan, mayda tikanli bo'lib, gul chiqaradi va meva qilmaydi. Bu poyasi qishga borib yog'ochlanadi, tikanlari to'kiladi. Ikkinchi yili gul chiqaradi va mevasi pishgandan so'ng qurib qoladi. Poyalari – ikki yillik. Barglari toq patli, 5-7 ta (poyasining yuqori qismi dorilari) uch plastinkali murakkab, barg bo'lakchalari tuxumsimon, pastki tomoni tukli, notekis arrasimon qirrali bo'lib, uzun bandi yordamida poyasiga ketma-ket o'rnashgan. Mayda, ko'rimsiz, yashil oq rangli gullari qalqonsimon ruvakka to'plangan. Mevasi – qizil rangli, shar yoki konussimon, danakli, murakkab to'pmeva. May oyida gullaydi, mevasi iyunda pishadi.

Geografik tarqalishi. Kavkaz, O'rta Osiyo va Sibir o'rmonlarida, o'rmon



MAYMUNJON

chetlarida, jarlarda, tog'larda, ariq bo'ylarida, bo'talar orasida va boshqa nam yerlarda o'sadi. Bog'larda ko'p miqdorda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi, uni to'liq pishgan vaqtida qo'lda ehtiyotlik bilan terib olinadi, quyoshda so'litib, so'ngra quruq va issiq joyda yoki quritgichlarda quritiladi. Mevasi ko'pincha quritmasdan ham ishlatiladi. Ho'l mevasidan sharbat va meva shirasi tayyorlanadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Meva tarkibida organik (2,2 % gacha olma, limon, salitsil, vino va boshqa) kislotalar, 10% gacha qand, kaliy tuzlari, 45 mg 9% gacha vitamin C, B va P, karotin, shilliq, pektin, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Dori preparatlari – meva damlamasi, sharbati va mevasi terlatuvchi choylar-yig'malar tarkibida turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Meva sharbatidan farmasevtikada yana suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Qurilmagan va quritilgan meva damlamasi xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ovqat hazmini yaxshilovchi, terlatuvchi, o'pka va nafas yo'llari shamollaganda balg'am ko'chiruvchi, isitma ko'tarilganda haroratni pasaytiruvchi hamda me'da-ichak, bachadondan qon ketganda va boshqa qon oqishlarda qon to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Malina bargidan tayyorlangan damlama va qaynatma ich ketish va ichdan qon oqishlarni davolash, yo'tal va anginada tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

MAKKAJO'XORI


MAKKAJO'XORI – KUKURUZA OBIKNOVENNAYA – ZEA MAYS

O'simlik tasviri. G'alladoshlar – Gromineae oilasiga mansub, bo'yi 1-3 m ga yetadigan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, bo'g'inli, shoxlanmagan, silindrsimon. Barglari keng nishtarsimon yoki chiziqsimon, tekis qirrali bo'lib, qini yordamida poyasida ketma-ket o'rnashgan. Gullari bir jinsli, mayda, ko'rimsiz bo'lib, poyasining yuqori qismidagi ruvakka (otalik gullari) yoki barg qo'ltig'idagi so'taga (onalik gullari) to'plangan. Mevasi – doncha. Avgust-sentabr oylarida gullaydi, mevasi sentabr-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Vatani – Meksika va Gvatemala. Don va em-xashak sifatida butun dunyoda keng miqyosda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Onalik gulining ustunchasi va tumshuqchasi (makkajo'xori "soqoli"), mevasi – doni hamda meva kurtagidan olinadigan moyi. Makkajo'xori mevasi (sutadagi donlari) dumbul bo'lgan vaqtida oraliq gulining ustunchasi yig'ib olinadi va salqin yerda quritiladi. Mevasi – doni butunlay pishganda so'talar qayirib (yoki mashinalar yordamida) yig'ib olinadi, xirmonda quritiladi va yanchiladi. Donidan kraxmal va yog' olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Onalik guli ustunchasi va tumshuqchasi tarkibida 2,5 % gacha yog', 0,12% efir moyi, 3,18 % gacha saponinlar, flavonoidlar, organik kislotalar, 1,5% gacha achchiq



MAKKAJO'XORI

glikozidlar, ko'p miqdorda vitamin C va K, karotin, pantoten kislota, inozit, fitosterinlar va boshqa moddalar, mevasida 61,2 % gacha kraxmal, 4,75 % (meva kurtagida 50%) gacha yog', B₁, B₂, B₆, PP va C vitaminlari, nikotin va pantoten kislotalar, biotin, karotin, flavonoidlar va boshqa birikmalar bor.

Dori preparatlari (damlamasi, suyuq ekstrakti hamda o't va siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi yig'malar – choylar tarkibida) jigar, o't pufagi va o't yo'llari kasalliklarida (xolesistit, xolangit, gepatitda) o't va siydik haydovchi (bo'yрак-tosh va istisqo kasalliklarida hamda qovuqda toq bo'lganda) hamda qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Mevasidan olingan moyi ateroskleroz kasalligini davolash va oldini olish uchun kraxmal o'rab oluvchi (qaynatma holida ichiladi yoki klizma (xuqna) qilinadi) dori sifatida ishlatiladi. Kraxmal yana ba'zi surtmalar, chaqaloqlarga sepiladigan vositalar tarkibiga kiradi.

Makkajo'xori oraliq guli ustunchasining damlamasi xalq tabobatida bo'yрак, qovuq va siydik yo'llarida tosh bo'lganda va boshqa kasalliklarda siydik haydovchi, o't pufagi, o't yo'llari, sariq va jigarning boshqa kasalliklarida o't haydovchi dori o'rnida, turli xil qon oqishlarda qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Makkajo'xori mevasi hamda undan olingan uni, kraxmali va moyi oziq-ovqat sanoatida, kraxmali to'qimachilik sanoatida va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida, o'simlikning hamma qismi esa qishloq xo'jaligida hayvonlarga ozuqa sifatida keng ishlatiladi.

ODDIY MANJETKA
ODDIY MANJETKA – MANJETKA
OBIKNOVENNAYA
– ALCHEMILLA VULGARIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik ra'noguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 30 sm gacha bo'ladi. O'qildizi yo'g'on, poyasi tik turuvchi yoki ozgina egilgan, pastga qaragan. Tomirga yaqin barglar bo'yraksimon, uzunbandli, poyadagilar o'tirgan, uzuniga bukilgan, besh yoki olti parraksimon, poyani manjetkaga o'xshab o'rashgan, chekkalari arrali. Har bir barg voronka kabi o'ralgan. Mayiyunda gullaydi. Gullari mayda, ko'kroq-sariq, to'g'ri shaklda popuksimon gulto'piga to'plangan. Mevasi – ko'kimtir urug'. Iyul-sentabrda pishadi.

Barglar va yosh poyasini ovqatga ishlatsa bo'ladi. Barglarini boshqa sabzavotlar bilan tuzlasa bo'ladi. Yerdan tepa qismi dorivor bo'ladi, o'ti gullagan paytda issiq havoda teriladi. Salqinda yoki quritqichda 45-60°C quritiladi. Yog'ochli yoki shishali idishda 1 yil saqlanadi.

Xomashyoda steroidlar, vitamin C, fenolkarbonli kislotalar, lignin, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, palmitinli, sterainli va boshqa aniqlanmagan yog' kislotalar, kumarinlar, leykoantiatsidlar topilgan.

Manjetka vositalari burishtiruvchi, yallig'lanishga qarshi, antiseptik, tinchlantiruvchi, qon to'xtatuvchi, siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi,



ODDIY MANJETKA

yara bitkazuvchi xususiyatlarga ega. U oshqozon faoliyatini va emizikli onalar sut ishlab chiqarishini yaxshilaydi.

Ich ketganda, ichburug'da, o'pka, ingichka ichak, bo'yрак va siydik pufagi shamollashida, ichak harakati susayganda, oshqozon yarasida, oshqozon-ichak xurujida, nafas yo'llari xastaliklarida, bronxit, o'pka silida, yurak og'riganda, hayz ko'p kelganda, qon ketganda, anemiyada, aterosklerozda, revmatizmida iste'mol qilinadi. Manjetka damlamasida burun shamollaganda, qon ketganda yuviladi.

MARJONO'T

MARJONO'T – BUZINA TRAVYANISTAYA – SAMBUCUS EBULUS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik shilvisimonlar oilasiga kiradi va bo'yiga 2 m bo'ladi. Novdasi shoxlangan, yo'lchalari bilan, yumshoq yog'ochsimon. Barglari toq joylashgan.



MARJONO'T

Gullari oq pushti, soyabon gulto'pini hosil qiladi. Iyun-iyulda gullaydi. Mevasi to'q siyohrang, dumaloq mayda reza meva, uchta danagi bor va yomon hid chiqaradi.

O'simlikning hamma qismi dorivordir. Gullarini gullash davrida hammasi ochilganda yig'ib olinadi. Salqin joyda quritiladi. Uni quyoshda quritib bo'lmaydi. Gulbandini ajratish uchun, xomashyo qurigandan keyin maydalanadi. O'tini yozning birinchi yarmida quruq issiq ob-havoda tayyorlanadi. To'plangan kuni salqin joyda 2 sm

qalinlikda quritiladi. Reza mevasi to'liq pishganda teriladi. Quritgichda 30-35°C da quritiladi.

Mevasini tarkibida efir moyi, bo'yovchi va oshlovchi moddalar hamda achchiq topilgan, gulida esa, shakar, efir moyi, amigdalin bor.

Marjonning dorivor vositalari siydik haydovchi, antiseptik, balg'am ko'chiruvchi, terlatish va ich keltirish xususiyatiga ega.

Yo'talda, nafas yo'llari yallig'lanishida, nevralgia va ich keltiruvchi vosita sifatida ichiladi. Torvoqda, podagrada, yo'g'on ichak yallig'lanishida tashdan qo'llaniladi.

MARJONDARAXT, QORA MARJONDARAXT MARJONDARAXT – BUZINA CHERNAYA – SAMBUCUS NIGRA

O'simlik tasviri. Uchqatdoshlar – Caprifoliaceae oilasiga mansub, bo'yi 2-6 m ga yetadigan bo'ta yoki daraxt. Yosh novdalari yashil, qolganlari qo'ng'ir-kulrang po'stlog'i bilan qoplangan. Bargi 3-7 bargchali, toq patli murakkab bo'lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket joylashgan. Bargchalari kalta bandli, cho'ziq-tuxumsimon, o'tkir uchli, notekis arrasimon qirrali. Sariq-oq, gullari qalqonsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi – qora binafsha rangli, sersuv, 3-6 danakli ho'l meva. May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyul-oktyabrda pishadi.



MARJONDARAXT

Geografik tarqalishi. Rossiya, Kavkaz, Ukraina va Belorussiyadagi keng yaproqli o'tloqlarda va bo'talar orasida o'sadi. Istirohat bog'lari, xiyobonlar va ko'chalarda manzarali daraxt sifatida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Guli va mevasi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Guli tarkibida 0,32 % efir moyi, sambusinigrin glikozidi, rutin, 82 mg % vitamin C, xolin, organik (xlorogen, valerianat, olma, sirka kislotalar va boshqa moddalar bor. Mevasi tarkibida 50 mg % gacha vitamin C, karotin, antotsianlar, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Gulining damlamasi (ba'zi meva damlamasi) shamollashda terlatuvchi, jigar, o't pufagi va o't yo'llari kasalliklarida o't haydovchi hamda bo'yрак va siydik pufagi kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Marjondaraxt damlamasi yana nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida, bronxit, laringit, gripp, nevrалgiya va boshqa shamollash kasalliklarida ishlatiladi. Guli terlatuvchi, surgі hamda tomoq og'rig'ida chayish uchun qo'llaniladigan yig'malar – choylar tarkibiga kiradi. Mevasidan surgі ekstrakti tayyorlanadi.

DORIVOR MEDONISA
DORIVOR MEDONISA – MEDUNISA
LEKARSTVENNAYA – PULMONARIA OFFICINALIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik lavlagidoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 30 sm bo'ladi, poyasi tik turadi, g'adirbudir, tukli, mayda o'tirgan tukli barglari bilan. Ildizdan mevasiz poyalar chiqadi, ular keyingi yil rivojlanishadi. Tomiroldi barglar yurak, tuxumsimon. Uzun bandli. May-aprelda gullaydi. Gullari poyaning oxirida joylashgan guldasta

hosil qilishadi. Ochilguncha ular pushti, keyin ko'kimsir-siyohrang. Mevasi — to'rtta yong'oq. May-iyunda pishadi. Barglaridan salat va ovqat qilinadi.


Yerdan tepa qismi, ayrim hollarda ildizi dorivor xomashyo bo'ladi. O'ti gullari ochilmasdan to'planadi. Butun o'simlik kesiladi va salqinda yupqa qilib yoyib quritiladi. Yog'ochli idishda 1 yil saqlanadi.

O'tda marganes, temir, kaliy, kremniy, yod, oshlovchi va shilimshiq moddalar, rutin, karotin, askorbin kislotasi, alkaloidlarning izi topilgan.

Medonisa vositasi — qon to'xtatuvchi, o'rovchi, burishtiruvchi.

Yallig'lanishga qarshi, siydik haydovchi, yara bitkazuvchi xususiyatlarga ega. U ichki bezlarni va qon ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Nafas yo'llari, o'pka, kasalliklarida, o'pka silida iste'mol qilinadi, chunki uning tarkibidagi kremniy immunitetni me'yorlashtiradi va organizmni himoya kuchlarini kuchaytiradi. Tabobatda siydik haydash xususiyati ayniqsa organizmga kaliy yetishmaganda foydali. Dori vositalari bilan ich ketish, oshqozon-ichak yoli, bo'yрак, siydik pufagi shamollashini davolash mumkin. Siydik toshi kasalligida ham ishlatiladi. Tolqoni qon ketayotgan yaraga sepiladi. Ichki burundan qon ketganda, bavo-silda qon miqdorini va sifatini tiklash uchun tibbiyotda qo'llaniladi. Yozda va bahorda bu maqsadda yangi barglarini ishlatish mumkin.



DORIVOR MEDONISA

MOYCHECHAK
MOYCHECHAK – ROMASHKA APTECHNAYA
– CHAMOMILLA RECUTITA, MATRICARIA
RECUTITA

O'simlik tasviri. Moychechak turlari astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteratseace (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 15-40 sm keladigan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, sershox. Barglari ingichka chiziqsimon, o'tkir uchli segmentlarga ikki marta patsimon ajralgan bo'lib, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Gullari uzun bandli (yashil moychechakniki kalta bandli), poyasi bilan shoxlari uchidagi savatchaga joylashgan. Savatchaning tilsimon gullari oq rangli (yashil moychechakda tilsimon gullar bo'lmaydi), qaychasimon gullari sariq yoki yashil rangli. Mevasi – pista. May oyidan boshlab kuzgacha gullaydi va mevasi yetiladi. Tibbiyotda uning ikki turi ishlatiladi: Dorivor moychechak – romashka aptechnaya – *M. recutita* L. Yashil (Xushbo'y) moychechak – romashka dushistaya – *M. matricarioides* Porter.

Geografik tarqalishi. Moychechak MDH davlatlari Yevropa qismining janubi, Kavkaz, Qrim, Ukraina va Sibirning janubiy hududlaridagi o'tloqlarda, O'zbekiston, Qirg'izistonda begona o't sifatida ekinzorlarda, yo'l yoqalarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda moychechak turlarining guli ishlatiladi. Ular o'simlik qiyg'os gullaganda, savatchadagi tilsimon gullar gorizontol holatda bo'lganda yig'ib olinadi va soya yerda yoki quritgichlarda 40°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Moychechak turlarining guli tarkibida 0,12-0,8 % efir moyi, flavok glikozidlar (apiin,

kversimeritrin va boshqalar, matrikarin, prodamvaulen, kumarinlar (umbelliferon, gerniarin), karotin, vitamin C, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Efir moyi 1,64-8,99% xamazulen, 20% gacha seskviterpen spirtlar, kadenin va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Gulining damlamasi me'da-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganida) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda ter va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Moychechak guli yana ichni yumshatuvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi (og'iz, tomoq, chayishda hamda shifobaxsh vanna va xuqna qilishda) dori sifatida ishlatiladi. Moychechak guli me'da kasalliklarida, tomoq chayishda ishlatiladigan va ich yumshatuvchi yig'malar – choylar tarkibiga kiradi.



MOYCHECHAK

MOMAQAYMOQ, QOQI, DORIVOR QOQI (GULQOQI)

**MOMAQAYMOQ – ODUVANCHIK
LEKARSTVENNIY
– TARAXACUM OFFICINALE**

O'simlik tasviri. Astradoshlar – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 15 – 60 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Barglarining hammasi illizoldi to'pbargdan tashkil topgan qisqa bandli, nishtarsimon yoki cho'ziq nishtarsimon, patsimon kesik qirrali bo'ladi. Gul o'qi silindrsimon, ichi kovak, bo'yi 15-30 sm bo'lib, uning uchiga



MOMAQAAYMOQ

tilla sariq rangli tilsimon gullardan tashkil topgan savatcha gulto'plami joylashgan. Mevasi — uchmali pista.

Aprel-may oylaridan boshlab, to sovuq tushguncha gullaydi va mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Qoqi keng tarqalgan bo'lib, Arktika va cho'l zonalardan tashqari hamma yerdagi nam joylarda, yo'l yoqalari, ariq bo'ylari, bog'larda, o'tloqlarda, dalalarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Hamma qismi birga yoki ildizi alohida holda ishlatiladi. Yer ustki qismi bilan ildizi bahorda, gullashidan oldin yig'iladi, faqat ildizi kech kuzda kovlab olinadi, suv bilan yuviladi, mayda ildizlari qirqib tashlanadi, sut shira oqib chiqishi to'xtaguncha quyoshda so'ltiladi va so'ngra bir qavat qilib yoyib quritiladi. Yer ustki qismi ildizidan ajratib, soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizi hamda yer ustki qismi tarkibida taraksasin va taraksatserin achchiq glikozidlari, triterpen birikmalari, 24 % gacha inulin, kauchuk, yog' va boshqa moddalar bor.

Ildizining qaynatmasi va quyuc ekstrakti ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash uchun va o't haydovchi vosita sifatida jigar, o't pufagi va o't yo'llari kasalligida qo'llaniladi. Farmasevtika amaliyotida quyuc ekstraktidan hapdori tayyorlashda foydalaniladi. Qoqining qirqilgan ildizi ishtaha ochuvchi, o't haydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan choylar — yig'malar tarkibiga kiradi.

Abu Ali ibn Sino qoqi shirasi bilan jigar va istisqo kasalligini, ildizining sut shirasi bilan esa ko'zga tushgan oqni davolagan. Chayon chaqqan joyga u qonining quritilmagan yer ustki qismini ezib bog'lashni tavsiya qiladi.

Qoqi ildizidan va bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida bo'yрак kasalliklarida siydik haydovchi, jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi, ishtaha ochuvchi, qon tozalovchi hamda surgi vosita sifatida qo'llaniladi. Bargining shirasi kamqonlikda, quvvatsizlikda, ko'krak og'rig'ida va qabziyatda ishlatiladi. Ildizining sut shirasi bilan so'gallar yo'qotiladi.


MUSHUKPANJA

MUSHUKPANJA – KOSHACHYA LAPKA

DVUDOMNAYA – ANTENNARIA DIOICA

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik murakkabguldoshlar oilasiga kiradi, bo'yiga 10-135 sm gacha bo'ladi, poyasi oddiy bo'lib, uning hammayog'i soch bilan qoplangan. Novdalari sudraluvchan, tomir otgan. Barglari birin-ketin joylashgan, ildizga yaqinlari katta, o'rtasidagilar yuraksimon yoki bo'yuraksimon shaklda. Gulto'plami qalqonsimon-boshsimon, bir nechta savatdan hosil bo'lgan. May-iyunda gullaydi. Gullari ikki uyali: bitta o'simlikda faqat qizil urug'cha bor, boshqasida faqat oq chandiq bor. Mevasi – urug', popuk tuklardan hosil bo'lgan. Avgustda pishadi.

O'ti va guli dorivor hisoblanadi. O'ti gullaganda quruq havoda shomdan keyin to'planadi. Salqinda quritiladi. Gul savatchalarni yarim ochilganda tayyorlanadi. Avaylab yumshoq narsada quritiladi. Yopiq



MUSHUKPANJA

yog'ochli yoki shisha idishda 1 yil saqlanadi. Xomashyoning o'ziga xos hidi va achchiq ta'mi bor.

O'simlikda oshlovchi moddalar, yelimlar, saponinlar, vitamin K, fitosterin, efir moyi va achchiq bor.

Mushukpanja dorivor vositasi kuchli qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, o't haydovchi ta'sirlarga ega.

Tug'ruqdan keyin bachadondan, burundan, ichakdan, oshqozondan, o'pkadan qon ketishlarda, hayzning ko'p ketishida, qonli qusishda, jigar va o't pufagi shamollashida, nafas yo'llari yallig'lanishida, ruhiy-asabiy kasalliklarda, o'pka va teri silida, xafaqon xastaligida ichga iste'mol qilib qo'llaniladi. Bavoildagi qon ketishlarda, diatezlarda, ekzemada damlamasidan malham sifatida ishlatiladi, anginada esa g'arg'ara qilinadi.

NAVRO'ZGUL

NAVRO'ZGUL – PERVO SVET VESENNIY – PRIMULA VERIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, qisqa ildizli navro'zgullar oilasiga mansub. Barglari tuxumsimon yoki uzunchoq-tuxumsimon 8 sm uzunligida ajinli. May oyida gullaydi. Gullari yirik, och-sariq, yoqimli asal hidiga o'xshash hidga ega, 15-30 sm balandlikdagi bargsiz guli nayza bilan gullovchi guldon soyabonsimon. Mevasi – popukli tuxumsimon ko'sak.

Tibbiyotda ildizi, bargi va o'simlikning gulining nayzasi qo'llaniladi. Bargi va gullari gullash davrida tayyorlanadi. Ildizi o'simlik so'ligandan so'ng kuzda yig'ib olinadi. Tuproqdan tozalanib, havoda so'litiladi va 40-50°C li quritgichda quritiladi.

Tuproqsti qismlarida saponinlar, vitamin C va karotin, ildizida saponinlar, glikozidlar va efir moylari mavjud. Bundan tashqari, o'simlikning barg qismlarida marganes tuzlari bor. Gulli nayzalarini hech qanday ishlovsiz holda iste'mol qilinadi.

O'simlik preparatlari balg'am ko'chiruvchi, tenglaytiruvchi siydik haydovchi va ter haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

O'pka va bronxlar yallig'lanishida ichish buyuriladi.



NAVRO'ZGUL

ODDIY NASTARIN ODDIY NASTARIN – SIREN OBIKNOVENNAYA – SYRINGA VULGARIS

Bu manzarali bo'ta zaytundoshlar oilasiga kiradi va bo'yiga 2-7 m bo'ladi. Tomir tizimi kuchli. Barglari qarama-qarshi, tuxumsimon, to'q zangori, to'kilganda sarg'ayadi. May-iyunda gullaydi. Gullari xushbo'y, naftarinroq siyohrang, har xil tusda, oq, ko'p gulli qalin piramida shaklida popukchaga to'plangan. Gazli va changli havo ta'sir qilmaydi. Mevasi ko'sakcha, och jigarrang urug'i bilan. Guli, bargi, po'sti va kurtagi dorivor xomashyo bo'ladi. Gulto'pi g'unchalayotganda shoxi bilan uziladi, uni bog'lab, salqinda quritiladi, barglari issiq havoda yozning birinchi yarmida teriladi. Salqinda yoki quritgichda 40-60°C haroratda quritiladi. Po'sti yosh shoxlardan olinadi. Qopda yoki yopiq idishda 2 yil saqlanadi.



ODDIY NASTARIN

O'simlikda efir moyi, och glikozid, sringt va boshqa moddalar bor.

Nastarin vositasi isitmani tushiruvchi, terlatuvchi, tutqanoqqa qarshi, og'riq qoldiruvchi ta'sirlarga ega.

Qandli diabetni, malyariyani, bo'yрак shamollashini davolashda, bo'yрак jomida tosh va qum bo'lganda, bronxial astmada, ich ketganda, oshqozon yarasida, yo'talda, ko'kyo'talda, bronxitda, zotiljamda, nafas yo'llari yallig'lanishida, o'pka silida, bodda, radikulitda, grippda, URKda, hayz kelishi buzilishida, epilepsiyada, ichga iste'mol qilinadi. Tashdan yiringli yarada, lat yeganda, bodda kompress qilinadi.

ODDIY NORDONCHA
ODDIY NORDONCHA – KISLISA
OBIKNOVENNAYA
– OXALIS ACETOSELLA

Bu ko'p yillik o'tsimon o't nordonchalar oilasiga kiradi, bo'yi 5-10 sm bo'ladi. O'qildizi ingichka yerga yoyilgan va tuproq yuzasida joylashgan, tomiroldi barglarni yumshoq qizil qoldig'i bilan yopgan. Bargi, poyasi, guli tatilganda nordon. Barglari uchga bo'lingan, uzun bandda, u o'qildizdan boshlanadi. Aprel-avgustda gullaydi. Gul ko'sakcha iyul-iyunda pishadi.


Yerdan tepa qismi dorivor xomashyo hisoblanib, gullagan davridan dori tayyorlanadi. Salqinda yoki quritgichda 40-50 °C da quritiladi. Quruq xonada berk idishda 1 yil saqlanadi. Uning tepa qismida qo'p miqdorda vitamin C, karotin va organik kislotalar, shuningdek, oz miqdorda flavonoidlar bor.

O'simlik dorivor vositasi oshqozon shirasi kislotaliligini me'yorlashtiradi, ishtahani ochadi, arterial bosimni tushiradi va shamollashga qarshi, lavshaga qarshi, yarani bitkazish xususiyatlariga ega.

Xom holatda uni lavsha va boshqa avitaminozlarning vitamin C gipovitaminozi ko'rinishlarida, jigar kasalliklarida, har xil gijjalarda, shuningdek, oshqozon shirasi kislotaliligi, tushib ketgan hollardagi gastritda, ishtaha yo'qligida qo'llaniladi.

Nordoncha qaynatmasi diatezni, funksional yurak-tomir kasalliklarini davolashda va aterosklerozning oldini olishda qo'llaniladi.

O'simlikning sutdagi qaynatmasi shamollaganda, tana haroratini tushirish va bo'yрак shamollashlarida tavsiya etadi. Sharbati va damlamasi ko'p vaqtdan beri bitmayotgan yaralarni va stomatitlarni davolashda qo'llaniladi. Nordongul ko'p ishlatilsa, bo'yракni qitiqlashiga olib kelishi mumkin. Oksalat diatez, qon ivishining buzilishida, talvasa bo'lish ehtimoli bo'lganda, ehtiyotkorlik bilan hakim nazorati ostida iste'mol qilinadi.



*ODDIY
NORDONCHA*

OG'MA SALLAGUL
OG'MA SALLAGUL – PION
UKLONYAYUSHCHIYSYA – PAEONIA ANOMALA

Botanik ta'rifi. Ildizpoyasi kalta bo'ladigan, bo'yi 100 sm gacha boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik; ildizi – yo'g'on, etdor, bir necha duksimon yo'g'onlashmalari bor, qo'ng'ir-jigar rangda. Poyalari bir nechta bo'lib, ko'pincha bittadan gul chiqaradi, pastki qismi terisimon tangachalar bilan qoplangan. Barglari navbatma-navbat joylashgan, deyarli yalang'och, patsimon qirqilgan, barg yaprog'ining uzunligi deyarli 30 sm gacha boradi. Gullari yirik, diametri 13 sm gacha yetadi, gul kosachasi 5 ta gul bargidan tashkil topgan. Mevalari 3 – 5 urug'li meva bo'lib, yetilganida chokidan yoriladi. Urug'lari ellipssimon, qora, yaltiroq.

May oyining oxiridan to iyun oyining o'rtalarigacha gullaydi, mevalari iyul – avgustda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Sibir, Yoqutistonda va boshqa joylarda o'sadi, sharqiy Qozog'istonning tog'-o'rmonli hududlarida uchraydi, O'rta Osiyoning barcha respublikalarida ekiladi.

Ishlatiladigan qismlari: ildizpoyalari va ildizlari.

Kimyoviy tarkibi. Bu o'simlikning ildizlarida 1,6 foizgacha efir moyi bo'lib, uning tarkibiga peanol, metilsalitsilat, benzoat va salisilat kislotalar kiradi. Ildizlarida talaygina miqdorda kraxmal, qand moddalari, salitsin degan glikozid, tanin va arzimasi miqdorda alkaloidlar ham bor. Barglarida 0,3 foizgacha va gullarida 1 foizgacha askorbin kislota topilgan. Urug'larida 27 % gacha yog'li moy bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Bu o'simlikdan tayyorlangan galen preparatlari xalq tabobatida me'da-ichak kasalliklari (me'da yarasi, gastritlar, ichketar), gipertoniya kasalligi, jigar kasalliklarida,

shuningdek, shamollash, isitma paytlarida qo'llaniladi. Ular bo'g'im og'riqlari, falajlar, bavirusil, istisqo, teri sili, o'smalar davosiga ham ishlatiladi.

Xitoyda bu o'simlikdan o'smalarga qarshi vositalarning tarkibiy qismi sifatida foydalaniladi. Mongoliyada uni jigar kasalliklarida ishlatiladi, odam zaharlanib qolgan mahallarda ziddi zahar tariqasida buyuriladi. Tibet tabobatida undan me'da-ichak va asab kasalliklarida, bo'yрак kasalliklari, zotiljam bronxitlar va o'pka silida foydalaniladi.



OG'MA SALLAGUL

Zamonaviy tabobatda nevrasteniya, uyqusizlik, serebral vazopatiyalar, markaziy nerv sistemasining funksional va organik kasalliklarida 10% li tinkurasidan tinchlantiradigan, talvasalarga qarshi va og'riqni qoldiradigan vosita sifatida foydalanishga ruxsat etilgan. Bu o'simlik tinkurasining qon bosimini pasaytirishi, bo'yрак qil tomirlarini toraytirishi tajriba tadqiqotlarida aniqlangan. Tinkurasi va damlamasining bakteriyalar, zamburug'lar va kistalarga qarshi ta'sir ko'rsatadigan xossalari bor. Qozog'istonda bu o'simlikdan "Baykal", Mongoliyada esa "Terelj" degan ko'ngilochar ichimlik tayyorlashda foydalaniladi. Barglarini qovurib olib, choy o'rnida damlab ichiladi, aroqda tayyorlangan barg ekstraktlari esa quyunchiqda, urug'laridan tayyorlangan ekstrakti gastrit va bachadondan qon ketayotgan paytlarda buyuriladi. Bu o'simlik ko'p miqdorda ishlatiladigan bo'lsa, zaharli ta'sir ko'rsatadi.

Tayyorlash va ishlatish usullari.


1. Yanchilgan dastorbosh ildizpoyalari va ildizlaridan 50 g

miqdorda olib, ustiga 500 ml qaynoq suv quyib, undan 200 ml qolguncha qaynatiladi-da, keyin suzib olinadi; 1 oshqoshiqdan kuniga 3 mahal ichish uchun buyuriladi.

2. Dastorbosh tinkurasini dorixonalardan sotib olib, 30 kun davomida 30 – 40 tomchidan kuniga 3 mahal ichish mumkin.

DORIVOR OBLITERON
DORIVOR OBLITERON – DYAGIL
LEKARSTVENNIY
– ARCHANGELICA OFFICINALIS

Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo‘yn 120 – 250 sm ga yetadigan ikki yillik o‘t-o‘simlik. MDH davlatlari Yevropa qismi, Kavkaz va G‘arbiy Sibirdagi botqoqliklarda, daryo va ko‘l yoqalarida, bo‘talar orasida va b. nam yerlarda hamda namli tog‘ qiyaliklarida o‘sadi.



DORIVOR OBLITERON

Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, kumarin va furokumarinlar, kislotalar, smolalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Dori preparatlari ishtaha ochish, ichak faoliyatini yaxshilash uchun, qorin dam bo‘lganda (meteorizm) va boshqalar me‘da-ichak kasalliklarida hamda siydik haydovchi va terlatuvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Ildizpoyasi bilan ildizi siydik haydovchi choylar – yig‘malar tarkibiga kiradi.

ODDIY CHETAN

ODDIY CHETAN – RYABINA OBIKNOVENNAYA – SORBUS AUCUPARIA

O'simlik tasviri. Oddiy chetan ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga mansub, bo'yi 4-5, ba'zan 15 m gacha yetadigan daraxt yoki bo'ta. Poyasi kulrang, silliq po'stloqli, yosh shoxlari sertuk. Bargi 4-7 bargchadan tashkil topgan toq patli murakkab bo'lib, bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Bargchalari cho'ziq-nishtarsimon, arrasimon qirrali. Oq rangli, besh bo'lakli gullari qalqonsimon to'pgulga joylashgan. Mevasi – dumaloq, sersuv, qizil rangli, 2-7 urug'li 4 ho'l meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlari Yevropa qismining o'rmon-cho'l zonasida hamda Kavkazda ninabargli va aralash o'rmonlarda, o'rmon chetlarida, bo'tazorlarda o'sadi. Bog' va xiyobonlarda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi.

Tibbiyotda chetanning mevasi ishlatiladi. Mevasi pishganda (sovuq tushgan vaqtda) yig'ib olinadi, quritgichlarda quritiladi yoki quritilmay qo'llaniladi. Sovuq tushganda mevasi yoqimli, achchiqroq-nordon ta'm kasb etadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.

Oddiy chetan mevasi tarkibida 160 (40-200) mg % vitamin C va P, 18 mg % 1 karotin, 8 % gacha organik (limon, olma, vino) kislotalar, qandlar (glyukoza,



ODDIY CHETAN

fruktoza, saxaroza), flavonoidlar (kversitrin, izokversitrin, rutin va boshqalar), efir moyi, sorbit, oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida amigdalin glikozidi va 22 % gacha yog' bor.

Meva va uning damlamasi lavsha (singa) va boshqa avitaminoz kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

Chetan mevasi xalq tabobatida ishtaha ochuvchi dori sifatida hamda singa kasalligini davolash va oldini olish uchun qadimdan qo'llaniladi.

ODDIY SHUVOQ (ODDIY ERMON) ODDIY SHUVOQ – POLIN OBIKNOVENNAYA – ARTEMISIA VULGARIS

O'simlik tasviri. Bo'yi 100-150 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyalari bir nechta bo'lib, tik o'sadi, qizg'ish rangli, yuqori qismi shoxlangan. Poyasining pastki va o'rta qismidagi barglari bandli, ellipssimon, nishtarsimon yoki nishtarsimon-chiziqsimon, o'tkir uchli, tishsimon yoki tekis qirrali bo'laklarga patsimon ajralgan, yuqoridagilari bandsiz, uch-yetti bo'lakka ajralgan. Hamma barglari poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan, ularning ustki tomoni tuksiz, to'q yashil, pastki tomoni sertuk, oqish bo'ladi. Mayda, qizg'ish rangli, savatchaga joylashgan gullari poyasining uchi va yon shoxlarida ruvaksimon gulto'planni hosil qiladi. Mevasi – qo'ng'ir pista.

Iyul oyida gullaydi, mevasi sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo respublikalaridagi tekisliklardan to tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan yerlarda, ariq bo'ylarida, nam yerlarda, begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. O'simlik gullagan davrida poyasining uchidan 25-30 sm uzunlikda (poyasining yo'g'on qismi olinmaydi) qirqib olinadi va soyada quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 0,03-0,61 % efir moyi, 11,9 mg % karotin, 175 mg % vitamin C, alkaloidlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi sineol, tuyon, borneol, aldegidlar va boshqa terpenlardan tarkib topgan.

Abu Ali ibn Sino oddiy shuvoqning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi bilan bachadon yarasini, tomoq va bo'yрак-tosh kasalliklarini davolagan, ayollarda to'xtab qolgan hayzni keltirish uchun qo'llagan. Qaynatmasiga botirib olingan doka yoki sochiqni bosh og'riganda boshga bog'lagan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida tutqanoq, meningit, o'pka sili va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Damlamasi yana tug'ruqni tezlatish va og'riq qoldirish uchun qo'llaniladi. Shamollagan bolalar shuvoq qaynatmasiga cho'miltiriladi. Quritilmagan oddiy shuvoq bargini maydalab, yanchib yaralarga bog'lanadi.



ODDIY SHUVOQ

OQQAYIN, QAYIN
OQQAYIN – BEREZA POVISLAYA
– BETULA PENDULA

O‘simlik tasviri. Qayindoshlar – Befulaceae oilasiga mansub, bo‘yi 10-20 gacha o‘sadigan daraxt. Bargi uchburchak, rombsimon yoki yuraksimon, o‘tkir uchli, qirrası nishtarli bo‘lib, bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket joylashgan. Shoxchalari bilan barglari smolali xushbo‘y bezlar yoki so‘galchalar bilan qoplangan. Gullari mayda, ko‘rimsiz bir jinsli kuchalaga to‘plangan. Mevasi – yong‘oqcha.

Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi avgustda yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlari Yevropa qismining o‘rmon zonasi va Sibirdagi aralash o‘rmonlarda, O‘rta Osiyoda tog‘ qiyaliklarida va vodiylarda o‘sadi. Ba‘zan qayinzorlarni tashkil qiladi. Manzarali daraxt sifatida ko‘chalarda, bog‘larda va parklarda o‘stiriladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Kurtagi, bargi va qatroni.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Kurtagi tarkibida 3,5-8 % efir moyi, flavonoidlar (apigenin, akasetin, kempferol, izoramnetin), 3% saponinlar, smolalar, vitamin C, oshlovchi moddalar, bargida 0,04-0,05 % efir moyi, 28 mg % gacha vitamin C, 3,2 % gacha saponinlar, flavonoidlar (giperozid, kversetin, apigenin, kempferol), 5-9% oshlovchi moddalar bor.



OQQAYIN

Kurtagining efir moyida sof (41-47 %) va sirka kislotaning murakkab efiri (30-45 %) holidagi bisiklik seskviterpen spirti – betulol, betulen, kariofillen va boshqa terpenoidlar bor.

Kurtak va barg damlamalari siydik haydovchi vosita sifatida yurak va bo'yрак faoliyati buzilishi natijasida badanga shish kelishi (badanga suyuqlik yig'ilishi – metiska kasalligi)ni davolashda qo'llaniladi, bargining damlamasi yana avitaminozlarda, kurtak damlamasi – o't haydovchi vosita sifatida xolesistit va boshqa jigar kasalliklarida ishlatiladi. Qayin daraxtining qatroni – Vishnevskiy surtmasi tarkibida yaralarni, Vilkinson surtmasi tarkibida qo'tir va teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Qayin bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida siydik va o't haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Kurtak damlamasi bilan me'da og'rig'i va shamollash kasalliklari davolanadi. Shu damlama yana siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Kurtak nastoykasi bod kasalligida va bo'g'inlar og'riganda og'rigan yerga surtiladi.

Qayin daraxtidan erta bahorda tarkibida qandlar, olma kislota, aromatik va boshqa moddalar bo'lgan shira (bitta daraxtdan 30-60 l gacha) olinadi. Shu shira yaralangandan so'ng vujudga kelgan kamqonlikda, tomoq og'rig'ida, angina, og'ir bitadigan yaralar, chipqon va boshqa kasalliklarda qo'llaniladi hamda ko'p chipqon chiqishi natijasida bemor quvvatsizlanib qolgan holatlarda darmonga kirgizuvchi va yaralarni davolovchi vosita sifatida ishlatiladi.


OQ LAMIUM (OQ YASNOTKA)
OQ LAMIUM – YASNOTKA BELAYA
– LAMIUM ALBUM

O‘simlik tasviri. Yasnotkadoshlar (labguldoshlar) – Larniaceae (Labiatae) oilasiga mansub, bo‘yi 25-70 sm ga yetadigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi tik o‘sadi, to‘rt qirrali. Barglari tuxumsimon, uchi o‘tkir, arrasimon qirrali bo‘lib, uzun bandi (poyasining yuqori qismdagilari qisqa bandli yoki bandsiz) yordamida poyasi bilan shoxlarida qarama-qarshi o‘rnashgan. Oq rangli, besh bo‘lakli, ikki labli gullari poyasining yuqori qismidagi barglari qo‘ltig‘ida to‘p-to‘p bo‘lib joylashgan. Mevasi – to‘rtta yong‘oqcha.

May-iyul oylarida gullaydi, mevasi avgustdan to kech kuzgacha yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Sibir, Qozog‘iston va O‘rta Osiyodagi o‘rmonlarda, bo‘talar orasida, tog‘larning o‘rta qismigacha bo‘lgan tog‘ oraliqlari (dalalar)da hamda begona o‘t sifatida istirohat bog‘larida, xiyobonlarda, ekinzorlarda va boshqa nam yerlarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Gullari xalq tabobatida yangi bargi yoki yer ustki qismi ishlatiladi. O‘simlik gullagan vaqtida faqat gultojisi yig‘ib olinadi va soya yerda quritiladi. Yer ustki qismi yoki alohida holda bargi ham o‘simlik gullagan davrda yig‘ishtirib olinadi va soya yerda quritiladi.



OQ LAMIUM

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Oq lamium gullari tarkibida efir moyi, saponinlar, flavonoidlar (izokversitrin, kempferol, kversetin, astragallin, kversimeritrim va boshqalar), vitamin C, xlorogen va gallas kislotalar, alkaloidlar, xolin, 10 % gacha oshlovchi, shilliq, bargida 0,55 % efir moyi (tarkibida 4,4 % gacha fenollar bo'ladi), saponinlar, flavonoidlar, kumarinlar, 56,9-288 mg % vitamin C, 13,7-15 mg karotin, kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Gulining dorivor preparatlari akusherlik-ginekologiya amaliyotida bachadon tonusini oshiruvchi, qon oqishini to'xtatuvchi va qon bosimini pasaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Guli qon oqishini to'xtatuvchi choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

O'simlik gulidan tayyorlangan damlama, qaynatma, nastoyka hamda gul poroshogi bilan xalq tabobatida bo'yarak, qovuq va siydik yo'llari, taloq, bachadon, ichak, nafas yo'llari shilliq qavati yallig'lanishi, bezgak, sariq kasalligi, uyqusizlik va terining ba'zi (ekzema, yaralar va eshakemi) kasalliklari davolanadi. Bundan tashqari, oq lamium balg'am ko'chiruvchi, burishtiruvchi va bachadondan, o'pkadan qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

O'simlik bargidan tayyorlangan qaynatma qon aralash ich ketganda ishlatiladi, gulidan moyda tayyorlangan suyuq dori ekzema, eshakemi va yaralarga surtiladi, yer ustki qismi damlamasi siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

OO OMELA

OO OMELA – OMELA BELAYA – VISCUM ALBUM

Bu ko'p yillik doim yashil o'simlik "remnesvetnikovix" oilasiga kiradi va bo'yiga 20-120 sm bo'ladi. Shoxlari yog'ochsimon, bo'g'inli, silliq. Bo'g'inlarda oson sinadi. Barglari och yashil, qarama-qarshi, qalin, uzunchoq, boshi toraygan, parallel tomirli, shox oxirida juft joylashgan. Mart-aprelda gullaydi. Gullari sariqroq zangori, novda oxirida to'liq gush bilan qoplangan. Sentabr-oktyabrda pishadi.

Yosh shoxlar va bargi dorivor xomashyo bo'ladi. Kech kuzda yoki qishda ular teriladi. Quritgichda yoki pechkada quritiladi. Berk idishda 1 yil saqlanadi.

Omela tarkibida uglevodlar, organik kislotalar, triterpenoidlar, kauchuk, steroidlar, kardenoidlar, oriterponoidli saponinlar, polipeptidlar vitamin C va E, fenollar, fenolkarbonli kislotalar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, yuqori kislotalar bor.

Uning vositalari burishtiruvchi, siydik haydovchi, qon to'xtatuvchi, og'riqlantiruvchi antisklerotik va ich keltirish xususiyatlariga ega, qon bosimini tushiradi, yurak faoliyatini kuchaytiradi, tomirlarni kengaytiradi, markaziy asab tizimi qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi, emizikli onaning sutini ko'paytiradi. Eski vaqtlarda yomon o'smalarni davolashda ishlatilgan.

Omela vositasi aterosklerozda, bo'yрак shamollashida, surunkali bachadon shamollashida, ochlikda, oshqozon va ichak shilliq pardalarni shamollashida, oshqozonosti bezi kasalligida, tutqanoq tutganda, bolalarda kechasi siydik tutmasa, o'pka silida bronxial astmada ishiasda, nevrалgiyada, venaning varikozli kengayishida va qo'l-oyoqning trofik yarasida, bавosilda, bachadondan, o'pkadan, burundan,

oshqozon-ichakdan qon ketganda, qalqonsimon bezning faoliyati kuchayganda, qandli diabetda, prostata bezi kattalashganda, kamquvvatlilikda, bosh aylanganda ichilgan. Limfa tugunlarini shamollashida, latengandan keyingi mushakdagi og'riqlarda va singanda mahalliy qo'llanadi. Yana chipqonda, revmatizmida, podagrada ham ishlatilgan. Omelaning yangi sharbati ichburug'da, to'g'ri ichak tushishida, har xil o'simliklar bilan zaharlanganda yordam beradi.



OK OMELA

OQ TOL

OQ TOL – IVA BELAYA – SALIX ALBA

Bu katta tollar oilasiga mansub chodirsimon shoxli daraxt. Eski shoxlari bargsiz, yangilari pastga egilgan. Barglari nashtarsimon, bir tarafdin kumushsimon barg ipaksimon, boshqa tarafi – tekis. Aprel-mayda gullaydi. Gullari mayda, bargak hosil qiladi. Mevasi ko'sak shaklida. Urug'i – mayda, yengil. May-iyunda pishadi.

Po'sti dorivor xomashyo. Uni erta bahorda 6-7 yoshdagi daraxtlardan olinadi. Olingan po'stlar maydalanadi va quyoshda yaxshilab so'ltililadi va quritgichda 50-60°C haroratda quritiladi. Tayyor bo'lgan xomashyo sinishi kerak. Kartonli idishda 2 yil saqlanadi.

Po'sti tarkibida uglevodlar, selluloza, lignin, fenolglyukozidlar, katexinlar, oshlovchi moddalar, antosianinlar, flavonoidlar, vitamin C bor.



OQ TOL

Tol vositalari o'rovchi, qon to'xtatuvchi, dezinfeksiyalash, haroratni tushirish, diuretik va shamollashga qarshi xususiyatlarga ega.

Dizenteriyada oshqozon va yo'g'on ichak shilliq pardalari yallig'lanishida, ichki a'zolardan qon ketganda, silda, ginekologik kasalliklarda, tifda, revmatizmida ichish tavsiya etiladi, og'izni va tomoqni chayqaladi, oyoq terlaganda, teri kasalligida, oyoqdagi qon-tomirlar kengayishida malham sifatida ishlatish mumkin.

OQQALDIRMOQ
ODDIY OQQALDIRMOQ (KUKA)
OQQALDIRMOQ – MATMACHEXA
OBIKNOVENNAYA – TUSSILAGO FARFARA

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik. erta bahorda ildizpoyasidan gul hosil qiluvchi bir nechta shoxlanmagan, bo'yi 5-25 sm bo'lgan poyalar o'sib chiqadi. Poyalari qizil-qo'ng'ir rangli, tangachasimon bargchalar bilan qoplangan bo'lib, uchi tilla-sariq rangli gullardan tashkil topgan.

Savatcha gulto'plam joylashgan. Mevasi pishgandan keyin poyalari qurib qoladi va uzun bandli ildizoldi barglar o'sib chiqadi. Ildizoldi barglari yumaloq yoki keng tuxumsimon, notekis o'yilgan va tishsimon qirrali, barg plastinkasining yuqori tomoni tuksiz, yashil rangli, pastki tomoni sertuk,

oqish bo'лади. Mevasi — uchmali pista. Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi may-iyunda yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Sibir va O'rta Osiyoning tog'li yerlarida, daryochalar hamda ariq bo'ylarida, o'rmonlarda, jarliklarda, g'orlarda va shunga o'xshash boshqa nam va soya yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Barglari, qisman gullari. Gullarini o'simlik to'liq gullagan vaqtda, barglarini yiriklashgan davrida — yoz oylarida yig'iladi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Barglari tarkibida 2,63 % gacha tussilyagin va boshqa achchiq glikozidlar, organik kislotalar, flavonoidlar, saponinlar, 0,12 % alkaloidlar, karotin, vitamin C, efir moyi, 7-8 % shilliq, 9,61 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.

O'simlikning bargi ko'krak og'rig'ida ishlatiladigan ko'krak yumshatuvchi va terlatuvchi yig'malar — choylar tarkibiga kiradi. Barg damlamasi yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi, dezinfeksiya qiluvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida bronxit, laringit, turli o'pka kasalliklari va boshqa shamollash kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Oqqaldirmoq bargi damlamasi (yoki qaynatmasi)ni Abu Ali ibn Sino ko'krak og'rig'ida, nafas olish qiyinlashganda, nafas yo'llari yallig'langanda va yo'talda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llagan. Damlamasi bilan yana shirincha va istisqo kasalliklarini davolagan. Nafas qisishi, hansirash



OQQALDIRMOQ

va nafas olish qiyinlashganda barg poroshogini ichishga buyurgan. Yangi yig'ilgan barg shirasini bezgak va o'pka sili kasalliklarini davolash uchun hamda terlatuvchi va o't haydovchi dori sifatida ishlatgan. Quritilmagan bargini ezib, yara va chipqonlarga bog'lagan.

Xalq tabobatida bargi va gulidan tayyorlangan damlama (yoki qaynatma) nafas yo'llari hamda me'da-ichak, bo'yрак, siydik yo'llari va qovuq kasalliklarida yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi, balg'am ko'chiruvchi, ko'krakni yumshatuvchi va siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Yangi yig'ilgan barglarini ezib, yara va chipqonlarga bog'lanadi.

ODDIY OQKARRAK **ODDIY OKKARRAK – TATARNIK KOLYUCHIY** **– ONOPORDUM ACANTHIUM**

O'simlik tasviri. Oddiy oqkarrak astradoshlar (murakkabguldoshlar) — Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 60-200 sm bo'ladigan tikanli ikki yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, qanotli, sertuk, tikanli, shoxlangan. Barglari yirik, u ham sertuk, keng yoki tor lansetsimon, qirralari o'yilgan bo'lib, qisqa bandi (ildizoldi to'pbarglari) yoki bandsiz poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. To'q qizil gullari yirik, tuxumsimon-sharsimon savatchaga joylashgan. Mevasi — qisqa uchmali pista.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz va O'rta Osiyodagi adirlar, cho'llarda, tashlandiq va iflos yerlarda, aholi yashaydigan joylarda, yo'l yoqalarida o'sadi. Ko'pincha u ayrim yerlarda oqkarrakzorlarni tashkil qiladi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida oqkarrakning yerusti qismi va mevasi ishlatiladi. O'simlik gullagan (yoki gullashidan oldin) vaqtida poyasining yuqori qismi qirqib olinadi va soya yerda quritiladi. Mevasi esa pishganda savatchasi bilan qirqib olinadi va ochiq havoda quritiladi. So'ngra savatchasi bilan birga qo'llaniladi yoki savatchani yanchib, mevasi ajratib olinadi.



ODDIY OQKARRAK

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.

Oqkarrakning yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar, aksiopikrin seskviterpen laktoni, 31,1-93,2 mg % vitamin C va K, qandlar, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, mevasida 0,1 % gacha alkaloidlar, 15-35 % yog' bor.


Yer ustki qismi damlamasi yoki qaynatmasi xalq tabobatida xavfli o'smalarni (jumladan, bachadon raki), konshal va yiringli yaralarni davolashda, damda, qon oqishini to'xtatuvchi, siydik haydovchi va mikroblarni o'ldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Quritilmagan o'simlik shirasi bilan temiratki va ko'tir davolanadi.

Oqkarrak yer ustki qismining dorivor preparatlari yurak ishini yaxshilovchi, siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va bakterisid ta'sirga ega ekanligi tajribada aniqlanib, ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan. Shuningdek, rak kasalligini operatsiya qilgandan so'ng uni profilaktika qilish (qaytalanishining oldini olish) maqsadida hamda teri raki va silini davolash uchun ham ishlatishga tavsiya qilingan.

DORIVOR OKOPNIK
DORIVOR OKOPNIK – OKOPNIK
LEKARSTVENNIY
– SYMPHYTUM OFFICINALIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik lavlagiguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 1 m gacha bo'ladi. Ildizi yo'g'on, suvli, qora qo'ng'ir kichkina ildizpoyadan boshlanadi. Poyasi shoxlangan dag'al tuk bilan qoplangan. Barglari katta, birin-ketin tuxumsimon yoki cho'ziq, uzun uchli bo'ladi. Yuqoridagilari esa nashtarsimon o'tirgan. Gullari pushti yoki xira qizg'ish. May-iyulda gullaydi. Mevasi – qora yaltiroq yong'oq. Iyul-sentabrda pishadi.

Tomiri ayrim hollarda bargi ham dorivor xomashyo bo'ladi. Tomirlari kuzda yoki erta bahorda barglari chiqquncha to'planadi, yerdan tozalab, suvda yuviladi va so'ltiladi, keyin 2 sm gacha bo'lgan bo'laklarga bo'lib, salqinda yoki quritgichda 40°C da quritiladi, yog'ochli idishda yoki qopda 3 yil saqlanadi.



DORIVOR OKOPNIK

O'simlikning hamma qismida ko'p miqdorda markaziy asab tarmog'ini parchalovchi zaharli alkaloidlar bor. Tomirida oshlovchi moddalar, shilimshiq, yelimlar, inulin, organik kislotalar, efir moyi topilgan.

Okopnik vositasi yallig'lanishga va mikrobg qarshi qon to'xtatuvchi, burishtiruvchi, yarani tozalash xususiyatlarga ega.


Uni ichganda singan suyaklar tez bitishi, suyak parda tiklanishi, suyakning hamma qismlarining yallig'lanish jarayoni yo'qolishi kuzatiladi.

Oshqozon va ichakning surunkali shamollashida, ichburug'da, surunkali bronxitda ichiladi. Damlamasi qorindagi og'riqni susaytiradi, hazm qilishni yaxshilaydi, shikastlangan shilliq parda epiteliysi tiklanishini tezlashtiradi. Nafas yo'llari xastaligida balg'am chiqishini yaxshilaydi. O'pka silida uni ishlatish maslahat beriladi. Chipqonda, terini yiringli xastaliklarida, suyaklar singanda va yiringlaganda malham va kompress shaklida va yuvish mumkin. Yaradan va burundan qon oqqanda, teriosti yog' qatlamidagi quyulgan qonning so'rilishi maqsadida tomir qaynatmasi yoki yangi o'simlik sharbati ishlatiladi.

OLTIN ILDIZ **OLTIN ILDIZ – ZOLOTROY KOREN** **– RHODIOLA ROSEA**

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik semizo'tlar oilasiga kiradi va bo'yi 50 sm gacha bo'ladi. Ildizpoyasi yo'g'on, qo'ng'ir po'stloq bilan qoplangan va ildiziga o'tib ketadi. Poyasi shoxli, tik turadi, qalin gulto'p bilan tugaydi. Barglari birin-ketin o'tirgan, elleptik, cho'ziq, tuxumsimon. Iyun-iyulda gullaydi. Gullari – sariq. Mevasi – qizilroq yoki sariqroq zangori barg shaklida. Iyul-avgustda pishadi.

Ikkitadan ko'p poyasi bor, ildiz dorivor xomashyo bo'ladi. Iyul oxiridan sentabr o'rtasigacha to'planadi. Bir joyda qayta ashyoni olish 10-15 yildan keyin ruxsat beriladi. Ildizpoya tuproqdan tozalanib qo'ng'ir po'sti olib tashlanadi, so'lish uchun soya-salqinga yoyiladi. Keyin 10 sm qilib bo'laklarga bo'linadi va quritgichda 50-60°C haroratda quritiladi. Matoli



OLTIN ILDIZ

qopda yoki yog'ochli idishda 3 yil saqlanadi.

Xomashyo tarkibida salitrozid, antroglukozidlar, oshlovchi moddalar, organik kislotalar, flavonoidlar, qand, efir moyi bor.

Oltin tomir vositalari aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini yaxshilaydi, organizmni energetik potensialini saqlashga yordam beradi, har xil ekstremal *omillar ta'siriga chidamlilikni* oshiradi, (issiq urish, zaharlanish, kislorod yetishmovchiligi, ruhiy stress) qayta rivojlanishining oldini oladi.

O'tkir va surunkali kasalliklarda nevrozlarning turli shakllarida, past arterial bosimda va jinsiy zaiflikda qo'llaniladi. Yaqqol qo'zg'olganda, isitmali holatlarda, arterial bosim ko'tarilganda oltin ildizni iste'mol qilmaslik kerak.

Xalq tabobatida oltin ildiz, shuningdek, bachadondan qon ketganda, oshqozon-ichak yo'llari xastaliklarida va yurak kuchsizlanganda ishlatiladi.

OLTIN XIVICH

OLTIN XIVICH – ZOLOTARNIK OBIKNOVENNIY
– SOLIDAGO VIRGAUREA

Chiroyli, ko'p yillik o'simlik, murakkabguldoshlar oilasiga kiradi, bo'yi 90 sm gacha, uzunchoq elliptiksimon barglari va novdaning oxirida joylashgan sariq popuksimon

ko'pgulli o'simlik. Yoz oxiridan kech kuzgacha gullaydi. Novdasi tik turadi, oddiy, tepasi shoxlagan bo'ladi. Barglari uzunchoq, elliptiksimon, chekkasi arrali, pastkilari qanotsimon bandga kichraygan, yuqoridagilar maydaroq va ensiz, bandi yo'q. Gullari ko'p savatcha hosil qiladi, novda oxirida tugaydi, uzaygan popuksimon shaklda tugaydi. Savatcha yoniga 4-5 mm, tashqi gulbarglari mayinroq, ayollik guli tilsimon qayrilgan sariq rangda bo'ladi.

O'ti dorivor xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Ulash davrida u tayyorlanadi. Quritgichda 40-50 °C yoki salqinda quritiladi. Quruq xonada berkitilgan idishda 2 yil saqlanadi.



OLTIN XIVICH

O'ti tarkibida saponinlar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, efir moylari, alkaloidlarga o'xshash moddalar, achchiqlar, askorbin va niktin kislotalar bor.

Oltin xivich vositalari yallig'lanishga qarshi, siydik haydovchi va moddalar almashinuvini me'yorlashtirish xususiyatiga ega.

Jigar, bo'yрак, siydik pufagi kasalliklarida, bo'yрак va o't pufagidagi tosh va qumlarda, sariqda, shishda, istisqoda, revmatizmida, podagrada, o'pka silida, bronxial astmada, shirinchada, ich ketganda, lavshada ichish qo'llaniladi, anginada, og'iz bo'shlig'i shamollashlarida g'arg'ara qilinadi, yarani bitkazuvchi sifatida, singanda, yaralarda, furunkullarda malham sifatida ishlatiladi.

OLXA

OLXA – OLXA KLEYKAYA ILI CHERNAYA – ALUM GLUTINOSA

O‘simlik tasviri. Olxa turlari qayindoshlar – Betulaceae oilasiga mansub, bo‘yi 20 m gacha yetadigan daraxt yoki bo‘ta. Bargi tuxumsimon, keng ellipssimon yoki yumaloq shaklli, o‘tkir uchli, qo‘shaloq arrasimon yoki arrasimon qirrali bo‘lib, poya va shoxlarida bandi yordamida ketma-ket o‘rnashgan. Ko‘rimsiz, bir jinsli gullari 3-5 tadan uchala to‘pguliga (otaliq gullari) yoki boshhoqqa (oraliq gullari) joylashgan. Mevasi – yassi, bir urug‘li yong‘oqcha.

Mart-aprel oylarida gullaydi, mevasi oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Olxaning har ikkala turi MDH davlatlari Yevropa qismining o‘rmon, o‘rmon-cho‘l zonasi va, qisman, Kavkazdagi nam o‘tloqlarda, ariq bo‘ylarida, qiyaliklarda, o‘rmonlarda, botqoqliklarda o‘sadi.

Tibbiyotda olxaning ikki turi ishlatiladi: Qora (yopishqoq) olxa – Olxa kleykaya (chyornaya) – *Ainus giutinosa* Gaertn va Kulrang olxa – Olxa seraya – *Alnus ineanna* Maench.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda olxa turlarining g‘udda mevasi ishlatiladi. Mevasi pishganda, qishda yig‘iladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Olxa turlarining g‘udda mevasi tarkibida oshlovchi moddalar (jumladan, 3% gacha gallotaninlar), 4% gacha gallat kislotasi va boshqa birikmalar bor.

Mevasining damlamasi burishtiruvchi vosita sifatida me‘da kasalliklari – surunkali enterit va kolitni davolashda,



OLXA

bolalarning ichi ketganda qo'llaniladi. Shu jihati bilan g'udda mevasi ichketarga qarshi ishlatiladigan yig'malar – choylar tarkibiga kiradi.

**OLXASIMON FRANGULA – KRUSHINA
OLXOVIDNAYA
OLXASIMON FRANGULA – FRANGULA
– FRANGULA ALNUS**

O'simlik tasviri. Frangula jumrutdoshlar – Rhomnaceae oilasiga mansub, bo'yi 1-3 (7) m ga yetadigan bo'ta yoki daraxt. Shoxlari tikansiz, yosh novdalarining po'stlog'i qizil-qo'ng'ir rangli, yaltiroq, silliq, oq yasmiqchali. Barglari keng ellipssimon yoki teskari tuxumsimon, tekis qirrali bo'lib, bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Mayda, ko'rimsiz, besh bo'lakli gullari 2-7 tadan barg qo'ltig'ida joylashgan. Mevasi – binafsha-qora rangli, dumaloq, sersuv, ikkita danakli meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Qrim, Kavkaz, G'arbiy Sibir va Qozog'istonning shimolidagi keng yaproqli va aralash o'rmonlarda, o'rmon chetlarida, bo'talar orasida, ariq va daryo bo'ylarida, yo'l yoqalarida, botqoqliklar atrofida, bo'tazorlarda, qisman tog'li joylarda o'sadi.



OLXASIMON FRANGULA

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda frangulaning po'stlog'i ishlatiladi. Po'stlog'i erta bahorda (mart-aprel oylarida) o'simlik tanasida suv yurisha boshlagan vaqtda, barg chiqarmasdan oldin yosh poyasi bilan shoxlaridan 30 sm uzunlikda shilib olinadi va ochiq havoda — quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Frangula po'stlog'i tarkibida 8 % gacha antratsen unumlari (frangularozid, glyukofrangulin, frangulin, frangulaemodin, xrinafanol, fisskon va boshqalar), alkaloidlar, qandlar, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Frangula po'stlog'ining dorivor preparatlari (qaynatmasi, suyuq ekstrakti, quruq ekstraktining tabletkasi, sharbati), ramnil tabletkada holida va po'stlog'i choy — yig'malar tarkibida surg'i sifatida qabziyatda qo'llaniladi.

DORIVOR OTQULOQ


DORIVOR OTQULOQ — SHCHAVEL KONSKIY — RUMEX CONFERTUS

O'simlik tasviri. Torondoshlar — Polygonaceae oilasiga mansub, bo'yi 60-150 sm bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, bo'g'imli, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi to'pbarglari va poyasining pastki qismidagi barglari uzun bandli, uchburchaksimon, tuxumsimon, asos qismi chuqur yuraksimon, biroz to'lqinsimon qirrali, yuqori qismidagi barglari siyrak, tuxumsimon-nashtarsimon bo'lib, kalta bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Poyasining barg chiqargan joyida — bo'g'inlarida uni o'rab turuvchi yondosh bargchalardan tashkil topgan yupqa pardacha bo'ladi. Mayda, ko'rimsiz, oddiy gulqo'rg'onli (kosachasi yo'q), 6 bo'lakli gullari ruvak gulto'plamiga

joylashgan. Mevasi tuxumsimon, uch qirrali, och jigarrang yong'oqcha.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyun-iyulda yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Sibirning janubiy hududlari, Qozog'iston, O'zbekiston, Uzoq Sharq va, qisman, Kavkazda ariq bo'ylarida, uvatlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, yo'l yoqalarida va begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.



DORIVOR OTQULOQ

Qo'llaniladigan qismi. Ildizi. O'simlik ildizi kuzda, yer ustki qismi quriganda kovlab olinadi, tuproqdan tozalanadi, suv bilan yuviladi va mayda bo'laklarga bo'lib, ochiq havoda — quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizi tarkibida 4 % gacha antratsen unumlari (antraglikozidlar, xrizofanol va emodinlar), 8-15 % oshlovchi moddalar, flavonoidlar, 0,19-95 efir moyi, smolalar, vitamin K, shilliq va boshqa birikmalar bor. Mevasida 0,73-0,83 % antasen unumlari, 4,18-5,36 % oshlovchi moddalar, efir moyi, 123,1 mg % vitamin C, 2,86 91 shilliq, smola, barg va poyasida 1,5-1,58% antratsen unumlari, 98,9 mg% gacha vitamin C, smola bor.

Ildiz qaynatmasi va poroshogi dizenteriya, kolit, enterokolit va boshqa me'da-ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

Otquloq dorivor preparatlari kichik dozada ich qotirish, katta dozada ich yumshatish xususiyatiga ega.

Surgi sifatida dorivor otquloqning ildiz poroshogi 0,5-1,0 g dan uxlashdan oldin ichiladi, chunki uning ta'siri 8-10 soatdan



TANGUT RAVOCHI

keyin boshlanadi. Shu maqsadda ildiz qaynatmasini ham qo'llash mumkin. Ich ketganda uni to'xtatish uchun esa kuniga 3 mahal ildiz poroshogidan 0,2-0,3 g dan iste'mol qilinadi.

Oddiy (dorivor) otquloq ildizidan, bargidan va mevasidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama xalq tabobatida ich ketishga, dizenteriya, ichak yaralari va boshqa kasalliklarga davo qilinadi. Qaynatma va damlamasi bilan yana qo'tir, temiratki va terining boshqa kasalliklari davolanadi. Gijja haydovchi, va yaralarni davolovchi dori sifatida ham ishlatiladi. Qo'tir, temiratki va boshqa yaralarni davolash uchun quritilmagan bargidan olingan shirasi ham foydali.

PAQ-PAQ

PAQ-PAQ – FIZALIS OBIKNOVENNIY – PHYSALIS ALKEKENGI

Botanik ta'rifi. Poyasi shoxlanib o'sib, bo'yi 60 sm gacha boradigan ko'p yillik o'simlik. Barglari sal cho'zinchoq tuxumsimon shaklda, bandli, siyrak tuklar bilan qoplangan. Gullari yakka-yakka bo'lib ochiladi, oqish rangda. Mevalari – uzunligi 6 sm gacha boradigan, qovoqrang-qizil tusli urug'li meva, qavariq kosachaga o'ralgan, mevalarini yesa bo'ladi, Urug'lari – mayda, qovoqrang tusda.

Iyun-iyulda gullaydi, mevalari sentabr-oktabrda etiladi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo respublikalarida o'sadi, ekiladi ham.

Ishlatiladigan qismlari: mevalari.

Kimyoviy tarkibi. Paq-paq mevalarida 6 foizga qadar qand moddalari, 2,5 foizcha oqsillar, birmuncha miqdor limon kislota, vitamin C, pektin moddalar, oshlovchi moddalar, makro-va mikroelementlar hamda biologik jihatdan faol bo'ladigan boshqa moddalar bor. Bu o'simlikning yer ustki qismida alkaloidlarning yuqlari va fezalin degan achchiq bo'yoq moddasi topilgan.



PAQ-PAQ

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida paq-paq mevalaridan kamqonlik, gipyertoniya va keksalik qabziyatiga davo qilish uchun foydalaniladi. Buning uchun ovqat oldidan 5 – 10 donadan kuniga 2 – 3 mahal paq-paq mevasini yeb turish buyuriladi, gipyertoniya bilan og'rigan kasallarga esa paq-paq mevalari qoqisini choy qilib damlab ichish tavsiya etiladi. Paq-paq mevalari va suvini siydik-tosh, istisqo, sariq kasalligi, bamosilda og'riq qoldiradigan, qon to'xtatadigan siydik haydaydigan vosita tariqasida ham ishlatish buyuriladi. Tojikistonda paq-paq mevalari suvini sutga aralashtirib, bolalarga tomoq og'rig'i davosiga ishlatiladi.

Ibn Sino yangi terilgan paq-paq mevalarini astma, nafas organlarining yallig'lanish kasalliklari, sariq kasalligi, siydik yo'llari kasalliklari, yara-chaqa davosiga ishlatishni tavsiya etgan.

Zamonaviy tabobatda gipoatsid gastrit, me'daning yara kasalligi bilan og'rigan bemorlarga, surunkali xoletsistitlar, qandli diabet va gipyertoniya kasalligida paq-paq mevalari servitamin va parhez vosita tariqasida buyuriladi.

Tayyorlash va ishlatish usullari. 1,15 – 30 g miqdoridagi paq-paq mevalari qoqisini kun bo'yi 3 ga bo'lib iste'mol qilinadi.

2. Paq-paq mevalarining suvini 1 oshqoshiqdan kuniga 3 mahal ichiladi.

3. Yangi terib olingan paq-paq mevalarini 10 – 15 donadan kuniga 3 mahal iste'mol qilinadi.

4. 15 – 20 g miqdoridagi paq-paq mevalari qoqisini choy qilib damlab, kun bo'yi 3 ga bo'lib ichiladi.

PARMACHAK

PARMACHAK – YEJEVIKA SIZAYA – RUBUS CAESIUS

O'simlik tasviri. Ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga mansub, bo'yi 50-150 sm ga yetadigan ikki yillik, poyali, tikanli bo'ta yoki yarimbo'ta. Bir yillik poyasi yer bag'irlab (yotib) yoki yoysimon qayrilib o'sadi.

Poyalari silindrsimon, shoxlangan. Barglari uch plastinkali (bo'lakchalari tuxumsimon, o'tkir uchli, tishsimon qirrali) murakkab bo'lib, bandi bilan poyasi va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Oq rangli, besh bo'lakli gullari qalqonsimon shingil to'pgulga joylashgan. Mevasi – ko'k rangli, sershira, danakli murakkab ho'l meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyun-avgustda pishadi.

Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo, Kavkaz va G'arbiy Sibirning tog'li hududlaridagi tog' yonbag'irlaridan o'rta qismigacha bo'lgan to'qayzorlarda, ariq bo'ylarida, toshli tog' qiyaliklarida, jarliklarda, bo'talar orasida va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida maymunjonning yetilib pishgan mevasi, bargi va ildizi ishlatiladi. Mevasi pishganda yig'iladi va quritmasdan yoki oftobda quritib ishlatiladi. Barglari o'simlik gullashi davrida teriladi va soya yerda quritiladi. Ildizini kech kuzda yoki erta bahorda kovlab olinadi, suvda yuvib, tuproq va loydan tozalanadi,

mayda bo'lakchalarga qirqib, ochiq havoda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.

Zangori maymunjon bargi tarkibida 80-271 mg % vitamin C, organik kislotalar, karotin, qand, oshlovchi moddalar, mevasida 6,35-7,46 % qand, 2,2 % organik kislotalar, 15 % vitamin C, karotin, antotsianlar va boshqa moddalar bor.

Bargi damlamasi xalq tabobatida shamollash kasalliklarida terlatuvchi vosita sifatida, tomoq og'riganda og'izni chayish uchun qo'llaniladi. Mevasi terlatuvchi, isitma ko'tarilganda haroratni pasaytiruvchi va chanqoqni qoldiruvchi, ishtaha ochuvchi dori sifatida hamda qon tupurganda ishlatiladi.

Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi milk kasallanganda og'iz chayish uchun hamda siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

Maymunjonning yangi uzib olingan bargini ezib temiratkiga, surunkali va yiringli yaralarga bog'lansa, davo bo'ladi.



PARMACHAK

PAXMOQ QARIQIZ

PAXMOQ QARIQIZ – LOPUX BOLSHOY

– ARCTIUM LAPPA

Botanik ta'rifi. Bo'yi – 100 sm gacha boradigan ikki yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi – to'g'ri o'sadi, qirrali, o'rgimchak inisimon tuklar bilan qoplangan, gungurt qizil rangda. Barglari yirik, bandli, tuxumsimon shaklda, ustki tomoni yashil, pastki tomoni kulrang tusda, chetlari sal



PAXMOQ QARIQIZ

tishli, o'rgimchak inisimon tuklar bilan qoplangan. Poyasining uchki tomoni borgan sari maydalashib boradi. Gullari to'q binafsharangda bo'lib, poya va shoxlarining uchida to'pgullar hosil qiladi. Mevasi — teskari tuxumsimon shaklda, qirrali, arang bilinadigan ko'ndalang ajinlari bo'ladigan kulrang-jigarrang yoki qo'ng'ir tusli urug'li meva.

Iyun-avgustda gullaydi, mevalari avgust-sentabrda etiladi.

Geografik tarqalishi. O'zbekiston va Qirg'izistonda tarqalgan bo'lib, yo'l yoqalarida, turarjoylar yaqinida va daraxtzorlarda o'sadi.

Ishlatiladigan qismlari: ildizlari va barglari.

Kimyoviy tarkibi. Qariqiz ildizlarida 45 foizgacha inulin va 12 foizgacha oqsil moddalar, alkaloidlar, efir moylari bor, mevalarida arktin va 20 foizga qadar yog'li moylar topilgan. O'zbekistonda o'sadigan: qariqiz ildizlaridan 29 foizgacha inulin, 0,64 foizgacha efir moylari, kumarin unumlari, 8,2 foiz oshlovchi va boshqa moddalar olingan. Barglarida flavonoidlardan rutin va giperozid, antosianlar, organik kislotalar, mevalaridan esa 17,7 foizgacha moy va 3,4 foiz sekviterpen laktonlar topilgan.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida paxmoq qariqiz ildizlaridan siydik haydaydigan, terlatadigan va jarohatlarni bitiradigan vosita tariqasida qadimdan foydalanib kelinadi (revmatizm, podagra kasalliklarida ichishga buyuriladi, gush kasalligi, chipqon chiqqan mahallarda badanning kasal joyiga qo'yiladi). Ildizini bodom yoki o'rik moyiga solib qo'yib, bu moyni soch o'stirish uchun boshga surtiladi.

Zamonaviy tabobatda bu o'simlikning mikroblar o'sishini to'xtatib qo'yishi va isitmaga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, shuning uchun uni shamollash kasalliklari, me'daning yara kasalligi, jigar kasalliklari, bavirusil va o't-tosh kasalligida buyuriladi. Revmatizm, bosh og'rig'ida, badan jarohatlanganida, lat yeganida bu o'simlikning galen preparatlaridan kompress qilib qo'yiladi.

Qariqiz efir moylari va qatron moddalarining yiring tug'diradigan har xil bakteriyalar va ichak tayoqchalariga qarshi ta'sir ko'rsatishi, o'simlik ildizlaridan suvda tayyorlangan ekstraktlarning siydik haydovchi xossalari borligi Toshkent farmasevtika institutida isbot qilib berilgan.

Tayyorlash va ishlatish usullari. 1. O'simlikning mayda to'g'ralgan ildizlaridan 1 oshqoshiq olib, ustiga qaynab turgan suvda 2 stakan quyiladi-da, 2 soat, damlab qo'yiladi, so'ngra suzib olib, 0,5 stakandan kuniga 3 mahal ichish uchun buyuriladi.

2. 1 oshqoshiq barglari ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, 1 — 2 soat damlab qo'yilganidan keyin suzib olinadi va ovqatdan keyin har 1 soatda 1 oshqoshiq dan ichiladi.

3. Hozir aytib o'tilgan damlamalarning o'zini, shuningdek, yangi barglari badan terisining yallig'langan yoki zararlangan joylariga qo'yiladi. Yangi barglari bo'lmasa, quritilgan barglarini oldin suvga solinib, ivitib qo'ygandan keyin ishlatish mumkin.

4. Mayda to'g'ralgan ildizlaridan 75 g miqdorda solib, 200 g miqdordagi paxta yoki kungaboqar moyiga solinadi-da, issiq joyga bir kecha-kunduz qo'yib qo'yiladi, so'ngra past olovda 15 minut qaynatib suzib olinadi, bu moyni badanga surtish uchun ishlatiladi.

5. Barg va ildizlari damlamasini og'iz, tomoqni chayish uchun ishlatish ham mumkin.

PASHA O‘T

PASHA O‘T – LABAZNIK VYAZOLISTNIY ILI TAVOLGA – FILIPENDULA UTMARIA



PASHA O‘T

Bu ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik ra‘noguldoshlar oilasiga kiradi va bo‘yi 80-120 sm bo‘ladi. O‘qildizi – sudraluvchi. Poyasi to‘g‘ri, qovurg‘ali, barglari qalin joylashgan, patsimon shaklda, tepasidan tekis, pastidan oq baxmal. Iyun-iyulda gullaydi. Gullari sanoqsiz oq, katta popuksimon gulto‘pga to‘plangan. Avgust-sentabrda urug‘i pishadi.

O‘qildizi tomirlari bilan, yerdan tepa qismi va guli dorivor xomashyo bo‘ladi. O‘qildiz kuzda yoki erta bahorda terib olinadi. Yerdan tozalanib, suvda yuviladi, salqinda yoyib quritiladi. Qopda yoki berk idishda 3 yil saqlanadi. Barglarni va gullarini gullaganda teriladi va quruq joyda quritiladi. Berk shishada yoki yog‘ochli idishda 1 yil saqlanadi. Uning yangi barglarini ovqatga qo‘shsa bo‘ladi.

Tomirida vitamin C, kumarinlar, fenolli birikmalar, fenolglikozidlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar va halkonlar bor. Tepa qismida esa vitamin C, fenol birikmalari, fenolglikozidlar, oshlovchi moddalar, oliy yog‘ kislotalari bor.

Pashao‘t dorivor vositalari quvvat oshiruvchi, bakteriosid, diuretik, tinchlantiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, burishtiruvchi, qon to‘xtatuvchi, o‘t haydovchi, antigelmetik ta’sirlarga ega, yana jigarni zaharli moddalardan zararlantirish xususiyatini kuchaytiradi.

Ichburug'da, epilepsiyada, asab buzilishlarida, revmatizmدا, podagrada, bo'yрак va siydik yo'llari shamollashida, xafaqon kasalligida, nafas yo'llarini kasalliklarida, bronxial astmada, surunkali xolesistitda, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning yara kasalligida, ichki a'zolarida kasalliklarni yo'qotish maqsadida iste'mol qilinadi. Trofik yaralarda, oddiy yaralarda, kuyganda, revmatizmدا, podagrada, ekzemada malhami qo'yiladi, shuningdek, oqchilda bosim ostida purkab yuviladi.

PETRUSHKA


PETRUSHKA – PETRUSHKA OGORODNAYA – PETROSELINUM CRISPUM

Botanik ta'rifi. Petrushka – bo'yi 100 sm ga qadar boradigan bir yillik yoki ikki yillik o'tsimon o'simlik. Ildizi duksimon, ba'zan ancha yo'g'onlashgan bo'ladi. Barglari – shaklan uchburchak taxlit, to'q yashil, ustki tomoni yaltiroq ildizyoni va poyasining pastki barglari uzun bandli. Gullari sarg'ish-yashil tusda, soyabonsimon murakkab to'pgullar hosil qiladi. Mevalari – uzunligi 3 mm cha keladigan kulrang-qo'ng'ir rangli, ikki urug'li.

Iyun-iyulda gullaydi, mevalari iyul-avgustda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Bu o'simlik O'rta Osiyoning hamma joylarida oshko'k tariqasida ko'p ekiladi.

Ishlatiladigan qismlari: Mevalari, goho barglari va ildizlari.



PETRUSHKA

Kimyoviy tarkibi. Petrushka mevalarida 6 foizgacha efir moyi, 22 foizcha yog‘li moy, flavonoidlar (apinin, diosmin, naringenin, lyuteolin, apinenin glikozidlari) bor. Barglarida efir moyi flavonoidlar va askorbin kislota, gullari bilan ildizlarida esa flavonoidlar bo‘ladi.

Ta’siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida petrushka urug‘laridan siydik haydaydigan va terlatadigan vosita tariqasida foydalaniladi, ularni hayz buzilib, og‘riq bo‘lib turadigan mahallarda, prostata bezi va qovuq yallig‘langan paytlarda buyuriladi. Yangi barglarini yanchib yoki paxtani barglari suviga ho‘llab turib hasharotlar chaqqan joylarga qo‘yiladi, badandagi sepkil va dog‘larni yo‘qotish uchun ishlatiladi. Sepkillarni yo‘qotish uchun petrushka qaynatmasiga limon suvi aralashtirib, ertalab va kechqurun yuz yuviladi.

Ibn Sino petrushka “bitib qolgan joylarni ochadi, odamni terlatib, og‘riqlarni bosadi, o‘smalar endi paydo bo‘lib kelayotganida ularni yo‘qotib yuboradi, nafas qiyinlashib, odam yo‘talganida yordam beradi, jigar va taloq uchun foydalidir, siydik haydaydi va hayzni qo‘zg‘atadi, bo‘yrak, qovuq va bachadonni tozalaydi” deb yozgan. Ibn Sino fikriga qaraganda, petrushka zaharlar kuchini qirqadigan xossalarga ega — ildizlaridan tayyorlangan qaynatma “dorilardan, qo‘rg‘oshindan o‘lar darajada zaharlanishda davo bo‘lib, naf beradi”.

Zamonaviy tabobatda petrushka mevalari tinktura ko‘rinishida yoki yig‘ma dorilar tarkibida bo‘yrak va yurak kasalliklariga aloqador shishlarga qarshi kuchli siydik haydaydigan vosita tariqasida ishlatiladi. Petrushkada talaygina askorbinat kislota borligi va efir moyining me‘da shirasi ajralishini kuchaytira olishi petrushkani gipoatsid gastritlar, astenik holatlarda qo‘llanishga imkon beradi.

Siydik-tosh kasalligi, sistitlar, ovqat hazmining buzilishi, bachadondan qon ketishiga davo qilishda petrushkani ishlatib, yaxshigina natijalar olingan. Jigar kasalliklari, ovqat yaxshi hazm bo'lmashligi va qorin dam bo'lgan paytlarda petrushka damlamasi durustgina naf beradi. Petrushka preparatlarining bachadon, qovuq va ichak muskullari kuchini oshirishi va peshobni ko'paytirishi hayvonlar ustidagi tajribalarda aniqlangan.

Tayyorlash va ishlatish usullari. 1. Yanchilgan petrushka urug'idan 1 choyqoshiq olib, ustiga 500 ml sovuq suv qo'yiladi-da, 8 – 10 soat qo'yib qo'yiladi, keyin suzib olib, yarim stakandan kuniga 3 mahal ichiladi.

2. Petrushka urug'larini ovqatdan yarim soat ilgari 0,5 g dan kuniga 3 mahal ichiladi.

3. Yanchilgan petrushka ildizidan (yoki ildizi bilan birga olingan o'tidan) 2 osh qoshig'i ustiga 2,5 stakan qaynoq suv quyib, 5 – 6 soat damlab qo'yiladi, keyin suzib olib, ovqatdan yarim soat ilgari 1 – 2 oshqoshiqdan kuniga 4 mahal ichish uchun buyuriladi.

ODDIY PECHAK **ODDIY PECHAK – PLYUSHCH OBIKNOVENNIY** **– HEDERA HELIX**

Bu yog'ochsimon liana araliylar oilasiga kiradi. Uzuniga 20 sm. poyasi judayam qo'shimcha tomirlar bilan shoxlangan. Barglari birin-ketin qalin chekkalari butun. Avgust-sentabr oyida gullaydi, soyabon gulto'plami. Gullari to'q siyohrang va katta boshga to'plangan. Oktyabrda meva qiladi, ular faqat janubda ikkinchi o'tib pishadi.

Bargi va po'sti dorivor xomashyo bo'ladi, barglari gullash davrida olinadi. Salqinda yoki quritkichda 50-60 °C haroratda



ODDIY PECHAK

quritiladi. Germetik idishda 1-2 yil saqlanadi. Po'sti bahorda olinadi, bo'laklarda bo'lib quyoshda yaxshilab quritiladi. Kartonli idishda 3 yil saqlanadi.

Pechak bargida efir moylari steroidlar, fenokarboli kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar, vitamin B turkumi, mineral tuzlar bor.

Po'stida kamed, triterponoidlar poliatsetatli bog'lamalar, vitaminlar, mineral tuzlar bor.

Pechakning vositalari yallig'lanishga qarshi, yo'talga qarshi balg'am ko'chiruvchi antibakteriyalar, zamburug'larga qarshi ta'sirga ega.

Bronxitda zotiljamda o'tkir gastritda, duodenida, jigar va o't yo'llari xastaligida, o'tkir va surunkali enterit va kolitda og'ir operatsiyadan keyingi davrida tetiklantiruvchi sifatida, bosh miya jarohatida, asteniya, jinsiy a'zolar shamollashida, oqchilda tashdan qo'llanadi. Kuyganlarni, qadog'i ko'p bo'lgan chipqonli streptodermiyalarni, boshning sochli joylari mikozinapedikulyozining qichishmasini davolashda, yara bitkazuvchi va antibakterial vosita sifatida ishlatilgan. Uni qo'llayotganda ehtiyot bo'lish kerak, chunki unda ko'p miqdorda zaharli moddalar bor, ayniqsa, mevalari toksik xususiyatga ega.

PECHAKSIMON BUDRA
PECHAKSIMON BUDRA – BUDRA
PLYUSHCHEVIDNAYA – GLECHOMA
HEDERACEA


Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik labguldoshlar oilasiga kiradi va bo'yi 60 sm bo'ladi. Poyasi to'rtburchakli, ildizga o'tib ketadi. Guli bor poyalari 50 sm. barglari bandli, to'g'rima-to'g'ri bo'yрак yoki yuraksimon, chekkalari siyrak junlari bor. Gullari ko'k yoki och siyohrang, ikki labli, noto'g'ri shaklda, bir nechta bo'lib to'plangan, barglari qo'ltig'ida joylashgan. Mevasi quruq 4ta yong'oqqa bo'linadi. Iyunda pishadi, apreldan boshlab avgustgacha gullaydi.

Yerdan tepa qismi dori xomashyo sifatida qo'llaniladi. Gullagan paytida teriladi, 5-10 sm yerdan tepalikda poyasi kesiladi, quyoshda so'litaladi va salqin joyda quritiladi. Tayyor bo'lgan xomashyo tatiganda achchiq va kuydiradi, berkitilgan idishda yoki kartonda 2 yil saqlanadi.

Budrada efir moyi, saponinlar, yelimlar, xolin, vitamin C, oshlovchi va achchiq moddalar bor.

O'simlik dori vositasi sifatida sklerozga qarshi, o't haydovchi, shamollashga qarshi, diabetga qarshi, balg'am ko'chiruvchi, antiseptik, yarani bitkazuvchi, ishtahani ochish, ishtahani yaxshilash va ichak muskullarini tetiklovchi xususiyatga ega.

Quyidagilarda ichiladi:
Bronxitda, bronxial astmada,



PECHAKSIMON BUDRA

pnevmoniyada, oshqozon, ichak shilliq pardalari, bo'yрак, o't pufagi, jigar, siydik pufagi shamollashlarida, Bo'g'inlar shamollashida, suyaklar singanda, teri kasalliklarda tashdan qo'llaniladi.

SARIQ NUFAR
SARIQ NUFAR – KUBISHKA JELTAYA
– NUPHAR LUTEA

O'simlik tasviri. Nimfiyadoshlar – Nymphaeaceae oilasiga mansub, bo'yi 1 m gacha bo'lgan ko'p yillik suv o'simligi. O'simlikning yer ostki qismida yarimtiniq, yupqa, biroz burishgan, suv ustki qismida esa suzuvchi barglari bo'ladi. Suv ustki barglari qalin, ellipssimon, chuqur yuraksimon asosli, tekis qirrali bo'lib, uzun bandi yordamida ildizpoyasiga birlashadi. Gullari yirik sharsimon, xushbo'y, sariq rangli va uzun bandli bo'lib suv betidan 5-6 sm ko'tarilib turadi. Mevasi – teskari noksimon, ko'p urug'li rezavor meva.

Iyun-sentabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

O'simlik zaharli!

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sibirdagi ko'llar, sekin oqadigan daryo bo'ylarida, bo'talar orasida va boshqa nam yerlarda o'sadi.


Qo'llaniladigan qismi. Ildizpoyasi. Uni o'simlik gullash davrida va mevalari pishganda ketmon, kurak panshaxa yordamida suv tagidan kovlab olinadi, suvda yuvib, yer ustki qismidan tozalanadi, mayda bo'laklarga bo'lib, quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizpoyasi tarkibida 0,4 % alkaloidlar (nuflein, tiobinufaridinlar va nufaridinlar),

18-44 % kraxmal, qandlar, 2,3 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Dori preparati lyutenurin, 0,5% li liniment sharcha-suppozitoriy va tabletka holida akusherlik ginekologiya amaliyotida kontraseptik (bo'yida bo'lishdan saqlovchi vosita sifatida hamda trixomonada kasalligini davolash uchun qo'llaniladi.

Ildizpoyasi qaynatmasi xalq tabobatida yo'talni va me'da spazmini davolash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, uning guli va urug'idan tayyorlangan qaynatmadan ham turli kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Gullarining qaynatmasi kuchli siydik haydovchi vosita sifatida bo'yрак kasalliklarida, ko'krak og'rig'i va tomoq qurib qolish hollarida, urug' qaynatmasi isitma kasalligida haroratni pasaytiruvchi dori sifatida ishlatiladi.



SARIK NUFAR

SARIQ CHOY

**SARIQ CHOY – REPESHOK OBIKNOVENNIY
– AGRIMONIA EUPATORIA**

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik, og'irgullar oilasiga mansub. Buyi 1 m. Poyasi to'g'ri, tukli, barglari novboyli uzunpaysimon. Iyun-iyul oylarida gullaydi. Gullari mayda, tillarang-sariq, uzunligi 30 sm gacha bo'ladi. Gullari yig'ilgan, ketidan urug'lari paydo bo'ladi, ular odamlar kiyimlariga va hayvonlar terisiga yopishib oladi.

Dorivor ashyosi o'simlik uni, ba'zida ildizi. Xomashyoni o'sayotgan davrda oldidan va gulayotgan davrida yig'ib



SARIQCHOY

olinadi. Bargli poyasiga yerdan 7-10 smdan yuqorisiga kesib olinadi. Soyada, naves tagida yoki quritgichda 40-50°C li temperaturada quritiladi. Yog'och idishda 2 yil saqlanadi.

O'simlikning tuproqdagi qismi tarkibida glyukoza, fruktoza, saxaroza, polisaxaridlar yog' va organik kislotalar, steroidlar azot tutuvchi barglar, fenolkarbon kislotalar, mast qiluvchi moddalar, katexinlar, flavonoidlar, achchiq va shilliq moddalar tutadi.

Sariqchoy preparatlari mikrobg qarshi, yallig'lanishga qarshi, tonusni oshiruvchi, siydik-o't haydovchi og'riq qoldiruvchi, qon to'xtatuvchi, gijjaga, ich ketishiga, o'smaga qarshi ta'sirlari ega.

Podagra revmatizm oshqozon-ichak kasalliklari jigar yurak kasalliklari, angina, furunkulyoz, o't-pufak yallig'lanishida qon ketishida, yaxshi va yomon sifatli o'smalar, yaxshi bitadigan yaralar, gemorroy, ichak politi, tonusni oshiruvchi vosita sifatida ichishga buyuriladi.

Xalq tabobati o'simlikni yerusti va ildiz qismi qaynatmasidan bo'yrakdan toshlarni haydashda qo'llash tavsiya qiladi.

Og'iz bo'shlig'ini ovoz boylamlarini chayqashda, teri kasalliklarida, tinish lateynda kompresslar qilish uchun ishlatiladi.

YOVVOYI SARIMSOQ

YOVVOIY SARIMSOQ – LUK MEDVEJIY – ALLIUM URSINUM, ALLIUM VICTORIALIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik lolagullilar oilasiga kiradi, piyozi bor va poyasi bo'yiga 60 sm gacha bo'ladi. Barglari ketma-ket keng nashtarsimon yoki ellipssimon uzun poyasini o'rgan qini bilan gullari oq, uchidan soyabon gulto'piga to'plangan. Mevasi uch qirrali ko'sakcha may-iyulda gullaydi, mevasi esa iyul-avgustda pishadi.

Dorivor xomashyo sifatida piyozi ishlatiladi.

Ularning tarkibida vitamin C limonga qaraganda 15-20 marta ko'p, efir moyi, alanin glikozidi, tabiiy antibiotik – lizosim bor.

Barglari yangi iste'mol qilinadi.

Uzoqroq ishlatish uchun tuzlanadi, quritiladi. Farmakologik ta'sir bo'yicha yovvoyi sarimsoqqa yaqin. Uni singada va aterosklerozda iste'mol qilishadi. U gijjaga qarshi ta'sir qiladi, ichakning qisqarishini kuchaytiradi, antimikrob xususiyatga ega. Qadimgi Rimda uni yaxshi oshqozon va qonni tozalovchi deb hisoblashgan. Xalq tabobatida ko'p davlatlarda haliyam teri toshmalarida va temiratkida qon tozalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Bodda va podagrada uning damlamasini bo'g'inlarga surtishadi. Uni yana terining yiringli kasaliklarini davolashda ishlatiladi.



YOVVOIY SARIMSOQ

DORIVOR SARSABIL


DORIVOR SARSABIL – SPARJA LEKARSTVENNAYA – ASPARAGUS OFFICINALIS

O‘simlik tasviri. Sarsabil piyozdoshlar – Liliaceae oilasiga mansub, bo‘yi 70-150 sm bo‘ladigan ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi bir nechta, tik o‘sovchi, sershox. Barglari o‘zgargan, tangachasimon. Yashilnamo sarg‘ish, bir jinsli, 6 ta gulbargli, gullari 1-2 tadan uzun bandi bilan tangacha barglari qo‘ltig‘iga joylashgan. Mevasi – qizil rangli, yumaloq shaklli, sershira, 6 ta urug‘li rezavor meva.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyun-iyulda pishadi.

Geografik tarqalishi. Sabzavot sifatida ko‘plab o‘stiriladi hamda Rossiyaning g‘arbi, Kavkaz va G‘arbiy Sibirda yovvoyilashgan holda uchraydi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda sarsabilning ildizpoyasi bilan ildizi va ba‘zan yosh novdalari (poyasi) ishlatiladi. Ildizpoyasi yo‘g‘on va gorizontal holda joylashgan bo‘lib, kuzda kovlab olinadi, suvda yuvib, tuproq va loydan tozalanadi hamda ochiq havoda quritiladi. Yosh novdalari yig‘iladi va quritmasdan yoki quritib ishlatiladi.



DORIVOR SARSABIL

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.

Sarsabil ildizpoyasi va ildizlari tarkibida saponinlar, asparagin, yosh novdalarida asparagin, karotin va boshqa moddalar bor.

Ildizpoyasi va ildizi qaynatmasi xalq tabobatida istisqo, qovuq yallig‘lanishi va siydik yo‘llarining boshqa kasalliklarini davolash uchun hamda siydik haydovchi va

yurak urishini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Sarsabil ekstraktining qon bosimini pasaytirish, yurak urishini yaxshilash va siydik haydash ta'siriga ega ekanligi tajribada aniqlangan.

Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalar natijasida sarsabil ekstrakti va o'simlikdan ajratib olingan asparagin moddasi qon bosimini pasaytirish, yurak urishini maromiga keltirish, periferik qon-tomirlarni kengaytirish va siydik haydash ta'siriga ega ekanligi aniqlangan. Shuning uchun sarsabil ildizpoyasi va ildizidan tayyorlangan ekstrakt ilmiy tibbiyotda bo'yurak va yurak kasalliklarida ishlatishga tavsiya qilingan.

ODDIY SACHRATQI **ODDIY SACHRATQI – SIKORIY OBIKNOVENNIY** **– CICHORIUM INTYBUS**

Bu ko'p yoki ikki yillik o'tsimon o'simlik murakkabguldoshlaroilasiga kiradi. Poyasi tik turadi, shoxlangan, yalang'och g'adir-budir. Barglari o'tirgan, poyani o'ragan nashtarsimon. Tomioldi barglari patsimon bo'lingan. Iyuldan boshlab kech kuzgacha gullaydi. Gullari och ko'k, barglari qo'ynida joylashgan, shoxning oxirida osilgan savatcha hosil qiladi. Mevasi urug'cha bo'lib avgustda pishadi. Bu o'simlikning hamma qismida sutli sharbat bor.

O'simlikning hamma qismi shifobaxsh xomashyo bo'ladi. Tomirlari kuzda yulinadi, tuproqdan tozalanib kesiladi va quritqichda yoki pechkada 60-70°C haroratda quritiladi. Tapa qismida esa gullaganda to'planadi. Poyasi bir nechta bo'laklarga bo'linib, quyoshda quritiladi. Qopda yoki berk idishda 2 yil saqlanadi.

Sachratqi ildizida qaynoq suvda eriydigan polisaxarid inulin bor. Glikozid intibin ildizga xos achchiq ta'm beradi.



ODDIY SACHRATQI

Unda yana vitaminlar C, B, E, xolin, oqsillar, yog'lar, pektin, oshlovchi moddalar, mineral tuzlar va ko'p miqdorda mikroelementlar bor.

Sachratqi vositasida mikroblarga va yallig'lanishlarga qarshi, o't va siydik haydovchi, tinchlantiruvchi, burishtiruvchi va ishtahani ochuvchi xususiyatlarga ega. U moddalar almashuvini me'yorlashtiradi, faoliyatini kuchaytiradi va terlashni pasaytiradi.

Oshqozonning shilliq pardalarini, ingichka va yo'g'on ichak, jigar, o't pufagi, bo'yрак kasalligida, o't va siydiktosh xastaligida, kuch beruvchi vosita sifatida va yurak xastaliklaridagi shishlarda ishlatiladi. Sachratqi, hazm qilishni yaxshilaydi, oshqozon-ichak yo'llarini, jigar, taloq sohalaridagi yomon hislarni bartaraf qiladi, ishtahani ko'taradi, siydikda, qand miqdorini, ko'tarilgan asabiy qo'zg'alishni tushiradi. Tashdan qaynatmasi teri toshmalarini, husnbuzarni, chipqonni, yiringli yaralarni, terining yiringli kasalliklarini, chilla yarani, bolalardagi diatezni davolashda malham, obzan va yuvish shaklida ishlatiladi. Kamqonlikda yangi o'simlik sharbati ichiladi.

SEBARGA, O'TLOQ SEBARGASI (QUSHQAROQ) SEBARGA – KLEVER LUGOVOY – TRIFOLIUM PRATENSE

O'simlik tasviri. O'tloq se bargasi dukkakdoshlar – Fabaceae oilasiga mansub, bo'yi 25-50 sm bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi ingichka, ko'tariluvchi sertuk. Barglari uch plastinkali, murakkab bo'lib, bandi yordamida poyasida ketma-ket o'rnashgan. Pastdagi barg bo'lakchalari tuxumsimon, mayda tishsimon qirrali, yuqoridagilari – cho'zinchoq, tekis qirrali. Pushti yoki qizil rangli, mayda, besh bo'lakli. Gullari boshqoqcha to'pguliga joylashgan. Mevasi – bir urug'li dukkak.



SEBARGA

April-sentabr oylarida gullaydi, mevasi iyun-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, O'rta Osiyo va Sibirdagi nam yerlarda, ariq va daryo bo'ylarida, daryo vodiylarida, begona o't sifatida bedapoyalarda, asosan tog' etaklari, adirlar va sug'oriladigan maydonlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida se barganing yer ustki qismi va guli ishlatiladi. O'simlik gullagan vaqtda uning yer ustki qismi yoki ayrim gullari yig'iladi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. O'tloq se bargasining yer ustki qismi tarkibida 262 mg % gacha C va B guruhdagi vitaminlar, 50 mg % gacha karotinooidlar, kumarinlar, 2,7 % flavonoidlar (trifolin, izotrifolin, kversetin izokversitrin,

kempferol, izoramnetin va boshqa) izoflavoklar (anokim, forkononetin, bioxanin A va boshqalar), 4,5% qandlar, 0,36 % antotsianlar, salitsilat va boshqa organik kislotalar, 5,6 % shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Sebarga tabobatda qadimdan turli kasalliklarni davolashda qo'llanib kelinadi. Abu Ali ibn Sino ham quritilmagan yer ustki qismi shirasi bilan o'z vaqtida yaralarni va ko'zga oq tushishini davolagan. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasini siydik yo'llari kasalligida siydik haydovchi dori sifatida ishlatgan.

O'tloq se bargasi guli va yerusti qismidan tayyorlangan qaynatma yoki damlamasi xalq tabobatida astma, ko'k'yo'tal, ko'krak qisishi, kamqonlik, gipyertoniya, bezgak, me'da yarasi, kuygan erlarni, xavfli shishlarni va shamollash kasalliklarini davolash uchun hamda balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi va antiseptik dori sifatida qo'llaniladi. Quritilmagan barg shirasi shirinchaga davo bo'ladi, bargini ezib yara va shishgan joyga bog'lanadi.

Ilmiy tibbiyotda se barganing yer ustki qismi siydik haydovchi vosita sifatida ishlatishga tavsiya etilgan (uning kuchli siydik haydash ta'siri borligi tajribada aniqlangan).

Se barganing yer ustki qismidan trizoflan preparati (flavonoidlar yig'indisi — so'mmasi) olingan va qonda xolesterin ko'paygan hollarida hamda ateroskleroz kasalligini davolash va oldini olishda ishlatiladi.

SIGIRQUYRUQ

SIGIRQUYRUQ – KOROVYAK SKIPETROVIDNIY – VERBASCUM THAPSIFORME

O‘simlik tasviri. Sigirquyruq turlari sigirquyruqdoshlar – Scrophulariaceae oilasiga mansub ikki yillik sertuk o‘t-o‘simlik. Birinchi yili faqat ildizoldi barglari, ikkinchi yili shoxlanmagan, bo‘yi 2 m ga yetadigan poya o‘tib chiqadi. Ildizoldi barglari bandsiz yoki qisqa bandli, tuxumsimon bo‘lib, poyadagilari bandsiz ketma-ket o‘rnashgan. Tilla-sariq rangli, besh bo‘lakli gullari shingil yoki shingillardan hosil bo‘lgan ruvak gulto‘plamini hosil qiladi. Mevasi – sertuk ko‘sakcha.


Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda etiladi.

Geografik tarqalishi. Sigirquyruq turlari Ukraina, Belorussiya, Rossiyaning Yevropa qismida Kavkaz, O‘rta Osiyo, Sibirdagi qumli yerlarda, o‘rmon chetlarida va aholi yashaydigan joylarda o‘sadi.

Tibbiyotda sigirquyruqning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

1 Chiroyli sigirquyruq – Korovyak velikolepniy – *Verbascum speciosum* Schrad; 2. Tupgulli sigirquyruq – Korovyak gustosvetkoviy (skipetrovidniy) – *V. densiflorum* Vertol; 3. Sertuk sigirquyruq. – Korovyak moxnatiy – *V. phlomoides* L. va 4. Oddiy sigirquyruq – Korovyak obiknovenniy – *V. thapsus* L

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda sigirquyruq turlarining guli ishlatiladi. O‘simlik qiyg‘os gullaganida faqat toj bargi terib olinadi va soya yerda yoki quritgichlarda quritiladi. Faqat bir kun gullaydi.



SIGIRQUYRUQ

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Sigirquyruq guli tarkibida triterpen saponinlar, 2,5 % shilliq modda, 11 % gacha qand, flavonoidlar, kumarinlar, efir moyi, karotin, bo‘yoq va boshqa moddalar bor.

Sigirquyruq gulining damlamasi balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo‘llari kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Gullari ko‘krak kasalliklarida ishlatiladigan choylar – yig‘malar tarkibiga kiradi.

SIYOHGUL SIYOHGUL – KASATIK GERMANSKIY – IRIS GERMANICA

Bu ko‘p yillik ko‘kimtir zangori o‘tsimon, sapsarguldoshlar oilasiga mansub bo‘lib, bo‘yi 30-90 sm bo‘ladigan o‘simlik, o‘qtomiri gorizontal, shoxlagan, oqqo‘ng‘ir, semiz, qattiq tugunakka o‘xshab kattaygan. Tik turuvchi silliq angoch, tepa qismida bukilgan, kalta ozgina shoxlari bilan, qo‘ynidan guloldi barglari chiqadi. Guloldi bargda to‘p bo‘lib to‘plangan. Poyasida va uning shoxlarida bittadan katta gul bor. Gullari yotgan desak ham bo‘ladi, oddiy gultojli gulkosachasi bilan. Gulkosaning naychasi uzun 1-2 sm atrofida, ustuncha bilan bir xil uzunlikda, gulkosa o‘rtacha oltita bo‘lakli, ikki dumaloqda joylashgan, oddiy shakllarda siyohrang rangida. Tashqi qismidagi gulbarglari egilgan, ichidagilar tik turadi, dumaloqroq, jinday



SIYOHGUL

tashidagilarga qaraganda ochroq, mevasi uzunchoq uchburchakli ko'sakcha. Iyunda gullaydi, avgustda urug'i pishadi. Shuningdek, tabobatda boshqa turlari ham ishlatiladi, bular — sapsargul (sariqgulli, oqishgul (och havorang gulli)).

O'qildiz tomirlari bilan dorivor xomashyo bo'ladi. Ular gullagandan keyin kech kuzda yoki erta bahorda olinadi. Sovuq suvda yuvib, oddiy usulda quritiladi, tayyor xomashyo xalqda binafsha hidli ildiz deb ataladi.

Ildizida efir moyi, iridin glikozidi, kraxmal yog'li moylar, oshlovchi moddalar, organik kislotalar bor.

Siyohgulning efir moyi balg'am ko'chirish xususiyatiga ega, bronxidlardagi shilimshiqlarning chiqishini yaxshilaydi, ko'z va burun shilliq pardalarini qitig'laydi va ularni shu bilan qizartirib yuboradi.


Siyohgul dori vositalarini bronxitda yana stomatologlar tishlarning chiqishini tezlatishda ishlatishadi. Xalq tabobatida binafsha hidli ildizni o'pka shamollashida, anginada, istisqoda, undan tashqari, yiringlagan yaralarni, oqmalarni davolashda va sepsillarni yo'qotish maqsadida ishlatiladi.

DORIVOR SOVUNAK

DORIVOR SOVUNAK — MILNYANKA

LEKARSTVENNAYA — SAPONARIA OFFICINALIS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik, karamgullilar oilasiga kiradi. O'qildizi shoxlagan, sudraluvchan, qizil kulrang. Poyasi tik turadi, tepa qismidan shoxlaydi. Barglari qarama-qarshi joylashgan, uzunchoq, nishtarsimon, chekkalari g'adir-budir. Barglarning bandi kalta, iyun-avgustda gullaydi. Gullari pushti yoki oq, qalqonsimon-popuksimon gulto'pga to'plangan. Mevasi — mayda, ko'p, bo'yraksimon qora urug'larga to'lgan ko'sakcha. Avgust-



DORIVOR SOVUNAK

sentabrda pishadi. O'simlik zaharli virusga qarshi ta'sirga ega.

O'qildizi va tomiri dorivor xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Kuzda olinadi, yeridan tozalanib, quyoshda yoki quritgichda quritiladi. Xomashyoning hidi o'tkir. Yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi.

Sovunak tarkibida, uglevodlar, saponinlar, pektinlar va shilimshiq bor. Uning damlamasi grammusbat va grammanfiy mikroblarga yuzaki ta'sir etadi va balg'amni suyultiradi va ko'chiradi.

Sovunak o't va siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, terlatuvchi, revmatizmga qarshi ta'sirlarga ega. Podagrada, bo'g'inlarda og'riqni

qoldiradi.

Uning vositalari bronxit va boshqa nafas yo'llari xastaliklarida ishlatiladi. Damlamasi har xil sababli shishlarni davolashda o't va siydik haydovchi sifatida qo'llaniladi. Teriga malhami qo'yilsa, uning tonusini va vazifasini me'yorlovchi ta'siri aniqlangan, shuning uchun uni tangachali temiratkini, chilla yarani, chipqonni davolashda yaxshi foyda beradi. Damlamasi bilan anginaning oldi olinadi va uni davolaydi. Tumovda uni burunga tomiziladi. Tish og'riganda tomirini chaynashadi. Sovunakni ko'p iste'mol qilganda ko'ngil aynishi, qayt qilish va qorinda og'riq bo'lishi mumkin. Bu hollarda vositani qo'llash to'xtatiladi.

ODDIY SUREPKA

ODDIY SUREPKA – SUREPKA OBIKNOVENNAYA – BARBAREA VULGARIS

Bu ikki yillik o‘simlik karamlar oilasiga kiradi, uni tik turadigan tepasi shoxlangan, bo‘yiga 60 sm gacha poyasi bor. Pastki barglari tepaga qaragan, patsimon bo‘lingan, oxirgi bo‘lak katta va uzunchoq. Tepadagi barglari o‘tirgan, tuxumsimon, chekkalari tishsimon qilib kesilgan, gullari oltin sariq, hidli, to‘rt gulbargli, shoxning oxirida qalin popukka to‘plangan. May-iyulda gullaydi. Mevasi to‘rt qirrali silindrik, to‘g‘ri (yoki egri) u tepaga qarab turadi, avgust-sentabrda pishadi.

O‘ti dorivor xomashyo hisoblanadi. Ular gullagan paytida to‘planadi, oddiy usul bilan quritiladi.

O‘simlik kuchli siydik haydovchi, qo‘zg‘atuvchi va yara bitkazuvchi ta’sir etadi. Xalq tabobatida istisqoda va falajlikda qo‘llashadi. Jinsiy faoliyatni kuchaytiradi va uning barglarini bahorgi vitaminli salat tariqasida ishlatsa bo‘ladi.



ODDIY SUREPKA

TOG'JUMRUT
TOG'JUMRUT – JOSTER SLABITELNIY
– RHAMNUS CATHARTICA



TOG'JUMRUT

Chilonjiydadoshlar (Jumrutdoshlar) – Rhamnaceae oilasiga mansub, bo'yi 3 – 8 m ga yetadigan bo'ta yoki daraxt. MDH davlatlari Yevropa qismining janubiy hududlari, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va G'arbiy Sibirdagi tog' yonbag'irlari, o'rmonlar (archazor va yong'oqzorlar)da, bo'talar orasida, daryo vodiylari va suv yoqalarida o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida antraglikozidlar, flavonoidlar, organik kislotalar, qandlar, peptin va boshqa moddalar bor. Mevasining damlamasi va qaynatmasi yumshoq surgidori sifatida qabziyatda iste'mol qilinadi. Mevasi surgil choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

TANGUT RAVOCHI
TANGUT RAVOCHI – REVEN TANGUTSKIY
– RHEUM PALMATUM

O'simlik tasviri. Tangut ravochi torondoshlar – Polygonaceae oilasiga mansub, bo'yi 1,5-2 m bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, yo'g'on, bo'g'inli va kam shoxli. Ildizoldi barglari yirik, sershira va yo'g'on, uzun (30 sm.gacha) bandli, keng tuxumsimon, besh-yetti bo'lakli, poyadagi barglari maydaroq bo'lib, kalta bandi yordamida poyaburunlariga ketma-ket o'rnashgan. Och-

pushti yoki qizil rangli, oltin toj bargli, mayda gullari ruvak gulto'plamini hosil qiladi. Mevasi – qizil-qo'ng'ir rangli, uch qirrali pista.

Iyun oyida gullaydi, mevasi iyulda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Vatani Xitoyning tog'li hududlaridagi o'rmonlar. Moskva, Voronej, Novosibirsk va Kirov viloyatlarida, Belorussiya va Ukraina respublikalarida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda tangut ravochining ildizi ishlatiladi. Plantatsiyalarda o'simlik 4-5 yoshga to'lgandan so'ng kuz oylarida (urug'i yig'ib olingandan so'ng) yer ostki organlari kovlab olinadi, suv bilan yuvib tuproq va loydan tozalanadi, yiriklarini mayda bo'laklarga qirqib, havo kirib turadigan joyda yoki chordoqlarda 10-15 kun davomida yoyib so'ltiladi. So'ngra harorati 40°C li quritgichlarda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tangut ravochi ildizi tarkibida 6-12 % tanoglikozidlar, 3,4-6% antratsent unumlari (xrizofanein, glyukoreum-emodin, glyukoaloeemadin, reoxrizin, ryonn, direin, sennozidlar va boshqalar), smolalar, kraxmal, pektin va boshqa moddalar.

Dorivor preparatlari (ildiz kukuni va uning tabletkasi, quruq ekstrakti, sharbati) surunkali me'da-ichak kasalliklarida ichni yumshatish uchun, ichak atoniyasida va gaz to'planib qolganda qo'llaniladi. Bu preparatlar kam dozada (0,05-0,2 g) qabul qilinsa, ichni qotiradi, ko'p miqdorda (0,5-2,0 g) qabul qilinganda esa ichni yumshatadi.

O'rta Osiyo xalq tabobatida ravochning quyidagi uch turi qo'llaniladi:

Maksimovich ravochi (cho'l chuhrasi) – Reven Maksimovicha – R. maximowiczu Los, Tatar ravochi - Reven tatarskiy - I. tataricum L, Turkiston ravochi (tuyayaproq) – Reven turkestaniskiy – R. eurkesseankum Janmsch.

O‘simlik tasviri. Ravochning bu turlari ham yirik bargli, bo‘yi 30-100 sm gacha bo‘lgan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi yo‘g‘on, ko‘p qirrali, burunli, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi to‘pbarglari dumaloq, bo‘yraksimon, kalta yo‘g‘on bandli. Poyasidagi barglari maydaroq bo‘lib, kalta bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Och-yashil yoki sarg‘ish gullari ruvakka joylashgan. Mevasi – uch qirrali, qizil-qo‘ng‘ir rangli pista.

Aprel-iyul oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Ravochning bu turlari O‘rta Osiyodagi cho‘l va qumli dashtlarda, tog‘li hududlarda, tog‘larning o‘rta qismigacha bo‘lgan o‘tli yoki mayda toshli qiyaliklarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Xalq tabobatida ravoch turlarining mevasi va yerosti organlari ishlatiladi. O‘simlik mevasi pishgandan so‘ng yig‘iladi va ochiq havoda – quyoshda quritiladi. Ildizi mevasi pishib, to‘kilgandan so‘ng kovlab olinadi, suv bilan yuvib tuproqdan tozalanadi, yiriklari mayda qismlarga qirqiladi va ochiq havoda – quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ravoch turlarining mevasi tarkibida 2,49-18 % oshlovchi moddalar, ildizida 7-25 % gacha oshlovchi moddalar, anratsen unumlari (xrinafanol, emodin va boshqalar), gallat kislota, pirogallol, pirokatexin, uglevodlar, bo‘yoq moddalar va boshqa birikmalar bor. Ravoch bargi organik kislotalarga boy.

Ravoch turlari O‘rta Osiyo tabobatida qadimdan qo‘llaniladi. Abu Ali ibn Sino ravochni chechak, vabo, qizamiq kasalliklariga davo qilgan. Ravoch ildizini ichak, bo‘yrak, qovuq va bachadon kasalliklarida og‘riq qoldiruvchi, qon oqishi va ich ketganda ularni to‘xtatuvchi dori sifatida ishlatgan.

Ravoch turlarining ildizi va mevasidan tayyorlangan qaynatma bilan xalq tabobatida isitma va me‘da-ichak (ich

ketish) kasalliklari davolanadi hamda ichdan qon ketishini to'xtatish uchun qo'llaniladi. Ravoch ildizini sutda qaynatib tayyorlangan qaynatmasi bilan me'da-ichak va yurak kasalliklari davolanadi.

Ravoch turlarining poyasi, barg bandi ishtaha va ko'ngil ochadigan mahsulot sifatida iste'mol qilinadi.

Ilmiy tibbiyotda ich ketishini davolash uchun ravoch turlarining ildizidan tayyorlangan qaynatma va mevasidan tayyorlangan ekstrakt ishlatiladi.

Ravoch preparatlarini tayyor holda dorixonalardan ham olish mumkin.

QORATERAK (MIRZA TOG'LI, BAQATERAK) QORATERAK – TOPOL CHERNIY – POPULUS NIGRA

O'simlik tasviri. Toldoshlar – Salicaceae oilasiga mansub, bo'yi 25 m gacha o'sadigan daraxt. Tanasi yo'g'on xira kulrang tusli po'stloq bilan qoplangan. Barglari uchburchak tuxumsimon, mayda arrasimon qirrali bo'lib, uzun bandi yordamida shoxlarida ketma-ket o'mashgan. Kalta novdalaridagi barglari to'rtburchak shaklda, asos qismi ponasimon, arrasimon qirrali yoki ko'pincha tekis qirrali. Mayda, bir jinsli gullari qoplovchi tangachalar qo'ltig'iga joylashgan kuchalaga to'plangan. Mevasi – pishganda 2-4 pallaga bo'linadigan, ko'p urug'li ko'sakcha.



QORATERAK

Mart-aprel oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlari Yevropa qismining janubida, Kavkaz va O'rta Osiyoda o'sadi. Manzarali daraxt sifatida shahar va qishloqlarda o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Barg kurtagi. Uni erta bahorda (mart-aprel oylarida), kurtaklar shishgan vaqtida, lekin hali barg chiqarmasdan oldin yig'iladi. Kurtaklar oldin soya yerda so'lilib, keyin quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Barg kurtagi tarkibida 0,3-0,7 % efir moyi, salisin, populin va xrizin glikozidlari, olma va boshqa kislotalar, smolalar, oshlovchi, bo'yoq va boshqa moddalar bor.

Barg kurtagining efir moyi yoqimli balzam hidli yarimqattiq massa bo'lib, kariofillen, diterpen, sineol, seskviterpen, populen va boshqa birikmalardan tarkib topgan.

Qoraterak bargi tarkibida salitsin glikozidi, 150-285,7 % vitamin C, 33,69 mg % karotin, efir moyi va boshqa moddalar bor.

Barg kurtagining damlamasi isitmada haroratni pasaytiruvchi, tinchlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi va og'riq qoldiruvchi (og'rigan bo'g'inlarga ekstrakti yoki ekstraktdan tayyorlangan surtma surtiladi) vosita sifatida qo'llaniladi. Kurtak nastoykasi bakteritsid ta'sirga ega. U trixomonada kolpitini davolash uchun ishlatishga tavsiya etilgan.

Qoraterak barg kurtagiga sirka qo'shib tayyorlangan nastoykani Abu Ali ibn Sino podagra kasalligida og'rigan bo'g'inlarga surtishni buyurgan.

Barg kurtagidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida isitma ko'tarilganda haroratni pasaytiruvchi va yurak faoliyatini yaxshilovchi vosita sifatida ishlatiladi. Terakning barg kurtagidan va bargidan tayyorlangan damlama va surtma dori podagra, bod, bavoil kasalliklarini hamda terining

kuygan joyini davolash uchun qo'llaniladi. Quritilmagan bargi bilan yaralar davolanadi, quritilgan barg qaynatmasi zaxm kasalligiga, barg kukuni xavfli o'smalarga (rak kasalligiga) davo qilinadi.

Qoraterak barg kurtagina efir moyi parfyumeriyada ishlatiladi.

TIZIMGUL

TIZIMGUL – VERBENA LEKARSTVENNAYA – VERBENA OFFICINALIS

O'simlik tasviri. Tizimgul tizimguldoshlar – Verbenaceae oilasiga mansub, bo'yi 30-70 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, shoxlangan. Barglari tuxumsimon, cho'ziq tuxumsimon yoki cho'ziq nishtarsimon bo'lib, chetlari patsimon qirqilgan (poyasining o'rta qismidagilari uch bo'lakka qirqilgan, eng yuqoridagilari qirqilmagan, tekis qirrali), poyasi va shoxlarida bandsiz qaramaqarshi o'rnashgan. Mayda, oqish rangli, besh bo'lakli gullari poyasi uchidagi boshhoqlardan tashkil topgan ruvakka joylashgan. Mevasi – 4 ta yong'oqchaga bo'linadigan quruq meva.

April-sentabr oylarida gullaydi, mevasi may-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Tizimgul MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, O'rta Osiyodagi tog' etaklari, tog'larda, tekisliklarda, ariq bo'ylarida va yo'l yoqalarida, begona o't sifatida bog'larda, ekinzorlarda o'sadi.



TIZIMGUL

Qoʻllaniladigan qismi. Xalq tabobatida tizimgulning yer ustki qismi ishlatiladi. Uni oʻsimlik gullagan vaqtida oʻrib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida glikozidlar (verbenalin va boshqalar), saponinlar, alkaloidlar, kamfora hidli efir moyi va boshqa moddalar bor.

Yer ustki qismi qaynatmasi xalq tabobatida turli kasalliklar (bosh va qorin ogʻrigʻi, isitma, taloq shishi, qoʻtir, turli shishlar, koʻkargan joylar)ni davolashda hamda siydik haydovchi, yaralarni davolovchi vosita sifatida ishlatiladi.

TILLABOSH

TILLABOSH – ZOLOTOTISYACHNIK OBIKNOVENNIY – CENTAURIUM ERYTHRAEA

Oʻsimlik tasviri. Erbahodoshlar – Genetianacea oilasiga mansub, boʻyi 5-40 sm keladigan bir yoki ikki yillik oʻt-oʻsimlik. Poyasi tik oʻsadi, shoxlanmagan yoki asos qismidan boshlab shoxlangan (chiroyli tillaboshda), toʻrt qirrali. Ildizoldi toʻpbarglari (chiroyli tillaboshda boʻlmaydi) va poyasidagi barglari teskari tuxumsimon yoki lansetsimon, oʻtmas va oʻtkir uchli, 3-5 ta parallel joylashgan asosi tomirli boʻlib, poyasidan bandsiz qarama-qarshi oʻrnashgan. Qizil gullari qalqonsimon toʻpgulga joylashgan. Mevasi – silindsimon, koʻp urugʻli, ikki xonali koʻsak.

Iyun oyidan kuzgacha gullaydi va mevasi yetiladi.

Qoʻllaniladigan qismi. Ikki turining: Chiroyli tillabosh – zolototisyachnik krasiviy – *S. pulehellum* (Sw.) Druce va Kichik tillabosh – zolototisyachnik maliy – *S. minus* Moench yoki *S. umbellatum* Cilib ning yer ustki qismi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Oʻrta Osiyo, Qozogʻiston va Oltoydagi nam oʻtloqlarda,

daryo, ariq va ko'l bo'ylarida, o'rmon chetlarida, tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan nam yerlarda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi, tarkibida 0,6 % gensivnin alkaloidi, achchiq glikozidlar (gensiopikrin, yeritrosentaurin, sentapikrin), flavonoidlar, fenolkarbon kislotalar, vitamin C va boshqa moddalar bor.

Damlamasi ishtaha ochish va ovqat hazmini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi ishtaha ochadigan achchiq nastoyka va ishtaha ochuvchi choylar — yig'malar tarkibiga kiradi. Uni odatda o'simlik gullagan paytda yig'ib olinadi.

Xalq tabobatida tillabosh yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma jigar va o't yo'llari kasalliklarida, isitma, shamollashda, jig'ildon qaynashi va me'da shirasi kislotaliligi oshib ketganda buyuriladi.



TILLABOSH

TOG' ARNIKASI **TOG' ARNIKASI — ARNIKA GORNAYA** **— ARNIKA MONTANA**

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik qo'qongullar oilasiga kiradi va bo'yiga 20-60 sm bo'ladi. Ildizlari katta, jigarrang, yerga 3 sm chuqurlikka kiradi. Poyasi tik turadigan, bo'yi 25-70 sm, poyasi va to'la barglari bilan tomirga yaqin barglari



TOO' ARNIKASI

uzunchoq, to'q zangori to'pbarg hosil qilishadi. Poyasi va yonidagi shoxlari sariq jigarrangroq savatcha bilan tugaydi. Har bir o'simlikda 1-5 savatcha bo'ladi. Iyun-iyulda gullaydi.

Guli ayrim hollarda o'ti va ildizi dori vositasi bo'ladi. Gullari to'liq ochiladi. Ochiqlikda, salqinda 7-10 kun yoki 50-60°C haroratda quritqichda quritiladi. Quritish vaqtida vosita ag'darilmaydi, chunki savatcha maydalanishi mumkin. Xomashyoni 2 yil saqlasa bo'ladi.

Gulida quyidagilar bor: arnitsin, efir moyi, oshlovchi moddalar, asorbin kislotasi, karotinoid, alkaloidlar, fitosterinlar, yog'li moy, shakar, yelimlar, mum, kamed, achchiq modda.

Arnikada tayyorlangan dori arterial bosimni tushiradi, safro chiqishini kuchaytiradi, qonda xolesterin miqdorini tushiradi.

Yurak kuchsizligida, aterosklerozda, xafaqonlikda, stenokardiyada, safro haydash uchun ichiladi. Lat yeganda, shilinganda, ko'karganda, mayda yaralarda, furunkullarda, trofik yaralarda, kuyganda, muzlaganda, malham qilib qo'llaniladi.

TOG‘JAMBIL
TOG‘JAMBIL – TIMYAN OBIKNOVENNIY
– THYMUS VULGARIS

O‘simlik tasviri. Tog‘jambil turlari yasnotkadoshlar (labguldoshlar) – Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub yarimbo‘ta. Poyasi tik yoki sudralib o‘sadi, shoxlangan, yuqori qismi va shoxlari to‘rt qirrali. Barglari ellipssimon, cho‘ziq ellipssimon yoki nishtarsimon, tekis qirrali (oddiy jambil bargining osti pastga qayrilgan, cho‘ziq) bo‘lib, qisqa bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida qarama-qarshi o‘rnashgan. Mayda, binafsha-qizil rangli, besh bo‘lakli, ikki labli gullari shoxlari uchidagi barg qo‘ltig‘ida to‘p-to‘p joylashib, shingil yoki boshqoq gulto‘plamini hosil qiladi. Mevasi – 4 ta yong‘oqcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda yetiladi.

Tibbiyotda ikki turi ishlatiladi: Oddiy tog‘jambil – Timyan obiknovenniyy – *Th. vulgaris* L bo‘yi 50 sm gacha bo‘ladigan o‘simlik.

Geografik tarqalishi. Vatani Ispaniya va Fransiyaning janubi, MDH davlatlarida, Krasnodar o‘lkasida, Qrim, Ukrainaning janubida va Moldaviyada o‘stiriladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda oddiy tog‘jambilning yer ustki qismi va undan olinadigan efir moyi ishlatiladi. O‘simlik gullagan vaqtida yer ustki qismi o‘rib olinadi, soya



TOG‘JAMBIL

yerda quritiladi. Soʻngra maydalanadi, sim gʻalvirda elab, yogʻochlangan poya va yirik shoxlardan tozalab olinadi. Efir moyi olish uchun yer ustki qismi quritilib yoki quritilmay zavodlarga yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Oddiy togʻjambil yer ustki qismi tarkibida 0,8-1,2 % efir moyi, triterpen saponinlar, ursol, oleanol, kofe, xlorogok va boshqa kislotalar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi 25-60% fenollar (timol va qisman karvakrol), simol, linen, borneol va boshqa terpenlardan tashkil topgan.

Efir moyi dezinfeksiyalovchi va antiseptik vosita sifatida ogʻiz va tomoq shilliq pardalari kasalligida dezinfeksiya qilish uchun qoʻllaniladi. Suyuq ekstrakti bronxit kasalligida balgʻam koʻchiruvchi vosita sifatida hamda koʻkyoʻtalni davolash uchun ishlatiladigan pertussin preparati tarkibiga kiradi. Efir moyidan timol olinadi. Efir moyi yana Gartman suyuqligi tarkibiga kiradi. Timol tibbiyotda ogʻiz shilliq qavatini dezinfeksiya qiluvchi va tish ogʻrigʻini qoldiruvchi, terining zamburugʻ kasalliklarini davolash hamda gijjalarni (ankilostoma va qilbosh gijjalarni) haydash uchun qoʻllaniladi.

Sudralib oʻsuvchi togʻjambil (chabres) – Timyan polzuchiy (chabres) – *Th. serpyllum* L. Sudralib oʻsuvchi yarimboʻta.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismidagi oʻrmon, oʻrmon-choʻl zonalarining qum tuproqli yerlarida hamda Gʻarbiy Sibir, Baykal koʻli atrofida Kavkaz va boshqa yerlarda oʻsadi.

Qoʻllaniladigan qismi. Sudralib oʻsuvchi togʻjambilning yer ustki qismi ishlatiladi. Oʻsimlik gullaganda ustki qismi oʻrib olinadi, soya yerda quritiladi. Soʻng maydalab, simgʻalvirda elanadi, yogʻochlangan poya yirik shoxlari tashlab yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Sudralib oʻsuv togʻjambilning yer ustki qismi tarkibida 0,5-1 % ef moyi,

flavonoidlar, ursol va oleanol kislotalar, achchiq oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi 35 % ga fenollar (timol fenollarning 60 % ni tashkil qiladi va karvakrol), simol, borneol, terpinen va bosh terpenoidlardan tashkil topgan.


Yer ustki qismi damlamasi bronxit va yuqori nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi, radikulit nevrit kasalliklarida og'riq qoldiruvchi vosita sifatda qo'llanadi. Suyuq ekstrakti — pertussin tarkibi balg'am ko'chiradi. Yer ustki qismi balg'am ko'chiruv yig'malar — choylar tarkibiga kiradi.

ODDIY TOG'RAYHON **ODDIY TOG'RAYHON – DUSHISA** **OBIKNOVENNAYA – ORIGANUM VULGARE**

O'simlik tasviri. Bo'yi 30-60 sm bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bir nechta bo'lib, tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan, to'rt qirrali. Barglari cho'ziq tuxumsimon, o'tkir uchli, tekis yoki bilinar-bilinmas tishsimon qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida qapamaqarshi o'rnashgan. Mayda, och qizil gullari barg qo'ltig'ida 2-3 tadan joylashib, poyasi bilan shoxlari uchidagisi ruvaksimon gulto'plamni hosil qiladi. Mevasi — kosachabarg bilan birlashgan to'rtta yong'oqcha.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Sibirning janubiy hududlari, qisman Qozog'iston va Qirg'izistondagi quruq, ochiq o'tloqlar, o'rmon va o'rmon atroflarida, tepaliklar, qiyaliklar, toshloqlar hamda bo'tazorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. Uni o'simlik gullagan vaqtda yig'ib olinadi va soya yerda quritiladi.



ODDIY TOG'RAYHON

Timol tish og'rig'i qoldiruvchi Gartman suyuqligi tarkibiga kiradi.

Tog'rayhon turlarining damlamasi xalq tabobatida yo'tal, nafas qisishi va o'pka silida yo'talni yengillashtiruvchi, balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida hamda me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qisman tarkibida 0,12-1, 2 % efir moyi, 565 mg % ga vitamin C, triterpen kislotalar, oshlovchi moddalar urug'ida 28 % gacha yog' bor. Efir moyi 44 % gacha fenol (timol, karvakrol) va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Har ikkala turining yer ustki qismidan tayyorlangan damlama, suyuq ekstrakti va turli yig'malar — choyi tarkibida nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chirish, ichak peristaltikasini yaxshilash, ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash, siydik haydash uchun qo'llaniladi.

Efir moyidan timol olinadi. Timol og'iz shilliq qavatini dezinfeksiya qilish va tish og'rig'ini qoldirish hamda terining zamburug' kasalliklarini davolash, ba'zan gijjalarni (ankilostoma va qilbosh gijjalarni) tushirish uchun ishlatiladi.

DORIVOR (ODDIY) TOLOKNYANKA
DORIVOR – TOLOKNYANKA OBIKNOVENNAYA
– ARCTOSTAPHYLOS UVA-URSI

O'simlik tasviri. Dorivor toloknyanka erikatsiyadoshlar – ericaceae oilasiga mansub, bo'yi 25-30 sm keladigan doim yashil bo'ta. Barglari qalin, teskari tuxumsimon, tekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Oq (yuqori qismi pushti) rangli, besh tishli gullari egilgan shingil to'pguliga joylashgan. Mevasi – qizil rangli, besh urug'li, yeb bo'lmaydigan rezavor meva.



DORIVOR (ODDIY)
TOLOKNYANKA

May-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Sharqni Sibir va Uzoq Sharqdagi quruq qumli qarag'ayzorlarda, tog'li yerlarda hamda ochiq, qumli joylarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda toloknyankaning bargi va bargli yosh novdalari ishlatiladi. O'simlik gullagan vaqtida bargli shoxchalari qirqib olinadi, undagi o'tgan yildagi qo'ng'ir barglarini terib tashlab, ochiq yerda quritiladi. Quritilgan barglar qo'lda terib olinadi yoki shoxchalarni maydalab, simg'alvirda elanadi, yirik shoxlari tashlab yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Toloknyanka bargi tarkibida 8 %, ba'zan 16-25 % gacha arbutin va metilarbutin glikozidlari, 30-35 % oshlovchi moddalar, 6,1 % gallat, elag, xin, ursol kislotalar, flavonoidlar

(giperozid, kvertsetin, kversitrin va boshqalar), gidroxinok, katexin, antotsianlar va boshqa birikmalar bor.

Barg qaynatmasi siydik yo'llari va qovuq kasalliklarida (sistit, uretrit va boshqa) dezinfeksiya qilish hamda siydik haydash uchun qo'llaniladi. Bargi siydik haydovchi choylar – yig'malar tarkibiga kiradi. Keyingi vaqtlarda toloknyankaning yosh novdalari bargi bilan birga ishlatila boshlandi. Uni dorixonadan olish mumkin.

TORBAGLI BARGISURX

**TORBAGLI BARGISURX – KIPREY UZKOLISTNIY
ILI IVAN-CHAY – CHAMAENERIUM
ANGUSTIFOLIUM**



TORBAGLI BARGISURX

Bu ko'p yillik bachki ildizli o'tsimon o'simlik bargisurxlar oilasiga kiradi va bo'yi 150 sm gacha bo'ladi. Barglari birin-ketin joylashgan, ko'p nishtarsimon, gullari katta, qizg'ish binafsha rangli, to'rtbo'lakli gulkosalari, kalta naychasi va noto'g'ri gultojsi bilan. Gulto'p – oxiri siyrak uzun popuk. Iyun oxiridan avgust oxirigacha gullaydi. Mevasi – ko'sakcha judayam ko'p urug'lari bilan uzun qo'zoqcha shaklida.

Yerdan tepa qismi, bargi va ba'zida ildizi dorivor xomashyo hisoblanadi. Xomashyoning yashil o'ti gullaganda issiq havoda to'planadi. Salqin joyda quritiladi, tomiri kuzda olinadi. Oddiy usul bilan quritiladi.

Yangi ildizlar shirin, uni yesa bo‘ladi, pishirish mumkin. Barglaridan “koporli choy” tayyorlanadi. Xomashyoda ko‘p miqdorda tinn, oshlovchi moddalar, shilimshiqlar, alkaloidlar, vitamin C, A, shakar, pektin, mikro-va makroelementlar bor.

Bargisurxning dorivor vositalari yallig‘lanishga qarshi, o‘rab oluvchi, tinchlantirish, uxlatuvchi, tutqanoqqa qarshi, o‘smalarga qarshi xususiyatlarga ega.

Ich ketish bilan kuzatilayotgan enterokolitda, surunkali gastritda, kolitlarda, oshqozon va o‘n ikki barmoq yarasida, uyqusizlikda, bosh og‘rig‘ida iste‘mol qilish mumkin, undan tashqari anginada, stomatitda, shirinchada, furunkullarda, yaralarda g‘ar-g‘ara qilish va malham sifatida ishlatish mumkin.

TOSHYORUVCHI-BEDRENES
TOSHYORUVCHI-BEDRENES
– BEDRENES-KAMNELOMKA – PIMPINELLA
SAXIFRAGA

Bu ko‘p yillik o‘t-o‘simlik bo‘yiga 50 sm bo‘lib, soyabonguldoshlar oilasiga kiradi. Tomiri – ko‘p shoxli qo‘ng‘ir. Ildizi – tekismas, ajinli. Poyasi ichidan quruq, tashidan tuk bilan qoplangan ipsimon jo‘yakchasi bor. Pastki barglari oddiy, patsimon, alohida barglari tuxumga o‘xshash va changdonsimon. Tepadagi barglari ko‘pincha rivojlanmagan va uch parrakli. Iyuldan oktabrgacha gullaydi. Gullari oq soyabon hosil qiladi.

Ildiz va tomirlari dori xomashyo sifatida ishlatiladi. Sentabr-oktyabr yoki yerta bahorda tayorlanadi. Yerdan tozalanadi va quritiladi, albatta salqinda yoki quritqichda 45°C issiqlikda quritilgandan keyin xomashyo hidli va



*TOSHYORUVCHI-
BEDRENES*

achchiqroq ta'mli bo'ladi. Yaxshi bekitiladigan idishda 2 yilgacha saqlanadi.

Bedrenesda: saponinlar, yelimlar, oshlovchi moddalar, efir moylari, kislotalar va achchiq moddalar bor.

O'simlikning dorivor vositalari: shamollashga qarshi, siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega.

Nafas yo'llari shamollashlarida, bronxial astmada, gastritlarda, ich qotishda, gazlar to'planganda va hazm bo'lish buzilishida, bo'yрак va siydik pufagi xastaliklarida, siydik-tosh kasalligida, qon yurishi susayishi oqibatidagi shishlarda va asab tizimini tinchlantiruvchi sifatida ularni ichish mumkin. Tomoq shamollashlarida g'arg'ara qilish mumkin.

TUKSIZ SALMINGUL (XERNIARIYA)
TUKSIZ SALMINGUL (XERNIARIYA) – GRIJNIK
GLADKIY – HERNIARIA GLABRA

Kavkaz, Sibir va O'rta Osiyoning Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari tog'li hududlarida, tog'larining o'rta qismidagi quruq kengliklarda o'sadi.

Xerniya bir yoki ko'p yillik, bo'yi 5-15 sm gacha yetadigan o't-o'simlik. Poyasi asos qismidagi boshlab shoxlangan. Bargi teskari tuxumsimon, tüksiz, o'tmas uchli

bo'lib, poyada qisqa bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, barg qo'ltig'iga o'rnavgan. Mevasi bir urug'li, pishganda ochilmaydigan ko'sakcha.

Iyun-avgust oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

O'simlik gullash davrida yer ustki qismini yig'ib olinadi va soya yerlarda quritiladi.

Xerniya tarkibida kumarinlar (kumarin-umbelliferon va gerinariy), flavonoidlar, uch terpinli saponinlar, efir moyi, oz miqdorda alkaloidlar va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlanadi, damlama istisqo kasalligida siydik haydovchi dori sifatida, sariq, siydik yo'llari yallig'lanishi, zaxm, o'pka, me'da va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. O'simlikdan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv qo'yib, ustiga o'simlikning quritilgan va maydalangan yer ustki qismidan 20 g solinadi va damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, damlamadan kuniga 3-4 mahal bir oshqoshiqdan ichiladi.



*TUKSIZ SALMINGUL
(XERNIARIYA)*

DUMALOQ BARGLI ROSYANKA **DUMALOQ BARGLI ROSYANKA – ROSYANKA** **KRUGLOLISTNAYA – DROSELA ROTUNDIFOLIA**

Bu ko'p yillik hashoratxo'r o'simlik rosyankalar oilasiga kiradi va bo'yiga 10-20 sm bo'ladi. Poyasi tik turadi, bargsiz, barglari tepasi oldida uzun baland soch bilan qoplangan



DUMALOQ BARGLI
ROSYANKA

ularga hasharotlar va boshqa umurtqasizlar yopishadi. Ishlab chiqariladigan fermentlar ta'sirida ular parchalanadi va o'simlik bilan hazm qilinadi. Iyun-avgustda gullaydi. Gullari oq mayda poyasi tepasida oz guli popukka to'plangan. Mevasi uzunchoq uch tavaqali ko'sakcha. Urug'i ingichka kulrangroq qo'ng'ir duksimon. Avgust-sentabrda pishadi.

Yerdan tepa qismi dorivor xomashyo bo'ladi. Gullaganda tomiroldi bak tupi bilan olinadi. Salqin joyda yupqa qilib yoyilib quritiladi. Matoli qopda 2 yil saqlanadi.


O'simlikning tepa qismida drozerin xinoninlar, plumbagin flavonoidlar, tanin, kalsiy va kaliy tuzlari, vitamin C, organik va fenokarbonli kislotalar, ayrim miqdorda oshlovchi moddalar.

Rosyanka vositalari balg'am ko'chiruvchi bakteritsid, fungitsid, isitmani turshirish, siydik haydash xususiyatlariga ega, ichki a'zolari, tekis mushaklarni bo'shashtiradi.

O'tkir va surunkali bronxitda o'pkaning o'tkir shamollashida bronxial astmada, shamollashlarda, o'tkir faringit, ko'kyo'talda, laringit, koronar tomirlar aterosklerozida iste'mol qilinadi. Tashdan esa so'galni, qadoqni, sepkilni yo'qotishda qo'llaniladi. Rosyanka vositasini sil va epilepsiyada qo'llamaslik kerak.

TO‘RTGULBARG KLYUKVA (KLYUKVA)
TO‘RTGULBARG KLYUKVA – KLYUKVA
CHETIREXLEPESTNAYA – OXYCOCCUS
PALUSTRIS

O‘simlik tasviri. To‘rtgulbarg klyukva brusnikadoshlar – Vacciniaceae oilasiga mansub, bo‘yi 80 sm gacha yetadigan sudralib o‘sovchi doim yashil bo‘ta. Barglari tuxumsimon, tekis qirrali bo‘lib, poyasida bandi yordamida ketma-ket o‘rmashgan. Pushti yoki qizil rangli, to‘rt bo‘lakli gullari 2-4 tadan uzun bandi bilan poyasining uchida joylashib, oddiy soyabonga o‘xshash to‘pgulni hosil qiladi. Mevasi – sharsimon, qizil rangli, ko‘p urug‘li, sershira ho‘l meva.



TO‘RTGULBARG KLYUKVA

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Sibir, Kamchatka va Saxalindagi tog‘li botqoqliklarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Tibbiyotda klyukvaning mevasi ishlatiladi. Mevasi sentabr oyida (bu vaqtda yig‘ilgan meva qattiq bo‘lib, saqlash davrida yumshaydi), kech kuzda (bu vaqtda mevasi yuqori sifatli va nordon bo‘ladi) yoki erta bahorda, qor tagidan (bu vaqtda mevasi nordon-shirin bo‘lib, uzoq saqlanmaydi) yig‘iladi. Yig‘ilgan meva quritilmasdan qo‘llaniladi yoki uni muzlatib qo‘yib, qish bo‘yi saqlash mumkin. Ishlatiladigan vaqtda suvda eritilsa, mevasi yangi yig‘ilgandek bo‘ladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Klyukva mevasi tarkibida organik kislotalar (xin, limon, oz miqdorda benzoat kislotalar), qandlar (glyukoza, fruktoza, saxaroza), 10-30 mg% vitamin C, vakatsiya glikozidi, 0,7-1% pektin, 0,7-1% va boshqa moddalar bor. Meva shirasidagi organik kislotalar miqdori 2-5 %, qandlarniki 3-4 % ga teng.

Mevasining ekstrakti isitma kasalliklarida hamda avitaminozda beriladigan nordon ichimlik tarkibiga kiradi.

Tibbiyotda klyukvaning yana bir turi – Klyukva melkoplodiaya – *O. microcarpus* Turcz et Rupr – Mayda mevali klyukvaning mevasi ham yuqoridagi maqsadlarda qo'llaniladi.

UZUNCHOQ BARGLI QO'G'A
UZUNCHOQ BARGLI QO'G'A – ROGOZ
UZKOLISTNIY – TYPHA ANGUSTIFOLIA



UZUNCHOQ BARGLI
QO'G'A

Bu ko'p yillik katta suvda yoki botqoqlikda o'sadigan ildizpoyali o'simlik qo'g'alar oilasiga mansub va bo'yi 2,5 m gacha bo'ladi. Poyasi oddiy barglari yalpoq ikki qator chiziqli gullari mayda bir jinsli qalin so'tagul tipini hosil qiladi (poya tepasida erkak jinsli, pastroqda urg'ochi jinsli). Yoz oxirida va kuz boshida jigarrang urg'ochi so'taning pishganini ko'rasiz. Qo'g'a yoz o'rtasida gullaydi. Ildizpoyasini ovqatga ishlatish mumkin.

Ildizpoyasi ayrim hollarda bargi so'tasi dorivor xomashyo bo'ladi. Ildizpoya bahorda va kuzda olinadi

va oddiy usulda quritiladi. Barglar yoz ichi teriladi, changchisi gullaganda so'tasi pishganda.

Barglarida vitamin C ko'p, ildizpoyasida esa u oshlovchi moddalar: qand, nordon shavel, kalsiy, shilimshiq kraxmal, oqsil bor. Kulining changchisida uglevodlar, yog'li moddalar izoramtenin bor.

Qo'g'a vositasi yallig'lanishga qarshi, isitmaga qarshi, yumshatuvchi singaga qarshi, qon to'xtatuvchi xususiyatlarga ega.

Xalq tabobatida qo'g'a ildizi gastrit, enteritda, ichburug'da, oddiy va qonli ich ketganda, so'zakda, isitmada, ichga qo'llanilgan. Kuygan va muzlaganda davolashda sutining bug'i yaxshi yordam beradi.

DORIXONA UKROPI

DORIXONA UKROPI – FENXEL OBIKNOVENNIY
– FOENICULUM VULGARE

O'simlik tasviri. Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo'yi 90-200 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Dorixona ukropi ikki yillik qilib o'stiriladi. Poyasi tik o'sadi, sershox. Barglari uch-to'rt marta ingichka chiziqsimon yoki ipsimon bo'laklarga patsimon ajralgan bo'lib, qini yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Mayda, sariq rangli, besh bo'lakli gullari poya va shoxlari uchiga joylashgan murakkab soyabon gulto'plamni hosil qiladi. Mevasi – qo'shaloq pista.



DORIXONA UKROPI

Iyul-avgust oylarida gullaydi, mevasi sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Fenxel yovvoyilashgan holda Turkmaniston janubida (Sumbar tog' oralig'ida) uchraydi.

Ukrainaning janubi-g'arbiy hududlarida, Krasnodar o'lkasi, Shimoliy Kavkazda va O'rta Osiyoning ayrim hududlarida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi va undan olinadigan efir moyi. O'simlik mevasining 60-90 % i yetilganda o'rib olinadi, bog'-bog' qilib bog'lab, ham mevalari pishishi va o'simlik qurishi uchun poyasining mevali qismini tepaga qaratib, xirmonga to'plab qo'yiladi (yog'ingarchilik vaqtida usti berk joyda quritiladi). Keyin o'simlik yanchiladi, shamol mashinasida sovurib, mevalari tozalab olinadi. Mevasidan farmasevtika zavodlarida efir moyi olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Meva tarkibida 3-6,5 % efir moy, 20 % gacha yog', oqsil va boshqa moddalar bor. Efir moyi 50-60% anetol, 10- 20 % fenxok ketoki, 10 % gacha metilxavikol va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Mevasidan olingan efir moyi va undan tayyorlangan ukrop suvi yuqori nafas yo'llari yallig'langanda va shamollaganda balg'am ko'chiruvchi, ich yumshatuvchi hamda yel haydovchi vosita sifatida me'da-ichak kasalliklari va meteorizm (ichaklarda gaz to'planishi, qorin dam bo'lishi)da, ichak spazmida va sanchig'ida, dispepsiyada qo'llaniladi. Ba'zan mevasi o't pufagi va bo'yрак-tosh kasalligida ham ishlatiladi. Efir moyi farmasevtikada suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi. Mevasi surgidori sifatida qo'llaniladigan, yel haydovchi, ich yumshatuvchi, ko'krak og'rig'ida qo'llaniluvchi, tinchlantiruvchi va o't haydovchi choylar — yig'malar tarkibiga kiradi.

O'RMON YONG'OG'I
O'RMON YONG'OG'I – LESHCHINA
OBIKNOVENNAYA – CORYLUS AVELLANA

Bu bo'taqayinlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 7 m gacha bo'ladi. Novdasi shoxlangan, jigarrang po'stloq bilan qoplangan. Barglari birin-ketin joylashgan, chekkalari notekis arrasimon bandli. O'simlik bir uyali bo'lib, mart-aprelda gullaydi. Gullari mayda bir jinsli, shamolda changlaydi, mevasi bir urug'li yong'oq. Avgust-sentabrda pishadi. Pishgan mevasidan, ozgina suvda ezib, sut olinadi, u katta kuchga ega. Mevasi, po'sti, bargi va tomiri dorivor xomashyo hisoblanadi. Pishgan mevalarni pechkada yoki quritgichda 60-70 °C da quritiladi, barglari gullaganda uziladi. Soyada quritiladi, po'stini erta bahor kesilishi kerak bo'lgan shoxlardan olinadi. Yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi.




O'RMON YONG'OG'I

Shoxlari va barglarida oshlovchi moddalar, flavonoidlar, efir moyi, triterpenlar, vitamin C, karotin, antotsianinlar, palmitinli kislota bor. Mevasida uglevodlar, vitaminlar B₁, B₂, C, E, PP, yog'li moylar, ularning tarkibida to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari ham topilgan.

O'rmon yong'og'i vositalari burishtirish, ichburug'ga qarshi, tomirlarni kuchaytirish, isitmani tushirish, yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ega, ular emizikli onaning sutini ko'paytiradi va tomirlarni devorini mustahkamlaydi.

O'RMON QULUPNAYI (YERTUT)
O'RMON QULUPNAYI – ZEMLYANIKA LESNAYA
– FRAGARIA VESCA



O'RMON QULUPNAYI

O'simlik tasviri. Ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga mansub, bo'yi 5-20 sm keladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta bo'lib, tik o'sadi. Ildizoldi barglari qo'ltig'idan uzun, ipsimon jingalaklar o'sib chiqadi. Barglari asosan ildiz oldidan chiqadi (ba'zan poyada bitta yoki ikkita yaxshi taraqqiy yetmagan barg bo'ladi). Ular uzun bandli, uch bo'lakli bo'lib, murakkab tuzilgan. Barg bo'lakchalari –

bandsiz, ellipssimon yoki rombsimon, yirik tishsimon qirrali. Oq yirik, uzun bandli gullari poyasi uchida siyrak qalqonsimon gulto'plamni hosil qiladi. Mevasi – tuxumsimon yoki keng ellipssimon, xushbo'y, qizil rangli, sersuv soxta meva.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyo (Tyanshan tog'larida)ning o'rmon-cho'l zonasidagi ignabargli o'rmonlarda, o'rmondagi ochiq yerlarda va dalalarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Bargi va mevasi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida 5-10 % qand, 1,2-1,7 % organik (olma, salitsil) kislotalar, 20-50 mg % vitamin C va B, karotin, antotsianlar, flavonoidlar, pektin, oshlovchi moddalar, bargida 250-300 mg % vitamin C, oz miqdorda alkaloidlar, flavonoidlar (kversetin va kempferol hosilalari), oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Meva va bargining damlamasi podagra, bo'yрак va jigar-tosh kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida, shamollash kasalliklarida, ninga va boshqa avitaminozlarda hamda bachadondan qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladi. Mevasi yana davolovchi vosita sifatida ateroskleroz, gipyertoniya, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, podagra, qabziyatda va boshqa kasalliklarda hamda organizmda tuz almashinuvi buzilganda iste'mol qilish tavsiya etiladi. Xalq tabobatida yaralarni davolash uchun quritilmagan bargini ezib ularga qo'yiladi.

UCH BARGLI VAXTA

UCH BARGLI VAXTA – VAXTA TREXLISTNAYA – MENYANTHES TRIFOLIATA

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik, vaxtalilar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 30 sm gacha boradi. Ildizi uzun, o'rmalovchi, barglari oddiy, uchтали, uzun poyachali, to'g'ridan-to'g'ri ildizdan chiqadi. May-iyunda gullaydi. Gullari – oq yoki oqish pushti. Mevasi ikki tavachasi ochiluvchi ko'sakcha bo'lib, iyul-avgustda yetiladi. Dorivor ashyosi – barglari. Ularni gullash davrida yig'ib olinadi. Barglari zangori bo'lib qolishi uchun ularni salqin joyda yoki quritqichda quritiladi. Yopiq idishlarda 2 yil saqlasa bo'ladi.

Barglari achchiq glikozidlar, gentsianin alkaloidi, flavonli glikozidlar, C vitamini, xolin, yog'li moy, menolen payavmitin yog' kislotalari, mast qiluvchi moddalar, yod va boshqa birikmalarni o'zida tutadi.

O'simlik preparatlari yallig'lanishga



UCH BARGLI VAXTA

qarshi biroz bo'shashtiruvchi, o't haydovchi, antiseptik, isitma tushiruvchi, umumiy tonusni oshiruvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Kislota yetishmovchiligi bilan boruvchi gastritlarda, qabziyatda, meteorizmدا, revmatizmدا, shishlarda, kamqonlikda, ishtahani ochishda ichiladi, eski yaralarni yuvishda ham ishlatiladi.

UCH BO'LAKLI QORAQIZ (ITTIKANAK) CHEREDA TREXRAZDELNAYA – BIDENS TRIPARTITA

O'simlik tasviri. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) Asteraceae (Coshpositae) oilasiga mansub, bo'yi 15 – 60 (ba'zan 100) sm ga yetadigan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, asos qismidan boshlab qarama-qarshi shoxlangan. Barglari uchta nishtarsimon, arrasimon-tishsimon qirrali bo'lakchalarga chuqur qirqilgan bo'lib, qanotli kalta bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida qarama-qarshi o'rnashgan. Barglarining o'rtadagisi yonidagilarga nisbatan ancha yirik.



UCH BO'LAKLI
QORAQIZ

Xira sariq rangli gullari poyasi bilan shoxlarining uchiga joylashgan savatchalarga to'plangan. Mevasi – cho'ziq teskari tuxumsimon pista.

Iyun-sentabr oylarida gullaydi, mevasi iyul-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishi. U keng tarqalgan bo'lib, nam o'tloqlarda, botqoqliklarda, ariq bo'ylarida, begona o't sifatida ekinzorlarda va boshqa yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. O'simlik gullay boshlaganida

va qisman gullaganida yer ustki qismi o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 28,3 – 61,26 mg % karotin, 74,8 – 95,3 mg % vitamin C, efir moyi, 3,55 % gacha polifenollar, flavonoidlar (lyuteolin, sivarozid, (izookanin), kumarinlar (umbelliferok, skololitin va hokazo), 4,3-6, 8% oshlovchi, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor.

Yer ustki qismining damlamasi bolalarning diatez va ba'zi teri kasalliklariga (ekzema va boshqa) shifobaxsh vannalar qilishda hamda ba'zan siydik haydovchi, terlatuvchi va ovqat hazmini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatmasi xalq tabobatida shirincha, raxit, podagra, jigar va taloq kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Damlamasi yana terlatuvchi, siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va ishtaha ochuvchi vosita hamdir. Bular bilan ba'zan teri kasalliklari (ekzema va boshqalarni) hamda rak kasalligining ba'zi turlari davolanadi.

Ittikanak (uch bo'lakli qoraqiz)ning yer ustki qismidan foydalanib bolalarning ba'zi diatez kasalliklarini hamda qo'tir va turli teri kasalliklarini davolash uchun shifobaxsh vanna qilinadi.

Ittikanak (uch bo'lakli qoraqiz)ning yanchilgan yer ustki qismi ilon chaqqan joyga bog'lanadi, ildizining qaynatmasi chayon chaqqanga davo qilinadi.

Ittikanak (uch bo'lakli qoraqiz)ning yer ustki qismi yaralarni yiringdan tozalash, quritish va bitishini tezlatish ta'siriga ega. Uning quyuuq ekstraktidan tayyorlangan surtma bilan psoriasis (temiratkinning bir turi)ni davolab yaxshi natijalar olingan. Bundan tashqari, o'simlikning yer ustki qismi bolalarning shirincha kasalligini davolash uchun ishlatiladigan choy – yig'malar tarkibiga kiradi.

UCH RANGLI BINAFFSHA FIALKA TREXSVETNAYA – VIOLA TRICOLOR

Bir yillik o'simlik binaffshadoshlar oilasiga kiradi, 15 santimetrgacha o'sadi. Tomiri uzun ingichka mayda tomirchalari kam bo'ladi.



UCH RANGLI BINAFFSHA Tanasining, ichi teshik, to'g'ri turuvchi tuk bilan qoplangan bo'ladi. Barglari ketma-ket, oddiy, tukli, pastki qismi tuxumsimon, tepa qismi uzunchoq elitsga o'xshaydi. Gullari yakka-yakka bo'lib, ko'k-safsar rangda har xil tovlanib turadi. Gullari uzun soplarda ochiladi. Urug'i kichkina tuxumsimon kosada bo'lib, juda mayda bo'ladi, tekis tuxumsimon bo'ladi. O'rilgan ko'katni salqin joyda quritiladi. Shisha yoki yog'och idishda 2 yilcha saqlash mumkin. Bu o'simlikning yer ustki qismida flavonoidlar (rutin, violakversetin va boshqa antotsianglikozidlar), efir moylari, vitamin C, karotinoidlar, saponinlarga boydir.

Uch rangli binaffsha xalq tabobatida balg'am ko'chiruvchi, terlatuvchi siydik haydovchi, ich o'tkazuvchi, mikroblarga qarshi, tinchlantiruvchi, agarda ko'p iste'mol qilinsa, qayt qildiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Tayyorlangan damlamani tomoq-halqum, bronxlar, siydik yo'llari shamollaganda, siydik-tosh xastaligida, aterosklerozda, yurak xurujida, bo'g'im xastaliklarida, raxitda, oshqozon-ichak xastaliklarida, dizenteriyada, kukun hoida esa sepiladi, uni suvda namlab yaralar yuviladi. Ayrim teri xastaliklarida tish og'rig'ida, shirinchalarda ishlatiladi.

XITOIY LIMONI

XITOIY LIMONI – LIMONNIK KITAYSKIY – SCHIZANDRA CHINENSIS

Bu chirmashadigan bo'ta – liana uzun to'q jigarrang yog'ochsimon novdasi bilan limonlar oilasiga kiradi va bo'yiga 15 m, diametrga 1,5 bo'ladi, barglari birin-ketin, cho'ziqroq, uzuniga 10 sm gacha, eniga 5 sm gacha qizilroq bandi bilan boradi. Gullari mayda bo'lib o'ziga yarasha hidi bor. Barglari qo'ynida egilgan gulbandi 2-5 bo'lib, to'plangan. Gullar – bir jinsli, o'simlik bir uyali. Guloldi barglari sodda, 6-9 ta gulbargsimon yaproqchadan tashkil topgan. Mevasi 20-50 suvli jigarrang



XITOIY LIMONI

qizil rangli dumaloqsimon rezadan hosil bo'lgan. Reza ichida o'rtada joylashgan kattaligi 8 sm gacha bo'lgan ikkita bo'yraksimon urug' bor. O'simlikning hamma qismida efir moyi bor va ezilganda limonning hidi keladi. Iyunda gullaydi, mevasi senyabr-oktyabrda pishadi.

Mevasi ichidagi urug'lar bilan dorivor xomashyo bo'ladi. Mevalar pishganda uziladi. Keyin pechkada yoki quritgichda resh-yotkaga butun boshi bilan qo'yiladi. Qotguncha quritiladi va qo'shimcha narsalardan tozalanadi.

Limonnik mevasida organik kislotalar, shakar, mineral tuzlar, vitamin C va B bor, urug'ida yog'li moylar, yelimli moddalar, efir moylari, sxtzandrin topilgan.

Limonnik mevasi va urug'i bosh miya po'stini qo'zg'altiradi, markaziy asab tarmog'i reflektorli


jarayonlarini kuchaytiradi, tomir tarmog'ini kuchaytiradi, ko'rish o'tkirligini va ko'zning qorong'iga o'rgatishni ko'taradi. Organizmning kislorod ozligiga chidamligini ko'tarishi aniqlangan.

Limonnik vositalari astenik, astenodepressiv holatlarda, psixoastenyada, gipotenyada, toliqqanda, surunkali gastritda ishlatiladi. Limonnik urug'i oshqozonning suyuqlik ishlab chiqishini me'yorlashtiradi. Shuning uchun kislotaliligi ko'p gastritlarda ishlatiladi. Limonnik sharbati kislotaliligi jo'shib ketishi bilan kuzatilayotgan gastritlarda maslahat beriladi.

XREN

XREN – XREN OBIKNOVENNIY – ARMORACIA RUSTICANA

O'simlik tasviri. Xren karamdoshlar (butguldoshlar) – Brassicaceae (Cruciferae) oilasiga mansub, bo'yi 50-150 sm bo'ladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Ildizi – yo'g'on, etli, oqish va shoxlangan. Poyasi – bitta yoki bir nechaga, tik o'suvchi. Ildizoldi barglari yirik, uzun bandli, cho'ziq shaklli, poyadagi barglari nishtarsimon, arrasimon qirrali bo'lib, bandi yordamida (pastdagilari) yoki bandsiz ketma-ket o'rnashgan. Oq rangli, to'rt bo'lakli gullari ko'p gulli shingilni tashkil qiladi. Mevasi – ikki xonali qo'zoq.



XREN

Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi odatda yetilmaydi (urug' hosil qilmaydi). Ko'p miqdorda ziravor o'simlik sifatida o'stiriladi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida xrenning ildizi ishlatiladi. Uni odatda bahor yoki kuzda (yoz bo'yi ham) kovlab olinadi, suvda yuvib, tuproq va loydan tozalanadi, ochiq havoda – quyoshda quritiladi yoki quritilmay qo'llaniladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Xren ildizi tarkibida sinigrin glikozidi, mirozin ferienti, lizosin antibiotigi, 250 mg % vitamin C, bargida - 350 mg % vitamin C, flavonoidlar (kempferol, kversetin), oz miqdorda alkaloidlar va boshqa moddalar bor.


Xrenning quritilmagan ildiz shirasi yoki ezilgani va ildiz qaynatmasi xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ovqat hazmini yaxshilovchi va siydik haydovchi vosita sifatida hamda ninga kasalligini davolash uchun qo'llaniladi. Quritilmagan ildizi ezilgan, maydalangan holda xantal kabi shamollash kasalliklarida tananing dardga chalingan yeriga qo'yiladi.

XUSHBO'Y TOSHBAQA TOLI

XUSHBO'Y TOSHBAQA TOLI – RUTA DUSHISTAYA – RUTA GRAVEOLENS

Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlik rutular oilasiga kiradi va bo'yiga 20-50 bo'ladi. Ildizpoyasi yog'ochsimon. Undan tikka shoxlangan poya o'sib chiqadi. Barglari bo'lak-bo'lak murakkab, ikki va uch bo'lingan, go'shtli yalang'och. Beti tarafi sariqroq zangori, xushbo'y bo'zlar bilan qoplangan, orqasi ko'kimtir. Gullari sariq, qalqonsimon gulto'pga to'plangan. Mevasi – to'rt va besht yulduzli ko'sakcha.

O'ti dorivor xomashyo bo'ladi. Uni gullaganda tepasidan kesib olishadi. Salqinda yoki quritgichda 40 °C haroratda quritishadi. Yaxshi bekitilgan idishda 1 yil saqlanadi.



*XUSHBO'Y TOSHBAQA
TOLI*


Xomashyo tarkibida efir moyi, alkaloidlar, flavonoidlar, kumarinlar, sesviterapiyalar, alifatik uglevodlar, spirtlar, geterosiklik kislorodi bor birikmalar, karotinoidlar, yuqori yog'li kislotalar, vitaminlar C va P bor.

Toshbaqa toli vositalari yallig'lanishga qarshi, antibakterial, fungitsid, trixomonadga qarshi, tutqanoqqa qarshi, umumiy holatni yaxshilovchi, tetiklantiruvchi, detoksikatsin yara bitkazuvchi, og'riqsizlantiruvchi, antigemetik ta'sirlarga ega.

Oshqozon-ichak yo'llari xastaliklarida (sanchiqda, oshqozon shirasi kam bo'lgan gastritda) bronxitda, o'pka shamollashida, aritmiyada va yurak yetishmovchiligida, bivosilda, bosh aylanganda, siydik-tosh kasalligida, hayz kelishi buzilishida, gijjalarda, ilon chaqqanda detoksikatsion vosita sifatida iste'mol qilinadi. Tashdan bo'g'inlarning surunkali xastaliklarida, bo'g'inlar bodida, nevralsiyada, lyumbagoda va yuqumli xastaliklardagi nevrirlarda, yotoqyarada, lat yeganda, qon quyulganda ishlatiladi. Bu o't bilan davolashda ehtiyot bo'lish kerak. Homilador ayollarga va bolalarga mumkin emas.

XUSHBO‘Y SHIVIT (XUSHBO‘Y UKROP) XUSHBO‘Y SHIVIT – UKROP PAXUCHIY – ANETHUM GRAVEOLENS

O‘simlik tasviri. Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub, bo‘y 40-120 sm ga yetadigan bir yillik o‘t-o‘simlik. Poyalari tik o‘sadi, ko‘p qirrali, shoxlanmagan yoki to‘rt qismidan shoxlangan. Barglari ingichka, ipsimon yon chiziqsimon bo‘laklarga uch yoki to‘rt marta patsimon ajralgan, bandli (ildizoldi va poyasining pastki qismidagilari) yoki qinli (poyasining yuqori qismidagilari) bo‘lib, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Mayda, sariq rangli, besh bo‘lakli gullari murakkab soyabon gulto‘plamiga joylashgan. Mevasi – yassi, cho‘ziq tuxumsimon yoki teskari tuxumsimon qo‘shaloq doncha.



XUSHBO‘Y SHIVIT

May-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyun-sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlarining ko‘pchilik hududlarida (shu jumladan, O‘rta Osiyo respublikalarida ham) ziravor o‘simlik sifatida o‘stiriladi.

Qo‘llaniladigan qismi. Mevasi. Yoz oylarida, o‘simli mevasi 30-60% pishganda o‘rib olinadi, soyabonlarni yuqoriga qaratgan holda bir-biriga suyab, xirmonda

(yogʻingarchilik boʻlsa, usti berk joyda) gʻaramlab qoʻyiladi. Mevalari obdan pishib qurigandan soʻng yanchiladi, shamolda sovuriladi va mevasi ajratib olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Xushboʻy shivit mevasi tarkibida 4 % gacha efir moyi, 20 % yogʻ kumarinlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi 50 % gacha karbon, 30 % gacha apiol, limonen fellandren va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Dori preparatlari qorin boʻshligʻidagi aʼzolar spazmida, surunkali spastik qabziyatda, surunkali yurak qon-tomirlar ishi yetishmovchiligida hamda stenokardiya kasalligining oldini olishda qoʻllaniladi.

Xushboʻy shivit yer ustki qismidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash, gipyertoniya kasalliklarida qon bosimini pasaytirish uchun hamda siydik va yel haydovchi, emizikli ayollarning sutini koʻpaytiruvchi dori sifatida qoʻllaniladi. Shivit mevasidan tayyorlangan damlama, qaynatma yoki meva poroshogi nafas qisganda, nafas yoʻllari, jigar, boʻyrak, nevrasteniya va gipyertoniya kasalliklarida ishlatiladi; ovqat hazmini yaxshilovchi, yel va siydik haydovchi, balgʻam koʻchiruvchi, emizikli ayollar sutini koʻpaytiruvchi va yurak charchab qolgan hollarda uning urishini tezlatuvchi vosita sifatida foydalaniladi. Anjirga qoʻshib pishirilgan shivit mevasi yoʻtal va astma kasalliklarida yaxshi naf beradi.

CHAGA YOKI QAYIN QO'ZIQORINI CHAGA – CHAGA – INONOTUS OBLIQUUS

Bu ko'p yillik parazit qo'ziqorin daraxt zamburug'lari oilasiga kiradi. Daraxtdan o'sib chiqqan bo'lagi ko'pincha qayindan noto'g'ri shaklida uzuniga 30-40 sm gacha qalinligi 10-15 sm bo'ladi. O'simta ko'pincha terpasida pukagining po'sti qolgan bo'ladi.

Qisganda 3 qatlam ko'rinadi: tepasi qora, juda qattiq 1-2 mm qalinlikda, o'rta qismi qalin, qo'ng'ir jigarrang, har xil yo'g'onlikda, ko'pincha, daraxti poyasiga yetadi. Ichki qismi yumshoq qo'ng'ir yoki sariqroq. Sporalar bilan ko'payadi, ular po'sti shikastlangan joyga tushib o'sma hosil qiladi va sekin-asta kattayadi.

Qo'ziqorin 10-15 yil o'sadi va 4-5 kg og'irlikda bo'ladi.

Qayinda o'sgan chaga xomashyo bo'ladi. Qo'ziqorinni yil davomida terish mumkin, eng yaxshi kuzda yoki bahorda. O'simtalar bolta yoki chopqi bilan olinadi va ichki yumshoq qismini olib tashlanadi. Olish vaqtida daraxt zamburug'i tushmasligi kerak. U chagadan ichki qismi naysimonligi bilan farq qiladi. Qurigan, so'liyotgan, qari, uqalanayotgan hamma qismi qora rangdagi qo'ziqorinni olmaslik kerak. Yangi o'smalarni



CHAGA

3-6 sm qilib uch bo'lakka bo'linadi va salqinda yoki pechkada 60°C haroratda quritiladi. Quritilganda chaga bo'laklari qattiqlashadi, juda qattiq va o'ta jigarrang bo'ladi. Yaxshi berkitilgan shisha idishda 2 yil saqlanadi.

Mevali tana qismida xromogenlar polifenollar, triterpenoidlar, yelimlar, agartsinli kislota, alkaloidlar, polisaxaridlar, sterinlar va lignin bor.

Chaga vositasi har xil sababli bo'lgan o'smalar o'sishini to'xtatadi. Shuning uchun uni yomon sifatli o'smalarda har xil joyda joylashgan, agar jarohlik va nur bilan davolash ko'rsatilmagan bo'lsa va oshqozon kislotaliligi tushishi bilan kuzatilayotgan kasalliklar bo'lmasa, davolash mumkin. Chaga ko'ngil aynishini va og'riqni ozaytiradi. Oshqozon-ichak yo'llarini faoliyatini me'yorlashtiradi.

Kichik tozdagi o'smalarda 2 m kunda 2 mahal 50-100 ml chaga damlamasida davolash, xuqnasini qilish maslahat beriladi. Chaga bilan davolash davrida sutli-o'simlik parhezini tutish va konservali kolbasani va achchiq narsalarni iste'mol qilmaslik kerak.

GAZANDA (CHAYONO‘T, QICHITQI).
IKKI UYLI GAZANDA
CHAYONO‘T, GAZANDA – KRAPIVA
DVUDOMNAYA – URTICA DIOICA

O‘simlik tasviri. Gazandadoshlar – Urticaceae oilasiga mansub, bo‘yi 60-120 (150) sm keladigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi tik o‘sadi, tumtoq to‘rt qirrali, shoxlanmagan yoki qarama-qarshi shoxlangan. Barglari keng tuxumsimon, o‘tkir uchli, sertuk, yirik arrasimon qirrali bo‘lib, poya va shoxlarida bandi yordamida qarama-qarshi o‘rnashgan, bir jinsli, mayda, ko‘rimsiz, yashil rangli, to‘rt bo‘lakli gullari barg qo‘ltig‘idan chiqqan boshoqqa to‘plangan. Mevasi – yong‘oqcha.



CHAYONO‘T, GAZANDA

O‘simlikning hamma qismi achituvchi tuklar bilan qoplangan.

May-sentabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Ukraina, Belorussiya va Rossiyaning Yevropa qismi, Sibir, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, qisman Uzoq Sharqdagi suvga yaqin yerlarda, salqin o‘rinlarda, yo‘l yoqalarida, bo‘tazorlarda, aholi yashaydigan yerlarga yaqin joylarda, uylar atrofida va tog‘ etaklarida o‘sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Bargi. O'simlik gullaganda barglari qo'lqop kiyib terib olinadi yoki yer ustki qismini o'rib olib so'ltiladi (o'simlik so'ltilganda uning achituvchi xususiyati yo'qoladi), so'ngra bargi terib olinadi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bargi tarkibida 100-600 mg % vitamin C, K, B₂, 14-30 mg% karotinoidlar, pantoten kislota, kvvertsetin, atsetilxolin, efir moyi, organik kislotalar, 2-5 % xlorofill, mikroelementlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Dori preparatlari (damlama, suyuq ekstrakti vitaminli choy — yig'malar tarkibida) qon oqishlarni bavo sil kasalligida, o'pkadan, burundan, ichakdan va hayz buzilganda bachadondan qon ketganda) to'xtatuvchi vosita sifatida hamda surunkali yaralarni, vitaminlar yetishmasligidan kelib chiqqan kasalliklarni — avitaminozlarni davolash uchun ishlatiladi. Bargi yana jigar kasalliklarida qo'llaniladigan o't haydovchi allaxol preparati tarkibiga kiradi.

Gazanda o'simligi mevasini Abu Ali ibn Sino nafas qisishi kasalligini davolash uchun, bargini qon oqishini to'xtatuvchi va surgi vosita sifatida qo'llagan.

O'simlik bargidan tayyorlangan damlama qaynatma va barg kukuni xalq tabobatida kurak og'rig'i, nafas qisishi, diabet, isitma va bod kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Bulardan tashqari, bargidan tayyorlangan damlama va poroshogi nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi (siydik yo'llari va bo'yрак-tosh kasalliklarida) hamda ichakda qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida qo'llanadi.

Soch to'kilishini to'xtatish uchun gazanda bargi damlamasi bilan bosh yuviladi.

Bargidan ajratib olingan xlorofilldan farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan zararsiz bo'yoq tayyorlanadi.

CHAKAMIG'

CHAKAMIG' – PODMARENNIK
NASTOYASHCHIY – GALIUM VERUM

Botanik ta'rifi. Sershox ildizpoya va ingichka-ingichka poyalar chiqaradigan, bo'yi 120 sm ga boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Barglari uchi o'tkir, tor nashtarsimon, 8 – 12 donadan to'p-to'p bo'lib chiqadi. Gullari mayda, sariq, uzun-uzun ruvaklarga to'plangan.

Iyun-avgustda gullaydi.

Geografik tarqalishi. Bu o'simlik deyarli hamma yerda uchraydi.

Ishlatiladigan organlari: Gullab turgan davrida yig'ib olinadigan yer ustki qismi (o'ti).

Kimyoviy tarkibi. Bu o't tarkibida galiozin, rubiadin va aspirulozid degan trioksiantraglikozidlar, efir moyi yuqlari, oshlovchi va bo'yoq moddalar hamda sut ivishiga sabab bo'ladigan modda bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Yangi yig'ib olingan chakamig' o'tidan tayyorlangan damlamani xalq tabobatida qon to'xtatadigan, tinchlantiradigan, og'riqni qoldiradigan va siydik haydaydigan vosita tariqasida ichish



CHAKAMIG'

va sirtga ishlatish uchun buyuriladi. Bu o'tning achchiq qilib damlangan damlamasi va yangi olingan suvini isteriya, nevrosteniyada, bolalarda bo'ladigan talvasalar ("shaytonlash" mahali)da, jigar kasalliklarida ichish va burun qonaganida burunga qo'yish uchun tavsiya etiladi, gullarini kukun qilib, ko'pdan beri bitmay kelayotgan yara-jarohatlarga sepiladi.

Zamonaviy tabobatda chakamig'dan yurak va bo'yрак kasalliklari munosabati bilan badanga shish kelganida, siydik haydaydigan vosita tariqasida revmatizm, turli teri kasalliklarida foydalanish tavsiya etiladi. Qaynatmalari badandagi chipqon, shirincha yaralarini yuvish, chayish, shuningdek, ularga vanna qilish uchun ishlatiladi. Ildizlaridan tayyorlangan qaynatmani pnevmoniya, endometritlarda buyuriladi.

Tayyorlash va ishlatish usullari. 1. Mayda to'g'ralgan o'tdan 40 g miqdorda olib, ustiga 1 l suv qo'yiladi, past olovda 15 minut qaynatiladi, suzib olinadi-da, 1/4 stakandan kuniga 3 – 4 mahal ichish uchun buyuriladi.

2. Yangi o'tdan siqib olingan suvini 3 – 4 oshqoshiqdan kuniga 3 mahal ichiladi.

3. Mayda to'g'ralgan 1 oshqoshiq chakamug' o'ti ustiga 2 stakan qaynoq suv quyib, 5 – 6 soat damlab qo'yiladi, ovqatdan oldin 1/2 stakandan kuniga 3 – 4 mahal ichish uchun buyuriladi.

CHAKAMUG‘, QUMRIO‘T
CHAKAMUG‘ – PODMARENNIK SEPKIY
– GALIUM APARINE

Ro‘yandoshlar – Rubiaceae oilasiga mansub, bir va ko‘p yillik o‘t-o‘simlik.

Xalq tabobatida ikki turi qo‘llaniladi: Pomir-Oloy chakamug‘i – Podmarennik pamiroalayskiy – *G.pomirala* – icum bobed.

O‘simlik tasviri. Pomir-Oloy chakamug‘i bo‘yi 20-80 sm bo‘ladigan ko‘p yillik o‘t-o‘simlik. Poyasi tik o‘sadi, aniq bo‘lmagan to‘rt qirrali, yuqori qismi shoxlangan, bo‘g‘inli, barglari chiziqsimon – nishtarsimon bo‘lib, bandsiz poyasi bilan shoxlarining bo‘g‘inlarida to‘p-to‘p bo‘lib o‘rnatilgan. Sariq rangli, mayda gullari barg qo‘ltig‘idan chiqqan yarim soyaboyalardan tashkil topgan ruvakka joylashgan. Mevasi – ikkita yong‘oqcha.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda yetiladi.

Geografik tarqalishi. O‘rta Osiyoda tog‘ etaklaridan to tog‘larning o‘rta qismigacha bo‘lgan archazorlarda, o‘tloqlarda o‘sadi.

Qo‘llaniladigan qismi. Xalq tabobatida Pomir-Oloy chakamug‘ining ildizpoyasi va ildizi ishlatiladi. Yer ostki



CHAKAMUG

organlari kech kuzda yoki erta bahorda kovlab olinadi, suvda yuvib tuproq va loydan tozalanadi, so'ngra ochiq havoda — quyoshda quritiladi. Ba'zan yer ustki qismi ham ishlatiladi. Uni o'simlik gullagan vaqtida o'rib olinadi va quritmay yoki soya yerda quritib qo'llaniladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Pomir-Oloy chakamug'i ildizpoyasi va ildizi tarkibida 1,2% antratsen unumlari (pseudopurpurin, alizarin, ruberitrin kislota va boshqalar), qandlar, organik kislotalar, yer ustki qismida flavonoidlar bor.

Ildizpoyasi bilan ildizining qaynatmasi bo'yрак va siydik yo'llari kasalliklarida siydik haydovchi dori sifatida, quritilmagan yer ustki qismining shirasi yara, chipqon, jarohatlar va teridagi toshmalarni davolashda qo'llaniladi.

Ilashuvchi chakamug' (qumrio't) — Podmarennik Sepkiy — G. aparine L.

O'simlik tasviri. Ilashuvchi chakamug' bo'yi 30-100 sm bo'lgan bir yillik o't-o'simlik. Poyasi to'rt qirrali, bo'g'inli, shoxlangan, uchi ilmoqli, ilashuvchi tuklar bilan qoplangan. Barglari teskari tog' lansetsimon bo'lib, poya va shoxlarining bo'g'inlarida 6-8 tadan bandsiz to'p-to'p bo'lib o'rnashgan. Mayda, oq rangli gullari barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan yarim soyabonga joylashgan. Mevasi — yong'oqcha.

Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi iyun-iyulda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Kavkaz, Sibir, Uzoq Sharq va O'rta Osiyodagi nam va salqin yerlarda, dalalarda, tog' oraliqlarida, to'qaylarda, qurigan shag'alli ariq va daryochalarda, yo'l yoqalarida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Xalq tabobatida ilashuvchi chakamug'ning yer ustki qismi ishlatiladi. Uni o'simlik gullaganda yig'iladi va soya yerda quritiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ilashuvchi chakamug'ning yer ustki qismi tarkibida saponinlar, aspegulozid glikozidi, limon kislota, 26 mg % vitamin C, bo'yoq va boshqa moddalar bor.

Yer ustki qismining damlamasi (ba'zan qaynatmasi) va quritilmagan o'simlik shirasi xalq tabobatida istisqo, singa, rak kasalliklarini, jarohatlarni, jigar kasalliklarini davolashda hamda o't haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi va isitmaga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

**CHAKANDA, JUMRUTSIMON CHAKANDA
(CHIRQANOQ)
CHAKANDA – OBLEPIXA
KRUSHINOVIDNAYA
– HIPPOPHAE RHAMNOIDES**

O'simlik tasviri. Jiydadoşlar – Elaeagnaceae oilasiga mansub, bo'yi 4-6 m ga yetadigan ikki uyli bo'ta yoki daraxt. Poyasi sershox va tikanli bo'lib, qo'ng'ir-yashil po'stloq bilan qoplangan. Barglari chiziqsimon-nashtarsimon yoki chiziqsimon, yuqori tomoni kulrang-to'q yashil, pastki tomoni biroz



CHAKANDA

sarg'ish qo'ng'ir-kulrang yoki oq tusli, tekis qirrali bo'lib, poya va shoxlariga qisqa bandi yordamida ketma-ket o'rtnashgan. Gullari bir jinsli, mayda va ko'rimsiz, kalta boshqochaga (otaliq gullari) yoki 2-5 tadan shoxchalar qo'ltig'iga (oraliq gullari) joylashgan. Mevasi — dumaloq yoki cho'zinchoq, to'q sariq, yoki qizg'ish rangli, sersuv, danakli meva.

Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi avgust-oktyabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. MDH davlatlari Yevropa qismining janubiy hududlarida, Kavkazda, Qora dengiz atroflarida, O'rta Osiyo, Sibir va Qozogistonning janubidagi daryo, ko'l va dengizlarning shag'alli va qumli qirg'oqlarida, tekislik va tog'lardagi to'qayzorlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Mevasi va ulardan olinadigan chakanda moyi hamda bargi. Mevalari to'liq pishgan ba'zan sovuq tushgandan so'ng yig'iladi. Yig'ilgan mevalari quritib yoki quritmasdan ishlatiladi, moy olish uchun zavodlarga yuboriladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibi 450 mg % C, 145 mg % E, B₁, B₂ vitaminlari, 60 mg karotin va boshqa karotinoidlar, foliy kislota, % gacha yog', flavonoidlar, 3,56 % qandlar, 2,64% organik (asosan olma va vino) kislotalar va boshqa moddalar bor, urug'ida 12,5 % yog', 0,28 mg vitamin B, 0,38 mg % vitamin B₂, 14,3 mg % vitamin E, 0,3 mg % karotin, oqsil va boshqa birikmalar bo'ladi. Moyi ham vitaminlar (110-165 mg % E, F hamda 40-100 mg % karotin yoki 180-300 mg karotinoidlar)ga boy.

Chakanda moyi radioaktiv nur ta'siridan zararlangan teri, shilliq qavatlar (qizilo'ngach, me'da, bachadon, qin shilliq qavatlari), me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, ba'zi ginekologik kasalliklar hamda vitamin yetishmasligidan kelib chiqqan avitaminoz va boshqa kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladi.

Chakanda moyi og'riq qoldiruvchi va yarani tez bitiruvchi ta'sirga ega. Shuning uchun uni me'da va qizilo'ngach shilliq qavatlari yarasini bitirish uchun ichiladi, kuygan joyga, yaraga bosiladi, dokani unga botirib qinga qo'yiladi.

Chakanda mevasini O'rta Osiyo xalqlari qadimdan og'riq qoldiruvchi, singa va milk qonashini, me'da kasalliklarini davolovchi vosita sifatida ishlatib keladilar. Bargining qaynatmasi bilan bod kasalligini davolaganlar. Buning uchun barg qaynatmasidan shifobaxsh vanna qilinadi yoki badanning og'riq joyiga issiq qaynatmaga botirilgan mato bog'lab qo'yiladi.

Bargi tarkibida 230-370 mg % vitamin C, flavonoidlar (kvertsetin, izoramnetin, miritsetin va boshqalar) gallat kislota, 8-9 % oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

ODDIY CHERNIKA
ODDIY CHERNIKA – CHERNIKA
OBIKNOVENNAYA
– VACCINIUM MYRTILLUS



ODDIY CHERNIKA

Bu shoxlangan bo'ta brusnikalar oilasiga kiradi va bo'yiga 40 sm gacha bo'ladi. Ildizpoyasi yer bilan bir tekislikda yaxshi rivojlangan. Poyasi tik turadi, shoxlangan. Barglari uchli, yangilari zangori, eskilari – kulrang yoki kulrangroq jigarrang. Barglari birin-ketin dumaloq-tuxumsimon bandli, oddiy, may-iyulda gullaydi.

Gullari yakkali, zangoriroq-oq pushti zilovli. Kalta gulbandda joylashgan. Mevasi dumaloq qora ko'k havorangli mumli qatlami reza, ichida ko'p jigarrang urug'lari bor. Iyul-avgust pishadi. Urug'i bilan vegetativ ko'payishi mumkin. 5-6 yilda meva berishni boshlaydi.

Mevasi va barglari dorivor xomashyo bo'ladi. Mevasi pishganda teriladi, saralanadi, lekin yuvilmay so'ltililadi, quritqichda 50-60°C haroratda yoki quyoshda quritiladi. Xomashyo yog'ochli idishda 2 yil saqlanadi.

Chernika bargi tarkibida organik kislotalar, efir moyi, triterpenoidlar, alkaloidlar, vitaminlar C, B, fenol va uning hosilalari fenolkarbonli kislotalar, pektinli va oshlovchi

moddalar, katexininlar, flavonoidlar, antotsianidlar, margansin tuzlari, temir, xrom, nikel, mis va boshqalar bor. Mevasida uglevodlar, organik kislotalar, vitaminlar C, B, PP, polifenollar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, antotsidlar topilgan.

